

# O‘QISH

*3-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or  
pedagogik va axborot-kommunikatsiya  
texnologiyalarini amaliyotga joriy etish  
bo‘yicha metodik qo‘llanma*

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi  
vazirligi tasdiqlagan

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2016

UO‘K: 372.416.2(072)

KBK: 81.2-93

O‘ – 97

Tuzuvchi-mualliflar:

**Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova,  
Shahnoza Muslimova, Fotima Karimova,  
Gulsara Saydaliyeva, Zahro Kabilova.**

Taqrizchilar:

**Inoyatova Muhayyo** – UzPFITI ilmiy xodimi, p.f.n.

**Ahmedova Nazira** – RTM “Boshlang‘ich ta‘lim” bo‘limi boshlig‘i.

**Abdullayeva Sojida** – Toshkent shahar 290-umumta‘lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Mazkur metodik qo‘llanma boshlang‘ich sinflarda ta‘lim sifat-samaradorligini oshirishga qaratilgan. Unga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda multimediali ilovalardan foydalanib yaratilgan namunaviy dars ishlanmalari kiritilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

## SHARTLI BELGILAR



– ilg‘or pedagogik texnologiyalar



– multimediali ilova

O‘ – 97      **O‘qish:** 3-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma /Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova, Shahnoza Muslimova, Fotima Karimova, Gulsara Saydaliyeva, Zahro Kabilova. – T.: “Sharq”, 2016. – 176 b.

ISBN 978-9943-26-562-2

**UO‘K: 372.416.2(072)**

**KBK: 81.2-93**

Respublika ta‘lim markazi huzuridagi “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-metodik kengashning 2016-yil 17-iyundagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

**ISBN 978-9943-26-562-2**

© Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Karimova F., Saydaliyeva G., Kabilova Z., 2016.

© “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2016.

## SO‘ZBOSHI

*Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb bo'lib qolmoqda.*

Islom KARIMOV

Zamonaviy ta'limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg'or texnologiyalarni hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonning didaktik ta'minotini yaratish, ta'lim mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish kerak. Bu muhim vazifani ijobiy hal etilishi ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni taqozo qiladi. Boshlang'ich ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish zarurdir.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalarining qo'llanilishi nafaqat o'qituvchi faoliyatiga, balki o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi hamda shakllanishiga asos bo'lmoqda.

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturining 71-bandi ijrosini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida 3-sinf o'qituvchilari uchun «O'qish» fanidan ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan mazkur metodik qo'llanma yaratildi.

Metodik qo'llanma boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga, o'qish darslari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ilg'or va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanilgan. Shuningdek, dars ishlanmalaridan namunalar va metodik ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan.

Ushbu metodik qo'llanma umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'qish darslari samaradorligini oshirishga amaliy yordam beradi, degan umiddamiz.

## Metodik qo'llanmaning tuzilishi


Mazkur metodik qo'llanma amaldagi 3-sinf «O'qish kitobi» (M. Umarova va boshqalar) darsligi asosida yaratildi. Dastur bo'yicha o'qish darsiga 170 soat ajratilgan. Metodik qo'llanmada 46 ta mavzuga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan namunaviy dars ishlanmalari, 12 ta mavzuga metodik ko'rsatma, 45 ta darsga multimedia ilovalari, jumladan, 15 ta animatsiya, 19 ta videolavha, 2 ta qo'shiq, 44 ta lug'at ishi, 38 ta o'yin, 33 ta test topshiriqlari taqdim etilgan.

Multimedia ilovaning birinchi sahifasida kuz tabiati tasvirlangan bo'lib, unda o'g'il va qiz bola o'quvchilarning daraxt tagida kitob varaqlagan holati tasvirlangan. Ularning qo'lidagi kitob tasviriga bosilsa, keyingi sahifaga, ya'ni mundarijaga o'tiladi.

Mundarijada 45 ta multimedia ilovali namunaviy darslarning mavzulari ko'rsatilgan.




O'qituvchi dars mavzusi yozilgan sarlavhani kursor orqali tanlasa, o'sha darsga tegishli sahifa ochiladi. Ushbu materiallardan yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlash jarayonida keng foydalanish nazarda tutilgan.



Darslikning multimedia ilovasida videolavhalar, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, mashq-topshiriqlar, rebus va krossvordlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantiradi, mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini rivojlantiradi.



O‘qish darslarida lug‘at ustida ishlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, dars samaradorligini oshirishga yordam beradi hamda darslik materiallarini o‘rganish bilan bo‘g‘liq holda olib boriladi. Lug‘at ustida ishlashda o‘quvchilar matn ichidagi ma’nosini tushunmaydigan so‘z va iboralar ochib beriladi. Shu bois so‘z ma’nosini tushuntirishga ko‘p vaqt sarflamaydi, asar mazmunini ochib beruvchi zarur bo‘lgan so‘zlarga qisqacha izoh beriladi. Bu esa o‘quvchilar so‘z bo‘yligini oshiradi va ravon nutqni rivojlantiradi.



Demak, dars jarayonida o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash, mustaqil izlanish, erkin fikrlash va muammoli vaziyatlarning yechimini topa olish ko‘nikmalari shakllanadi. Darslarning yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilishi «O‘qish» fanini o‘qitishning sifat va samaradorligini oshiradi.

## O‘QISH DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Hozirgi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bu muammoni hal etishning muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, ularda bilim olishga qiziqish, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirish, ma’naviyatini shakllantirishni ko‘zda tutadigan o‘qitish metodlari hamda o‘quv-metodik materialni ishlab chiqish va tatbiq etishdan iboratdir.

Shu sababli o‘quv jarayonining tuzilishi, uning metodlari va tashkiliy shakllarini doimo takomillashtirish, o‘quv topshiriqlarining bajarilish usullarida yangi elementlarni kiritib borish zaruriyati paydo bo‘ladi.

O‘quvchilar faolligini oshirishda metodlarni to‘g‘ri tanlab, bilish faoliyatini oqilona boshqarish yordamida erishiladi.

Dars jarayonida «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Charxpalak», «Insert», «Blis-o‘yin», «Rezyume» kabi interfaol metodlardan o‘rinli foydalanish, dars samaradorligini oshiradi.

### **«Insert» strategiyasi metodi.**

Insert – o‘quv jarayonida o‘quvchilarning olgan bilimlarini mustaqil tahlil qilish va anglash imkoniyatini beradigan vositadir.

**Maqsadi:** o‘quvchilarni matnni oxirigacha o‘qib, mazmunni anglab, qayta hikoya qilishga o‘rgatish.

**Vazifasi:** faol bo‘lmagan o‘quvchilarni darsga qatnashishlarini ta‘minlash hamda qo‘shimcha ma‘lumotlarga ega bo‘lish.

O‘quvchi matnni «Insert» strategiyasi metodidan o‘rganilganda quyidagi jadvaldan «*Oltin kuz*» mavzusida foydalanish mumkin.

«V» bilganlarimni tasdiqlaydi	«+» yangi axborot	«-» bilganlarimga zid keladi	«?» meni o'ylantirib qo'ydi
«Oltin kuz» deb atalishini bilaman. Chunki kuz faslida tabiat oltin tusga kiradi...	Tuyoqli jonivorlar haqida ma'lumotga ega bo'ldim.	Ko'kqarg'alar ham issiq o'lkalarga uchib ketar ekan.	Tuyoqli jonivorga nimalar kiradi?

«**Rezyume**» **texnologiyasi** murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

**Maqsadi:** o'quvchilarni erkin, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda uning muammosini, yechimini topishga o'rgatish.

**Vazifasi:** o'quvchilarni kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir o'tkazishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarni qo'llay olishga o'rgatadi. Masalan: o'quvchilar Yayra Sa'dulla-yevaning «Yordam berdi» hikoyasi qahramonlari Farida va Shohidaning ijobiy hamda salbiy tomonlarini tavsiflab beradilar.

«**Blis-o'yin**» **texnologiyasi.** Ushbu texnologiya o'quvchilarga harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etish, mantiqiy fikrlash, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlar va ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

**Maqsadi:** ushbu usul orqali o'quvchilarga tarqatilgan qo'g'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka

tartibda mustaqil ravishda belgilab, soʻngra oʻz fikrini boshqalarga oʻtkaza olish yoki oʻz fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir boʻla olishga oʻrgatish.

**Vazifasi:** oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, shu bilan bir qatorda, oʻzgalar fikrini hurmat qilishga oʻrgatadi.

«Blis-oʻyin» texnologiyasi quyidagicha tashkil qilinadi. Oʻquvchilarga alohida-alohida tarqatma materiallar beriladi. Ular tomonidan yakka tartibda bajarilishi kuzatiladi. Oʻquvchilar tarqatilgan qogʻozlarda koʻrsatilgan vazifani mustaqil bajaradilar, soʻngra guruhlarda tahlil qiladilar.

Oʻquvchilar tarqatma materialdagi tartibsiz berilgan javoblar toʻgʻrisiga mos savollar raqamini belgilab chiqadilar. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Soʻngra oʻquvchi javobi bilan toʻgʻri javob oʻqituvchi yoki guruhlar tomonidan taqqoslanib, tahlil qilinadi.

«Blis-oʻyin» texnologiyasidan har bir mavzuni mustahkamlash jarayonida foydalanish mumkin. Masalan: «Sohibqiron Temur bobo» mavzusida «Blis-oʻyin» texnologiyasi qoʻllanilgan.

**«Charxpalak»** metodi oʻquvchilarni oʻtilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda toʻgʻri javob berish va oʻz-oʻzini baholashga oʻrgatish hamda qisqa vaqt ichida oʻqituvchi tomonidan barcha oʻquvchilarning egallagan bilimlarini aniqlashga qaratilgan.

**Maqsadi:** oʻtilgan mavzularni oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirish darajasini aniqlash, bilim, koʻnikma va malakalarini yanada mustahkamlash.

**Vazifasi:** oʻquvchilarni ijodiy fikrlash, hozirjavoblik, yakka va guruhlarda ishlashga oʻrgatadi, shuningdek kerakli fikrlarni tanlay olish koʻnikmasini rivojlantiradi.

Ushbu metodlarni mashgʻulot jarayonida guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Demak, ilgʻor pedagogik va interfaol metodlardan foydalanish oʻquvchining oʻrganish jarayonini jadallashtiradi, mustaqil fikr yuritish, axborot manbalari murakkab muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish, oʻrtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishga oʻrgatadi.



## O‘QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun didaktik o‘yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil tafakkur, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘quvchilarning o‘qish darslariga qiziqishini o‘stiruvchi vositalardan biri didaktik o‘yin hisoblanadi. O‘yinning maqsadi ta‘lim olishga, fanga, kitobga qiziqish uyg‘otishdir.

Didaktik o‘yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg‘otadi va ma‘lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu kabi o‘yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirilishiga, chuqurlashtirilishiga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. O‘z navbatida bu o‘quvchilarda go‘zal va boy ona tilimizdan g‘ururlanish, axloqiy qadriyatlarimizni e‘zozlash kabi sifatlarni shakllantiradi. O‘yin elementlari didaktik vazifalarni bolalardan yashirishga xizmat qiladi, shu tariqa ular uchun qiyin bo‘lgan bilim olish jarayonini yengillashtiradi.

Ta‘limiy mazmunga ega bo‘lgan o‘yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma‘lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda boshqotirma, tez aytish kabi o‘yinlar muntazam o‘tkazib turilsa, o‘quvchilarda ma‘lum bir ko‘nikmalar to‘planib boradi. Shunga ko‘ra o‘quvchilar egallashi shart bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: qayta (ko‘rsatma) olish, aniqlash (o‘lchay) olish, tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish qobiliyatini hosil qiladi.

Dars jarayonida o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tahlil qilish bosqichlarini aniq belgilab olish lozim.

Quyida o‘qish darslari jarayonida qo‘llanilayotgan hamda ijobiy natija berayotgan bir necha didaktik o‘yinlardan namunalar keltirmoqchimiz.

### **«Hammualliflar» o‘yini.**

O‘qituvchi matnni o‘qiydi yoki o‘quvchilar matn bilan mustaqil tanishadilar.

Topshiriq:

– Matnning davomini o‘ylab toping. Kelgusida qanday voqealar sodir bo‘lishi mumkin ekanligini o‘ylab ko‘ring.

– Qahramonlardan qaysi biri voqealarga ko‘proq ta’sir ko‘rsatgan? U ishtirok etmasa asar mazmuni qanday o‘zgaradi?

– Sujetning rivojiga qaysi voqea ta’sir qilgan?

### **«Multfilm chizamiz» o‘yini.**

O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar. Kartochkalarda yozilgan topshiriqlarni oladilar, ularni bajaradilar va fikr almashadilar. Masalan, Aziza Ahmedovaning «Qish ertagi» mavzusini o‘tishda foydalanish mumkin. Topshiriq:

– «Qish ertagi» matnini o‘qimagan bolalar ertak mazmunini tushunishlari uchun qanday suratlar chizish maqsadga muvofiq?

– Chizilgan suratlar orasidan ertak mazmunini tushunish uchun yordam beradigan eng asosiylarini tanlab oling.

– Suratlarining tagiga asardan tanlab olib yoki o‘zingiz o‘ylab topib ularga mos yozuvlarni yozing.

### **«So‘zdan so‘z yasash» o‘yini.**

O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga, so‘z zaxirasini boyitishga yordam beradi. O‘yinning sharti:

O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadilar. Mavzuga oid bir necha so‘z yozib qo‘yiladi. So‘zdagi harflardan foydalangan holda, boshqa harf ishlatmasdan, o‘zgacha ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarni topib yozish taklif qilinadi. Masalan: «Donishmand yigit» ertagida donishmand so‘zidan so‘zlar yasashadi. Masalan: ona, ish, don, shon, nish, dam, dada, nishon, mashina.

### **«Xat tashuvchi» o‘yini.**

«Xat tashuvchi» o‘quvchi 4–5 kishilik guruhlariga taklifnomalar tarqatadi. Bolalar ularni qayerga taklif qilishganini aniqlaydilar. Masalan: tomorqa, istirohat bog‘i, daryo, maktab, oshxona, hayvonot bog‘i. Shu so‘zlarga oid har biriga 5–6 tadan talaffuzi va yozilishida farq qiladigan so‘zlar bitta harfi tushirilgan holda beriladi. O‘quvchilar o‘z taklifnomalariga mos so‘zlarni tushirib qoldirilgan harfini aniqlagan holda o‘qib berishlari lozim bo‘ladi.

### **«Adabiy muzey» o‘yini.**

O‘qituvchi «muzey» zallari bo‘ylab xayolan sayohat uyush-tiradi. Har bir zal asarlarning janriga mos nomlanadi. Masalan: hozir biz siz bilan muzeyning «Ertaklar zali»ga tashrif buyuramiz. Bu zalda sehrli buyumlar bor. O‘ylab ko‘ringchi, ular kimga tegishli. Yettita novda («Ahillik – ulug‘ baxt»), xumcha («Hal-lollik»), yoy («Alpomishning bolaligi»).

### **«Soat bilan do‘stlashaman, javobni darrov aytaman» o‘yini.**

O‘yin ishtirokchilarida millari harakatlanadigan soatning mo-deli bo‘lishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan asarlar mazmuni yuzasidan savollar beradi. Javoblar raqam bilan ifo-dalanishi kerak: o‘quvchilar soat millarini mos songa qo‘yadilar. Masalan: 3-sinf «O‘qish» darsligidagi Mahmud Murodovning «Olma» hikoyasi.

– Olmazorga nechanchi sinf o‘quvchilari borishdi? (3)

– Bolalar qo‘llariga nechtdan savat olishdi? (1)

– Quadrat ota har bir bolaga nechtdan olma berdi? (5)

– Sodiqjon bolalarning har biridan nechtdan olma oldi? (1)

Didaktik o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta’sir etib, unda o‘qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi.

### **«Domino» (So‘z top) o‘yini.**

Bu o‘yin darsning kirish yoki mustahkamlovchi qismida o‘tkazilishi mumkin.

O‘qituvchi matn ichidan biron so‘z aytadi, o‘quvchilar da-vom ettiradilar. O‘qituvchi boshlagan so‘z qaysi harfda tugasa, o‘quvchi shu harfdan boshlangan so‘zni matn ichidan topib aytishi kerak. Masalan: «Toshkent» (Erkin Malik) matnidan o‘qituvchi Toshkent so‘zini aytsa o‘quvchilar Taxtapul – Labzak – Ko‘lob – Balx – Xiva kabi so‘zlarni topadilar.

### **«Kim tez topadi?» o‘yini.**

O‘quvchilar guruhlariga ajratiladi. O‘yinning sharti: shunday so‘zlar topingki, ularning bosh yoki oxirgi harflari olib tashlansa ham, ma’lum ma’no bildirsin. Masalan: «Soy suvi haqidagi ertak» (Zohir A’lam) ertagida soy – oy, yo‘q – o‘q, boy – oy, odam – dam, qish – ish, yoz – oz so‘zlarini tez topadilar.

### **«Tayanch so‘zlar» o‘yini.**

1-tur – o‘qituvchi yaqinda o‘rganilgan asardan bir nechta so‘z aytadi. O‘quvchilar gap qaysi asar haqida ekanini topadilar va uni tayanch so‘zlarni ishtirok ettirib so‘zlab beradilar.

2-tur – o‘quvchilar asarni o‘qib chiqishlari va tayanch so‘zlarni aniqlashlari lozim bo‘ladi. Shu tayanch so‘zlar asosida asar mazmunini to‘liq yoritib berishi mumkin bo‘lsin.

Demak, darslarni o‘yinlar orqali tashkil etish o‘quvchilar faolligini oshiradi, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

### **Darslarni texnologik xarita asosida tashkil etish**

Darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida dars loyihasini, ya’ni texnologik xaritani tuzib olish maqsadga muvofiqdir.

Har bir mavzu, har bir dars bo‘yicha tuzilgan texnologik xarita boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga dars jarayonini yaxlit holda tasavvur etishga, dars maqsadidan tortib, erishiladigan natijani ko‘ra olishiga yordam beradi.

Texnologik xarita o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bu esa o‘quvchini shaxs sifatida ta’limning markaziga olib chiqishga, pirovard natijada ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishga, mas’uliyatni his qilishga, «O‘qish» fanini o‘rganishga qiziqishlarining ortishiga umuman, bilim olish uchun intilishga undaydi.

## **22-DARS**

**Mavzu:** **Halollik.** *O‘zbek xalq ertagi*

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar:** dehqon, omoch, xum, tilla

**Soatlar soni:** 1 soat

**Mavzuning qisqacha ta’rifi:** O‘zbek xalq ertagi o‘quvchilarni to‘g‘riso‘zlikka, halollikka va mehnatsevarlikka o‘rgatadi.

**O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** suhbat, tushuntirish, ta’limiy o‘yinlar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash

**Jihoz:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

## Darsning maqsad va vazifalari

### Maqsadlar:

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Halollik» ertagining mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o'qishga o'rgatish, ertak matnini rollarga bo'lib o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni halollikka o'rgatish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

## Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
<i>1-bosqich. Tashkiliy qism</i>	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o'quvchilarining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	«Tez javob» didaktik o'yini	2 daqiqa
<i>2-bosqich. Ehtiyoj (refleksiyalar- ni aniqlash)</i>	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	Suhbat	2 daqiqa
<i>3-bosqich. Darsning borishi</i>	1. O'tilgan darsni so'rab baholash, o'qish malakalarini tekshirish.	Savol-javob	4 daqiqa
	2. Test topshiriqlari.	Izlanish	5 daqiqa
	3. «To'g'risini top» o'yini o'ynaladi.	Izlanish	4 daqiqa
	4. Ertakni o'qishga tayyorgarlik. Muallif haqida ma'lumot beriladi.	Suhbat	5 daqiqa
	5. Ertak animatsiyali lavha orqali taqdim etiladi.	Namoyish	3 daqiqa
	6. Lug'at ishi.		2 daqiqa
	7. Dam olish daqiqasi.		2 daqiqa

<p>4-bosqich Mustah- kamlash</p>	<p>1. Ertak qahramonlari rollarga ajratilib, «Yosh aktyor» o'yini o'ynaladi. 2. Ertak qahramonlarining yaxshi xususiyatlari haqida suhbat o'tkaziladi. 3. Darslikdagi savollarga javob topiladi. 4. Boshqotirma yechiladi.</p>	<p>Sahna ko'ri- nishi Suhbat  Suhbat  Izlanish</p>	<p>5 daqiqa  2 daqiqa  2 daqiqa  5 daqiqa</p>
<p>5-bosqich Dars yakuni va baholash</p>	<p>O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e'lon qilinadi. Dars yakunlanadi.</p>	<p>Baho- lash</p>	<p>2 daqiqa</p>
<p>6-bosqich Uyga vazifa berish</p>	<p>Ertakni o'qib, mazmunini so'z- lab berish.</p>	<p>Tushun- tirish</p>	<p>1 daqiqa</p>

## 52-DARS

**Mavzu:** **Mehnatkash qiz. Oybek**

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar:** nevara, ip eshish, so'zan, atalamoch, shinam, mahsi, bobosi,

**Soatlar soni:** 1 soat

**Mavzuning qisqacha ta'rifi:** mavzu o'quvchilarni mehnatsevarlikka, halollikka va kattalarni hurmat qilishga o'rgatadi.

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** savol-javob, «Har kim har kimga o'rgatadi» metodi, ta'limiy o'yin.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash.

**Jihoz:** multimedia ilovalari, ko'rsatmali va tarqatma materiallar.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning maqsad va vazifalari**

**Maqsadlar:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Mehnatkash qiz» hikoyasi bilan tanishtirish, to'g'ri, ifodali va ravon o'qishga o'rgatish,

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni kattalarga hurmat, halollik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

### Dars jarayoni va texnologiyasi

<b>Ishning nomi</b>	<b>Bajariladigan ish mazmuni</b>	<b>Metod</b>	<b>Vaqt</b>
<i>1-bosqich. Tashkiliy qism</i>	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o'quvchilarining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	«Tez javob» didaktik o'yini	2 daqiqa
<i>2-bosqich. Ehtiyoj (refleksiyalarni aniqlash)</i>	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	Suhbat	2 daqiqa
<i>3-bosqich. Darsning borishi</i>	1. O'tilgan darsni so'rab baholash, o'qish malakalarini tekshirish 2. Boshqotirma 3. Hikoyani o'qishga tayyorgarlik. Muallif haqida ma'lumot beriladi. 5. Hikoya animatsiyali lavha orqali taqdim etiladi. 6. Lug'at ishi. 7. Dam olish daqiqasi.	Savol-javob  Izlanish Suhbat  Namoyish	4 daqiqa  4 daqiqa 5 daqiqa  3 daqiqa 2 daqiqa

4-bosqich. Mustah- kamlash	1. O‘quvchilar «Har kim har kimga o‘rgatadi» metodidan foydalanib, mavzu o‘qitiladi. 2. Unsinning xislatlari haqida suhbat o‘tkaziladi. 3. Test topshiriqlari. 4. Rebus.	O‘qish  Suhbat  Izlanish Izlanish	7 daqiqa  2daqiqa  3 daqiqa 3 daqiqa
5-bosqich. Dars yakuni va baholash	O‘quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. Dars yakunlanadi.	Baho- lash	2 daqiqa
6-bosqich. Uyga vazifa berish	Hikoyani o‘qib, mazmunini so‘z- lab berish.	Tushun- tirish	1 daqiqa

## 92-DARS

**Mavzu:** Barakalla, bo‘tam. *Farhod Musajon*

Mavzu: **Barakalla, bo‘tam.** *Farhod Musajon*

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar:** gul ko‘chati, gulzor, bobosi,

**Soatlar soni:** 1 soat

**Mavzuning qisqacha ta‘rifi:** Mavzu o‘quvchilarni do‘stlikni qadrlashga, halollikka va mehnatsevarlikka o‘rgatadi.

**O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi dars.

**Metod:** tushuntirish, savol-javob, «Sinkveyn» metodi, ta‘limiy o‘yin.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash.

**Jihoz:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.



## Darsning maqsad va vazifalari

### Maqsadlar:

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Barakalla, bo'tam» hikoyasi bilan tanishtirish, to'g'ri, ifodali o'qishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish, insonparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ifodali o'qish sifatlarini rivojlantirish.

## Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
<i>1-bosqich. Tashkiliy qism</i>	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinf o'quvchilarining darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	«Tez javob» didaktik o'yini	2 daqiqa
<i>2-bosqich. Ehtiyoj (refleksiyalarni aniqlash)</i>	Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	Suhbat	2 daqiqa
<i>3-bosqich. Darsning borishi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Otgan darsni so'rab baholash, o'qish malakalarini tekshirish.</li> <li>2. Test topshiriqlari.</li> <li>3. «Aql charxi» didaktik o'yini o'ynaladi.</li> <li>4. Hikoyani o'qishga tayyorgarlik. Muallif haqida ma'lumot beriladi.</li> <li>5. Hikoya animatsiyali lavha orqali taqdim etiladi. Bu hikoyada Abdulaziz haqida tushuncha beriladi.</li> <li>6. Lug'at ishi.</li> <li>7. Dam olish daqiqasi.</li> </ol>	Savol-javob Izlanish Izlanish  Suhbat  Namoyish	4 daqiqa 4 daqiqa 5 daqiqa  5 daqiqa  3 daqiqa  2 daqiqa

<p><i>4-bosqich. Mustah- kamlash</i></p>	<p>1. O‘quvchilarga «<b>Zanjir usuli</b>»-dan foydalanib, matn o‘qitiladi. 2. Abdulazizning xislatlari «Sinkveyn metodi» orqali umumlashtiriladi. 3. «Tez top» o‘yini.</p>	<p>O‘qish  Izlanish  Musobaqa</p>	<p>5 daqiqa  5 daqiqa  5 daqiqa</p>
<p><i>5-bosqich. Dars yakuni va baholash</i></p>	<p>O‘quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytingi e‘lon qilinadi. Dars yakunlanadi.</p>	<p>Baholash</p>	<p>2 daqiqa</p>
<p><i>6-bosqich. Uyga vazifa berish</i></p>	<p>Hikoyani o‘qib, mazmunini so‘zlab berish.</p>	<p>Tushuntirish</p>	<p>1 daqiqa</p>

Ushbu metodik qo‘llanma hajmining cheklanganligi tufayli darsning texnologik xaritasini har bir dars uchun berish imkoni bo‘lmadi. Shuning uchun namuna sifatida bir nechta darsning texnologik xaritasi berildi. Undan foydalanib, o‘qituvchi ijodiy yondashgan holda boshqa darslarning texnologik xaritalarini ham tuzishlari mumkin.

## 1-DARS

**Mavzu:** Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin (Dilfuza Kamoljonova).

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni «Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin» matni bilan tanishtirish, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, uni sevishga, asrashga o‘rgatish hamda yurtimizda nishonlanadigan tantanali bayramlarga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, lug‘at boyligini oshirish, erkin va mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** aqliy hujum, suhbat, savol-javob, «Bino mozaika» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmail va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Yangi mavzuni tushuntirish.**

O‘qituvchi o‘quvchilarga savol bilan murojaat qiladi: Aziz o‘quvchilar 1-sentabr kuni qaysi bayramni nishonladik?

O‘quvchilar «Mustaqillik bayrami» deb javob berishadi. Mustaqilligimizning 25 yilligi haqida ma’lumot berib, mustaqillik bu – avlod-ajdodlarimizning ko‘p yillar orzu qilgan erkinlik, hurlik, mustaqil fikrlash, boy tariximizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, bizdan keyingi avlodlarga asl holida yetkazib berishdir, – deb ta’rif beradi va yangi «Bayramingiz muborak bo‘lsin» mavzusini e’lon qiladi.

 Ekranda animatsiyali lavha orqali matn o‘qib eshittiriladi.

Matn o‘quvchilarga «Zanjir» usulida o‘qitiladi. O‘quvchilar bilan lug‘at ustida ishlanadi.



### **Lug‘at ishi:**

**mukammal** – har jihatdan to‘liq, kamchiligi yo‘q

**hurlik** – hur, erkin holat

**chegara** – bir-biriga qo‘shni, yondosh bo‘lgan viloyat, tuman, hudud orasidagi bo‘linish, ajralish chizig‘i

**ko‘z qorachig‘idek asrash** – asrab-avaylamoq

**Dam olish daqiqasi.** «*Vatan*» haqidagi qo‘shiqlardan foydalanib tashkil qilinadi.

## **III. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

### **Darslik bilan ishlash**



#### **«Ichda o‘qish» usuli.**

O‘quvchilar «*Ichda o‘qish*» usulida o‘qiydilar va matnni so‘zlab beradilar.



#### **«Bino mozaika» o‘yini.**

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi darsimizda uchta kichik guruhga bo‘linib, faoliyat olib boramiz. Buning uchun sizlar uchta har xil rangli kartochkalarni tanlab olib, guruhlaringizni tanlaysiz. Kartochkalarangizda yozilgan so‘zlar ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirsangiz guruhingiz nomi kelib chiqadi hamda guruhingiz nomini izohlab berasiz. Tayyorlagan javoblaringiz orqali bugun darsimizda «Bino mozaika»dan foydalanib, yangi bino quramiz va u qanday bino ekanini bilib olasiz. Men sizlarga bino-ning nomini topishga yordam beraman. O‘quvchilar 1-guruh «Buyuk ajdodlarimiz», 2-guruh «O‘zbekistonni madh etaman», 3-guruh «Istiqlolim – istiqbolim» guruhleri shakllanadi va fikr bildirgan o‘quvchilar «Bino mozaika»sidan foydalanib, birinchi poydevorini qurishadi. Navbatdagi ishtirokchilar ketma-ketligida quyidagi savollarga javob berib, bino barpo etiladi. Savollar:

1. Istiqlolimizga qachon erishdik? (31 avgust)
2. Mustaqillik bayramimizni qachon nishonlaymiz? (1 sentabr)

3. Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz? (Navoiy, Bobur, Amir Temur, Ibn Sino)

4. O‘zbekistonimizni madh etgan shoirlarimizni bilasizmi? (Abdulla Oripov, Azim Suyun, Xurshid Davron, Quddus Muhammadiy)

5. Vatanimiz ramzlarini sanab o‘ting. (Bayroq, gerb, madhiya)

Uni qanday bino ekanligini topish uchun uning peshtoqidagi bo‘sh kataklarga bino nomini joylashtiradilar. Bolalar bino pesh-toqida «MAKTAB» so‘zini hosil qilishadi va o‘qituvchi mustaqilligimiz sharofati bilan biz uchun yangi maktab binolari qurilayotganligini ta’kidlab o‘tadi.

Darslikda berilgan savollarga javob beriladi.

1-guruhga: Mustaqillik nima degani?

2-guruhga: Nima uchun 1991-yilning 31-avgusti Vatanimiz tarixi sahifalarida oltin harflar bilan yozilgan?

3-guruhga: Mustaqillik tufayli Vatanimiz nimalarga ega bo‘ldi?

#### **IV. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsni yakunlash maqsadida o‘quvchilarga savollar beriladi.

#### **Savollar:**

1. Istiqlol bayrami haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Vatan haqida she’r bilasizmi?

O‘qituvchi mavzu yuzasidan bo‘lib o‘tgan suhbatni xulosalab, guruhlar ishini baholaydi va faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**V. Uyga vazifa berish.** «Bayramingiz muborak bo‘lsin» matnini ifodali o‘qib, mazmunini qayta hikoya qilib berish.

## **4-DARS**

**Mavzu:** «Vatan mo‘tabardir». (Xurshid Davron)

#### **Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** «Vatan mo‘tabardir» matnining mazmuni bilan tanishtirish, Vatanning mo‘tabar ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirish, matn ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni ona Vatanni sevish, asrashga o‘rgatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, lug'at ustida ishlash, ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, suhbat, «Mozaika», «Maqollar zanjiri» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Vatan» she'ri yoddan so'raladi. She'r asosida savol-javob o'tkaziladi.

1. Nimalar bizning Vatanimiz ekan?
2. Muallif she'rni kimlarga bag'ishlagan?
3. Nima uchun Vatanimizni sevamiz?

**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

Bugungi dars mavzusi: «Vatan mo'tabardir». Muallif Xurshid Davron haqida o'qituvchi tomonidan qisqacha ma'lumot beriladi.

 Matn mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan matn o'qiladi.

Matn mazmuni o'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi. Matn asosida savol-javob o'tkaziladi.

- Vatan nimadan boshlanadi?
- Vatanga bo'lgan muhabbat nimadan boshlanadi?
- O'g'uzxon Vatanni qanday e'zozlagan?
- Nima uchun biz Vatanni sevishni bobolardan o'rganamiz?

O'quvchilar javoblari to'ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

Hikoyadagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



### **Lugʻat ishi:**

**sahro** – choʻl, oʻsimlik oʻsmaydigan qumli yer

**mehrigiyo** – mehrni tortuvchi narsa

**bebaho** – bahosi yoʻq, tengsiz

**Dam olish daqiqasi oʻtkaziladi.**

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

#### **Darslik bilan ishlash:**

Matn oʻquvchilarga navbatma-navbat oʻqitiladi. Matn mazmuni hikoya qildiriladi.



«**Maqollar zanjiri**» oʻyini oʻtkaziladi. Bu oʻyinda oʻquvchilar Vatan haqidagi maqollardan ketma-ket aytadilar. Navbati kelganda maqol ayta olmagan oʻquvchi oʻyinda ishtirok etmaydi.

Baliq suv bilan tirik,

Odam – el bilan.

Vatan qadrini bilmagan, oʻz qadrini bilmas.

Bulbul chamanni sevar,

Odam – Vatanni.

Vatanni sotgan er boʻlmas...



#### **«Mozaika» oʻyini.**

Ekrandagi rasm boʻlaklari yigʻiladi. Hosil boʻlgan rasm yurtimizdagi qaysi inshoot rasmi ekanligi aniqlanadi.

Oʻrganilganlar yuzasidan test sinovi oʻtkaziladi.



#### **Test topshiriqlari:**

1. «Vatan» soʻzining maʼnodoshini aniqlang?

A) maktab

B) yurt

D) mahalla

E) koʻcha

2. Vatanni sevishni kimdan oʻrganishimiz kerak?

A) bobolardan

B) ota-onamizdan

D) doʻstimizdan

E) yurtdoshlarimizdan

3. «Vatan moʻtabardir» hikoyasining muallifi kim?

A) Xurshid Davron

B) Orif Toʻxtash

D) Dilfuza Kamoljonova

E) Poʻlat Moʻmin

4. Vatan nimadan boshlanadi?

A) ota-onani sevishdan

B) bogʻ va dalalardan

D) ona tuproqdan

E) qir-adirlar, koʻchalardan

5. *Dushmanlar kimdan bir parcha tashlandiq yerni so‘rashdi?*

A) Amir Temuridan

B) Mirzo Ulug‘bekdan

D) Jaloliddin Manguberdidan

E) O‘g‘uzxondan

## **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

1. Darsda nimalarni bilib oldingiz?

2. Hikoya sizga yoqdimi?

3. Hikoyani o‘qib, qanday xulosa chiqardingiz?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan guruhlar ballari e‘lon qilinib, rag‘batlantiriladi. O‘quvchilarning guruhdagi faolliklari tahlil qilinib, baholanadi.

## **VI. Uyga vazifa berish.**

Hikoyani o‘qib o‘rganish, mazmunini so‘zlab berish uchun tayyorlanish uyga vazifa qilib beriladi

# 6-DARS

**Mavzu:** «Til qudrati». (Rivoyat)

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni «Til qudrati» rivoyati bilan tanishtirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga, ifodali o‘qishga o‘rgatish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, o‘z ona tilini sevishga o‘rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, erkin va mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, muammoli izlanish, «Davomini top», «So‘zdan so‘z yasash» ta’limiy o‘yinlari.



**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

#### **II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – Po‘lat Mo‘minning «Mustaqillik ahillikdan» she‘rini yoddan so‘rab baholanadi. She‘r asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Mustaqillik deganda nimani tushunasiz?
2. Sizlar yurt tinchligiga qanday hissa qo‘shishlaringiz mumkin?
3. Siz kelajakda qanday inson bo‘lib yetishmoqchisiz?



#### **«Davomini top» o‘yini.**

Aytar so‘zni ayt,

Aytmas so‘zdan..... (qayt)

Aytilgan so‘z – otilgan..... (o‘q)

Tilga e‘tibor – ..... e‘tibor. (elga)

Tilingda bo‘lsa boling,

Kulib turar ..... (iqboling)

Til –... kaliti (dil)

Tili shirinning ..... ko‘p. (do‘sti)

- Maqollarimiz nima haqida ekan?
- O‘zbekiston Respublikasida davlat tili qaysi til?
- Qachon o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi?
- Siz o‘z ona tilingizni sevasizmi?
- Yana qaysi tillarni bilasiz?

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini tinglab, yangi mavzu bilan bog‘laydi.

#### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Bugun biz sizlar bilan «Til qudrati» rivoyati bilan tanishamiz. (Rivoyat nima ekanligi haqida qisqacha ma‘lumot beriladi.)



Rivoyat mazmuniga mos videolavhalar namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi.

Rivoyat mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket rivoyatni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar.

Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



### **Lug‘at ishi:**

**oqil** – aqlli, dono, farosatli

**odil** – adolatli, haqqoniy

**qah-qah** – qahqahlamoq, qattiq kulgi

**ma’qul** – oqilona, tushunarli

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.** O‘quvchilar «Ona tilim» qo‘shig‘ini harakatlar bilan birgalikda ijro etadilar.

## **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

### **Darslik bilan ishlash:**

«Til qudrati» matni o‘quvchilarga «Zanjir» usulida o‘qitilib qayta hikoya qildiriladi.

Savol va topshiriq:

1. Olimlarning istagi nimalardan iborat edi?

2. Nima uchun oqil kishi donishmand huzuriga borishni maslahat berdi?

3. Matnni qismlarga ajrating. Har bir qismga sarlavha qo‘ying. Qayta hikoya qiling.



### **«So‘zdan so‘z yasash» o‘yini.**

«Falakiyot» so‘zidan so‘z yasashadi. Masalan: oy, ot, toy, tilak, til, laylak, tok, lola, tol, alla.



### **Test topshiriqlari:**

1. Ikki olim kimga ilm berish haqida suhbatlashib, tortishib qolishibdi?

A) farzandga

B) o‘quvchiga

D) yigitga

E) qizga

2. Olimlardan biri farzand ko‘rsa nimalardan saboq bermoqchi, nimalarni o‘rgatmoqchi bo‘ldi.?

A) riyoziyotdan, donishmandlikdan, savdogarlikdan

B) riyoziyotdan, falakiyotdan, xorijiy tillarni

D) tibbiyotdan, xorijiy tillarni, falakiyotdan

E) falakiyotdan, savdogarlikdan, riyoziyotdan

3. Ikkinchi olim farzand ko'rsa asosiy boylik nima ekanini tushuntirmoqchi bo'ldi?

A) kitob

B) so'g'lik

D) til

E) do'stlik

4. Bu gapni eshitgan birinchi olim nima qilibdi?

A) xursand bo'libdi

B) yig'lab yuboribdi

D) qah-qah urib kulibdi

E) xafa bo'libdi

5. Ular kimning oldiga borishibdi?

A) podshoh

B) qozi

D) olim

E) donishmand

## V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

Savol-javob:

1. Bugungi darsimizdan nimalarni bilib oldingiz?

2. Ona tili haqida she'r bilasizmi?

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarning baholari e'lon qilinadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilar namuna qilib ko'rsatiladi.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Til qudrati» rivoyatini ifodali o'qib, mazmunini so'zlab kelish.

## 8-DARS

**Mavzu:** «Tuhfa». (Oygul Suyundiqova)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Tuhfa» she'ri bilan tanishtirish. O'zbekiston sportchilari haqida ma'lumot berish. O'quvchilarning ravon o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni yurtimiz sportchilari bilan faxrlanishga, ularning qilgan ishlaridan o'rnak olishga o'rgatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, erkin va mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, muammoli izlanish, «Kim hozirjavob?», «Basketbol» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – Tursunboy Adashboyevning «Ona tilim» she'rini yoddan so'rab baholash.

**«Kim hozirjavob?» o'yini.**


**IPT**

O'quvchilar savollarga javob beradilar.

1. Bizga ona tili kimdan meros bo'lib qolgan?
2. Ikkinchi to'rtlikda Bobur Mirzo haqida nima deyilgan?
3. She'rda yana qaysi ulug' ajdodlarimiz haqida aytilgan?
4. Nima uchun shoir she'rda «Ona tilim – jon-u dilim» deb aytgan?
5. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aytib bering.

**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– O'quvchilar bugun biz sizlar bilan Oygul Suyundiqovanning «Tuhfa» she'ri bilan tanishamiz. (Matn muallifi haqida ma'lumot beriladi.)

 She'r mazmuniga mos O'zbekiston sportchilari haqidagi videolavhalar namoyish etilib, kadr ortidan she'r o'qiladi.

She'r mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar ketma-ket she'rni o'qiydi. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradilar. She'r matni ustida ishlanadi, notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

 **Lug'at ishi:**

**xurram** – shod, quvnoq, xushchaqchaq; mamnun, xursand

**misli** – xuddi, kabi, singari, bamisoli

**ichra** – orasida, ichida

**xushro‘y** – chiroyli, go‘zal.

**Harakatli dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.** O‘quvchilar birgalikda bajaradi.

Boshim koptokday bo‘lib,

Yelkamda aylanadi.

Qo‘llarim varrak bo‘lib,

Uchishga shaylanadi.

Oyoqlarim dupur-dupur,

Turgan joyda chopadi,

Barmoqlarim esa doim,

Sanashdan charchamaydi.

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

10 9 8 7 6 5 4 3 2 1

Endi o‘qishga shay tur,

Partada to‘g‘ri o‘tir!

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

##### ***Darslik bilan ishlash:***

«Ifodali o‘qish» musobaqasi.

Musobaqa qatorlararo o‘tkaziladi. O‘quvchilarning hammasi she‘rni o‘qiydi. Musobaqa so‘ngida har bir qatorda nechta o‘quvchi ifodali o‘qigani e‘lon qilinadi va ko‘p ifodali o‘qigan qator g‘olib sanaladi. Qofiyadosh so‘zlar ustida ishlanadi: bo‘ylarida – kuylarida, yoshli – qoshli, yarashdi – qarashdi.

– Bolalar, hozir qiziq o‘yin o‘ynaymiz.



##### **«Basketbol» o‘yini.**

Buning uchun ikkita basketbol shiti tasviri tushirilgan rasm berildi. Bunda o‘quvchilar o‘zlarini basketbol maydonidagidek his qiladilar.

Sinf o‘quvchilari ikki guruhga ajratiladi. Har bir guruhning sportga oid topishmoqlarga javob berishiga qarab g‘olib aniqlanadi.

Yigirma ikki kishi.

Hammaning bitta ishi.

To‘pni ilgari surmoq,

To‘r tuzoqqa tushirmoq. (Futbol)

Ikki kishi o‘ynaydi,  
Uzoq-uzoq o‘ylaydi.  
Alomati «Kisht» va «Shox»,  
Qani, top-chi, ey Fattoh? (Shaxmat)

«Chala», «yonbosh» degan bilan  
Ish bitmaydi maydonda.  
Faqat «halol» bo‘lganda  
Olqish yangrar polvonga.  
Butun dunyo qiziqqan  
Bir-biridan so‘rashib  
Ming yillik tarixi bor,  
Nomi (..) (Kurash)

Oyog‘i yo‘q, o‘ynasang qochar,  
Qanoti yo‘q, havoga uchar. (Koptok)



### **Test topshiriqlari:**

1. Qayerda katta bayram bo‘ldi?  
A) Qora dengiz bo‘ylarida      B) O‘zbekistonda  
D) paxta dalasida                E) maktab bog‘ida
2. Kim yurt sha‘nini ko‘tardi?  
A) o‘zbek qizi                        B) o‘zbek o‘g‘li  
D) o‘quvchilar                       E) paxtakorlar
3. «Yarashadi» so‘zining qofiyadosh so‘zini toping.  
A) bayram                            B) osmon  
D) yoshli                               E) qarashadi
4. Mamlakatimizdan necha yoshli qiz sport musobaqasida qatnashdi?  
A) to‘qqiz yoshli                    B) o‘n yoshli  
D) olti yoshli                        E) o‘n ikki yoshli
5. She‘rda qaysi sport turi haqida aytilgan?  
A) basketbol                         B) gimnastika  
D) futbol                              E) shaxmat

### **V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilgan bilimlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Musobaqada qaysi davlat vakillari qatnashdi?
2. She'rdan qanday xulosa chiqardingiz?
3. Siz qaysi sportchilarni bilasiz?
4. Siz ham sport bilan shug'ullanasizmi?

Darsda ishtirok etgan o'quvchilar baholari e'lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o'quvchilar namuna qilib ko'rsatiladi.

## **VI. Uyga vazifa berish.**

«Tuhfa» she'rini ifodali o'qib, yod olish.

## 12-DARS

**Mavzu:** «Obod mahalla bo'ylab». (Kavsar Turdiyeva)

### **Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qishga, she'r mazmunini tahlil qila olishga, qofiyadosh so'zlarni topishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda vatanini sevish, mahallada birga yashayotgan kishilarni, kattalar mehnatini, milliy o'yinlarni qadrlash hissini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, test yechish malakalarini shakllantirish, lug'at boyligini oshirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «Klaster», «Qofiyadosh so'zni top», «Berkingan so'z» ta'limiy o'yinlari.

**Dars jihozi:** obod mahalla tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovalari.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

Fasl haqida suhbat o'tkazish.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O'quvchilar Muhabbat Hamidovaning «Ona Vatan» matnini

o‘qib, so‘zlab beradilar. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar «Krossvord» yoki test topshiriqlarini yechadilar.



### «Krossvord»

1. O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan avtomobil nomi.
2. Eng aziz inson.
3. Poytaxtimizning qadimiy nomi.
4. Bilim dargohi.
5. Yerosti temiryo‘li.
6. Mikroavtobuslar ishlab chiqariladigan SamAvto zavodi joylashgan shahar nomi.
7. Poytaxtimizning asosiy maydonining nomi.

1	K	A	P	T	I	V	A												
				2	O	N	A												
			3	SH	O	SH													
			4	M	A	K	T	A	B										
				5	M	E	T	R	O										
6	S	A	M	A	R	Q	A	N	D										
				7	M	U	S	T	A	Q	I	L	L	I	K				



### Test topshiriqlari:

1. O‘zbekistonning poytaxti qayer?
 

A) Buxoro	B) Xiva
D) Toshkent	E) Samarqand
2. Toshkent ko‘chalaridan nimalar qatnaydi?
 

A) mikroavtobus, samolyot	B) avtobus, taksi
D) poyezd, paroxod	E) kema, vertolyot
3. Yerosti temiryo‘li nima deb ataladi?
 

A) metro	B) avtobus
D) taksi	E) mikroavtobus
4. Asaka shahrida qanday zavod bor?
 

A) qog‘oz zavodi	B) temir zavodi
D) paxta zavodi	E) avtomobil zavodi



5. Samarqanddagi SamAvto zavodida nimalar ishlab chiqarilmoqda?

A) mikroavtobuslar

B) avtomobillar

D) vagonlar

E) mebellar

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

«*Berkingan so‘z» o‘yini.*

IPT

Berilgan so‘zlarning birinchi bo‘g‘inidan so‘zlar hosil qilinib, yangi mavzuning nomi hamda she‘rning muallifi aniqlanadi.

So‘zlar: Olim, bodring, matonat, halqa, lagan, bo‘yra, labbay.  
(Obod mahalla bo‘ylab)

Kavla, sarpo.

Turmush, divan, yelim, vazifa.

Yangi mavzu e‘lon qilinadi. «Obod mahalla bo‘ylab». (Kavsar Turdiyeva)

Shoira haqida ma‘lumot beriladi.



She‘r mazmuniga mos videolavha namoyish etiladi, kadr ortidan she‘r o‘qiladi. She‘r mazmunini tushuntiradi. She‘r matnida uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



**Lug‘at ishi:**

**ko‘y** – ko‘cha, yo‘l; qishloq, mahalla

**guzar** – qishloq yoki mahallalarning chorrahalarida joylashgan choyxonalari, qassoblik, baqqollik kabi do‘konlari bo‘lgan obod, gavjum joy

**rasta** – bozorlarda bir turdagi mol bilan savdo qiladigan do‘konlar qatori va ular o‘rtasidagi bozor, ko‘cha, yo‘lak

**soqqa** – bolalar o‘yinlarida: tikilgan danakni urish uchun belgilangan oshiq, yong‘oq va shu kabilar

**ajib** – hayron qolarli, hayratga solib, qiziqish uyg‘otadigan

Suhbat uchun savollar:

1. Mahalla bolalari nimalar bilan shug‘ullanadilar?

2. Mahallani Vatan desa bo‘ladimi?

O‘qituvchi MFY (Mahalla fuqarolar yig‘ini), a‘zolari va vazifalari haqida ma‘lumot beradi, suratlar namoyish etiladi.

Harakatli dam olish daqiqasi o‘tkaziladi. O‘quvchilar birgalikda bajaradilar.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

«Obod mahalla bo‘ylab» she‘rini o‘quvchilar navbat bilan o‘qiydilar.

«*Qofiyadosh so‘zni top*» o‘yini.

**IPT**

Bu o‘yinda o‘quvchilar she‘r matnida berilgan so‘zlarga qofiyadosh so‘zlarni aniqlaydilar.

ko‘y	uy
to‘lmoqda	bo‘lmoqda
guzar	go‘zal
rasta	guldasta
ish	o‘zgarish
o‘chog‘i	dargohi
yoqqa	soqqa
ko‘rkam	o‘lkam

«*Klaster*» *metodi*.

**IPT**

Har bir qator o‘quvchilariga savol beriladi. O‘quvchilar bu savollarga «Klaster» usulida javob berishadi.

1-qator uchun topshiriq:

O‘zingiz biladigan mahallalar nomini yozing.

2-qator uchun topshiriq:

Mahalla obodligi va tinchligi uchun qo‘shgan hissangizni yozing.

3-qator uchun topshiriq:

Mahallada o‘ynaydigan o‘yinlaringiz nomini yozing.

O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

#### **V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma,

malakalarni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Mahallangizning nomi nima?
2. Sizning mahallangiz obodmi?
3. Mahallangiz bolalari inoqmi?

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

## **VI. Uyga vazifa berish.**

«Obod mahalla bo'ylab» she'rini ifodali o'qish, o'zlari yashayotgan mahalla haqida kichik hikoya tuzib kelish.

## **20-DARS**

**Mavzu:** «Qo'shiqlar. Alla»

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish, ifodali o'qishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda ma'naviy merosimizdan faxrlanish tuyg'ularini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning og'zaki nutqlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, «Klaster», «Maqollar tilsimi» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Mening mahallam» mavzusida o'quvchilar tuzgan kichik hikoya o'qitiladi.

O'tilganlar yuzasidan qisqa muddatli savol-javob o'tkaziladi.

– «Ona bitta, Vatan yagona» bo‘limida nimalarni bilib ol-  
dingiz?

– Kelajakda siz Vatanimiz ravnaqi uchun qanday xizmat  
qilmoqchisiz?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.


### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

**IPT**

Berilgan sonlarni o‘sib borish tartibida joylashtirsangiz  
bugungi darsimiz mavzusini bilib olasiz.

197	185	236	101	154	270	300	99
Q	I	L	O‘	SH	A	R	Q

– Bugun biz «Xalq og‘zaki ijodi» bo‘limidan «Qo‘shiq»  
mavzusi bilan tanishamiz.

 Xalq og‘zaki ijodiga mos videolavha namoyish etiladi,  
kadr ortidan matn va «Qo‘shiq» she‘ri o‘qiladi

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Xalq og‘zaki ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Xalq og‘zaki ijodi namunalariga misollar keltira ola-  
sizmi?

O‘qituvchi xalq og‘zaki ijodi haqida batafsil ma‘lumot be-  
radi.

«Alla» she‘ri o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi.

She‘rdagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



#### **Lug‘at ishi:**

**ko‘maklashmoq** – yordamlashmoq

**yalla** – qo‘shiq, ashula

**bo‘ston** – chamanzor

#### **Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

Boychechagim boylandi,

Qozon to‘la ayrondir

Ayroningdan bermasang,

Qozon-tovog‘ing vayronidir.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**


##### ***Darslik bilan ishlash:***

She‘rni ifodali o‘qish musobaqasi o‘tkaziladi. Darslikda berilgan savollarga javob beriladi.

– Siz yana qanday xalq qo‘shiqlarini bilasiz?

O‘quvchilar javobi tinglanib, to‘ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

**Mustaqil ish.** O‘quvchilar daftarlariga qofiyadosh so‘zlarni topib yozadilar: kulaman – qilaman, yaratib – sayratib, o‘ynaylik – kuylaylik; onang – momong-bobong.

 «**Maqollar tilsimi**» o‘yini multimedia ilovasidan foydalanib o‘tkaziladi.

Ushbu o‘yinda o‘quvchilar ketma-ket almashib kelayotgan maqollardagi tushib qolgan so‘zlarni berilgan jadvaldagi so‘zlar orasidan belgilaydilar. Agar maqoldagi so‘z to‘g‘ri belgilansa, so‘z orqasidagi rasm qismi ochiladi va navbatdagi maqol matni beriladi. O‘yin so‘nggida xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan ertakdan parcha namoyish etiladi.

#### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

1. Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
2. Darsda nimalarni bilib oldingiz?
3. Qo‘shiqlar inson hayotida qanday ahamiyatga ega?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, dars yakunlanadi.

O‘quvchilarning darsdagi faoliyati tahlil qilinib, baholanadi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

Qo‘shiqlarni yod olish.

**Mavzu:** «Halollik» (O‘zbek xalq ertagi).

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni «Halollik» ertagining mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o‘qishga o‘rgatish, ertak matnini rollarga bo‘lib o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni halollikka o‘rgatish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «Rasmi boshqotirma», «To‘g‘risini top», «Yosh aktyor» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Botir mergan va chaqimchi» ertagini so‘rab baholash.

O‘tilgan mavzu savol-javob orqali mustahkamlanadi.

1. Botir mergan podshoning oldiga nima uchun navkarlar bilan bormadi?

2. Podsho bilan Botir mergan nima haqida suhbatlashdi?

3. Podsho chaqimchini nima uchun jazolabdi?

4. Ertak qahramonlaridan qaysi biri sizga yoqdi?

**Test topshiriqlari:**

1. «*Mustaqil hur Vatanda*

*O‘ynab kulaman, deyman.*

*Vatanimni yashnatib,*

*Doston qilaman deyman»*

Ushbu she'ning nomini toping.

- A) «Qo'shiqlar»                      B) «Alla»  
D) «Gullar»                            E) «Bahor»

2. «Botir mergan va chaqimchi» ertagining muallifi kim?

- A) Erkin Vohidov                      B) Hamid Olimjon  
D) O'zbek xalq ertagi                E) Anvar Obidjon

3. Kim ertakda chaqimchilik qildi?

- A) Botir                                    B) mergan  
D) chaqimchi                            E) dehqon

4. Kim ovulni qishdan sog'-salomat olib chiqdi?

- A) Botir mergan                        B) podsho  
E) dehqon                                D) chaqimchi


5. Podsho Botir merganga nima uchun to'n kiydiradi?

- A) xalqqa qilgan yaxshiligi uchun  
B) ovulni qishdan qutqargani uchun  
D) rostgo'y bo'lgani uchun  
E) molini saqlab qolgani uchun

Chaqimchilikning yomon oqibatlari haqida suhbat o'tkaziladi.

**IPT** «To'g'risini top» o'yini.

Bu o'yinda o'quvchilar berilgan misollarni to'g'ri yechish orqali yangi »Halollik« mavzusini hosil qiladilar.



### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzu e'lon qilinadi: «Halollik»

**IPT** O'quvchilarga mavzu mazmuni animatsiya orqali taqdim etiladi. Kadr ortidan ertak matni o'qiladi. Ertak mazmuni

tushuntiriladi. O‘quvchilar ertakni navbat bilan o‘qiydilar. Ertakda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



**Lug‘at ishi:**

**omoch** – hayvonga qo‘shib, yer haydaladigan temir asbob

**tanob** – yer o‘lchov birligi

**qo‘sh ho‘kiz** – omochga qo‘shilgan bir juft ho‘kiz

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**



O‘quvchilar «Halollik» ertagini rollarga bo‘lib o‘qiydilar. «*Yosh aktyor*» o‘yini o‘tkaziladi. O‘quvchilar rollarga bo‘linib, ertak mazmunini sahna ko‘rinishida ijro etadilar. So‘ngra qahramonlarning yaxshi xislatlari haqida suhbat o‘tkaziladi va qayta hikoya qilinadi.

Savol-javob orqali o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi.

1. Boy dehqon nima uchun o‘z yerini sotibdi?
2. Kambag‘al dehqon va uning oshnasi nima uchun donishmand huzuriga borishibdi?
3. Siz nima deb o‘ylaysiz, kambag‘al dehqon to‘g‘ri ish qildimi?



**«Boshqotirma» o‘yini.**

Mehnat quollarining nomini to‘g‘ri topsangiz, yer haydovchi mashinaning nomi kelib chiqadi.

1	B	O	L	T	A					
			2	R	A	N	D	A		
		3	X	A	S	K	A	SH		
			4	K	E	T	M	O	N	
				5	T	E	SH	A		
		6	B	O	L	G‘	A			
7	A	R	R	A						





## V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.

### Savol-javob:

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Ertakdan qanday ibrat oldingiz?

Darsda ishtirok etgan o‘quvchilar baholari e‘lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

### VI. Uyga vazifa berish.

«Halollik» ertagini ifodali o‘qib, so‘zlab berish.

## 23-DARS

**Mavzu:** «Donishmand yigit» (O‘zbek xalq ertagi).

### Darsning maqsadi:

**Ta‘limiy:** o‘quvchilarning ertak janri borasidagi bilimlarini boyitish, ertak matnini ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda bilimdonlik va donishmandlik ko‘nikmalarini ustida ishlash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, lug‘at ustida ishlash, o‘g‘zaki nutqini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni beruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, «Rezyume», «Ichda o‘qish» usuli, «Kim birinchi» ta‘limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

#### II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilar «Halollik» ertagini o‘qib, so‘zlab beradilar.

Ertak asosida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Dehqondan kambag‘al oshnasi nimani sotishni iltimos qilibdi?

2. Kambag'al dehqon yerni kovlaganda nima chiqibdi?
3. Kambag'al dehqon oshnasiga tillalarni olib borganda oshnasi nima deb javob beribdi?
4. Kambag'al dehqon nima uchun xumchadagi tillalarni olmadi?
5. Donishmand nima deb maslahat berdi?
6. Ular tillalarni nima qilishibdi?



### ***Test topshiriqlari:***

1. Dehqon yerning bir chekkasini kimga sotdi?  
A) boyya                      B) kambag'al oshnasiga  
D) donishmandga        E) savdogarga
2. Kambag'al dehqon oshnasidan nima olib kelib yer haydatdi?  
A) qo'sh ho'kiz            B) mashina  
D) traktor                    E) ketmon
3. Xumchanning ichida nima bor ekan?  
A) suv                        B) qum  
D) tilla                        E) tuproq
4. Kambag'al dehqon xumchani ko'tarib qayerga boribdi?  
A) o'zining uyiga            B) ota-onasining uyiga  
D) qo'shnisining uyiga    E) dehqon oshnasining uyiga
5. Kambag'al dehqon va uning oshnasi kimning oldiga bordi?  
A) donishmandning        B) hokimning  
D) vazirning                E) qozining

### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Bugun biz «Donishmand yigit» ertagi bilan tanishamiz. (Ertak janri haqida ma'lumot beriladi) Ertak – to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar.



O'quvchilarga ertak audio orqali taqdim etiladi. Ertak mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar ketma-ket ertakni o'qiydilar. Ertakda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



### ***Lug'at ishi:***

**vafodor** – o'z ahd-paymonini muqaddas tutuvchi, so'zida va va'dasida qat'iy turuvchi, sodiq.

**so‘rrayib** – ozib-to‘zib ketmoq, o‘lar holga yetmoq

**bo‘shamay qolibdi** – vaqt topolmay qolibdi

**bilim-tajriba** – ilm, malaka, mahorat; hayotda o‘zlash-tirilgan va orttirilgan bilimlar.

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

O‘quvchilar «Donishmand yigit» ertagini «Ichda o‘qish» usulida o‘qiydilar va qayta hikoya qiladilar.

**IPT** «**Rezyume**» **metodi.** O‘quvchilar cholning uch o‘g‘lining ijobiy va salbiy tomonlarini topib muhokama etadilar.

**IPT** «**Kim birinchi?**» **o‘yini.**

Bu o‘yinda o‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi va savollarga javob beradi.

Savollar:

1. O‘g‘illari voyaga yetgach chol ularga nima debdi?
2. To‘rtinchi o‘g‘il otasi topgan oltin-kumushlardan olib qayerga boribdi?
3. O‘rtancha o‘g‘il qayerga borib qo‘rg‘on qurdiribdi?
4. Otaning maqsadini kenja o‘g‘il qanday tushunibdi?
5. Chol bir kuni o‘g‘illariga nima debdi?
6. Nima uchun o‘rtancha va to‘rtinchi o‘g‘illarning qilgan ishlari cholga yoqmaq?
7. Chol o‘zining ismi, bilim-tajribasini kimga meros qilib qoldiribdi?

**V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Darsda o‘rganilgan bilimlar yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

2. Kenja o‘g‘ilning qanday fazilatlarini sizga yoqdi?

O‘quvchilar darsdagi faolligiga ko‘ra baholanadi. Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

**VI. Uyga vazifa berish.** «Donishmand yigit» ertagini ifodali o‘qib, so‘zlab berish.

**Mavzu:** «Chumchuqcha». *Ertak*. (Mahmud Murodov)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, adabiy ertak haqida tushuncha berish, to'g'ri va ravon o'qishga o'rgatish, o'lkamizda yashaydigan qushlar haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda mehribonlik, rahmdillik kabi xislatlarni, qushlarga nisbatan g'amxo'rlik tuyg'ularini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning matnni ifodali o'qish, og'zaki hikoya qilish, test yechish, qarama-qarshi ma'noli so'zlarni aniqlash malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Mosini top» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** qushlar rasmi, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

O'quvchining odob-axloq qoidalari haqida suhbat o'tkazish.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O'quvchilar «Ahillik-ulug' baxt» ertagini navbat bilan o'qib beradilar. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test sinovi o'tkaziladi.



**Test topshiriqlari:**

1. Donishmand cholning nechta o'g'li bor edi?

A) 4 ta

B) 5 ta

D) 6 ta

E) 7 ta

2. Gapni to'ldiring: «Aqli cholning o'g'illari xo'p ... bo'lib o'syapti.»

A) dono

B) ahmoq

D) ishyoqmas

E) aqli

3. Chol qayerga borib novdalar qirqib kelibdi?

A) o‘rmonga

B) tog‘ga

D) cho‘lga

E) yaylovga

4. O‘g‘illari nimani sindira olmadilar?

B) bitta novdani

B) cho‘plarni

D) o‘tinni

E) dastalangan novdalarni

5. Maqolni to‘ldiring: «Ahillik – ulug‘ ...»

A) baxt

B) omad

D) boylik

E) davlat

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

O‘zbekistonda yashaydigan qushlar haqida suhbat o‘tkaziladi.

Chumchuqlar hayoti haqida ma‘lumot beriladi.

Yangi mavzuning sarlavhasi e‘lon qilinadi: «Chumchuqcha». Ertak. (Mahmud Murodov)

O‘quvchilarga «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» multimedia resursidan foydalangan holda xalq ertaklari va adabiy ertaklar haqida ma‘lumot beriladi.



«Chumchuqcha» ertagi mazmuniga mos animatsiyali lavhalar ko‘rsatiladi. Kadr ortidan ertak matni o‘qib eshittiriladi.

Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



#### Lug‘at ishi:

**polaponlar** – qushlarning hali pat va qanot chiqarmagan yoki endigina chiqara boshlagan bolasi

**tavakkal** – oqibat-natija qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, biror ishga jazm qilish

**rogatka** – kichik tosh va kesak otish uchun ayri yog‘ochga rezinka o‘rnatib yasalgan asbob

**qalqon** – ofat, balo, ko‘ngilsiz hodisalardan saqlovchi vosita; to‘siq, g‘ov

Suhbat uchun savollar:

1. Ertak qahramonlari kimlar?

2. Chumchuqcha «chirq-chirq» deganda nimani tushunasiz?

3. Ahmadga qanday baho berasiz?
4. Hikoyadan qanday saboq oldingiz?

O‘qituvchi ertakni darslikdan ifodali o‘qib beradi. O‘quvchilar kuzatib, tinglaydilar.

### **Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

**IPT**

«**Quvnoq daqiqalar**» o‘yini. O‘quvchilar quvnoq savollarga javob bering.

1. Kun bilan tun qachon teng bo‘ladi?
2. Qishdan keyingi va yozdan oldingi fasl nima? (Bahor)
3. Nima ortga qaytmaydi? (Vaqt)
4. Osmon bilan yer o‘rtasida nima bor? (Bilan)
5. Tuzsiz taom? (Sumalak)
6. Kecha – «ertaga», ertaga – «kecha» bo‘ladigan kun qaysi? (Bugun)

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

«Chumchuqcha» ertagini o‘quvchilar navbat bilan o‘qiydilar.



«**Mosini top**» *mashqi o‘tkaziladi.*

Ertak qahramonlariga mos xususiyatlarni o‘z o‘rniga joylashtiradilar.

Ahmad	Rahimjon
berahm	aqlli
axloqsiz	odobli
odobsiz	rahmdil
qo‘rs	mehribon
bezori	oqko‘ngil

Mashq natijasi tahlil qilinadi va xulosa yasaladi.

### **V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Sizning tanishlaringiz orasida Ahmadga o‘xshagan bolalar bormi?
  2. Ahmadga o‘xshagan bolalarga nima degan bo‘lardingiz?
  3. Siz kimlardan va nima uchun rahmat eshitgansiz?
- O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Chumchuqcha» ertagini ifodali o‘qish, mazmunini og‘zaki hikoya qilish, qismlarga sarlavha topish.

### 30-DARS

**Mavzu:** «Qaysar buzoqcha». Masal. (Olim Qo‘chqorbekov)

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni masal mazmuni bilan tanishtirish. Masalni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini o‘stirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda kattalar nasihatiga quloq tutish, o‘zboshimcha bo‘lmaslik hislarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, tez javob berish, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Maqollar zanjiri», «Bu kim?» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

#### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

#### II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

«Oltmish gaz arqon» ertagi o‘qitiladi. Ertak mazmuni reja asosida qayta hikoya qildiriladi. O‘quvchilarning ertak qismlariga qo‘ygan sarlavhalari o‘qitiladi.

Ertak asosida savol-javob o‘tkaziladi.

- «Oltmish gaz arqon» ertagi nima haqida ekan?
- Kampir o‘g‘lini qayerga jo‘natibdi?
- Nima uchun kampirni qo‘shnisidan jahli chiqibdi?
- U arqonni olib qayerga boribdi?
- Urush qanday yakunlanibdi?
- Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?


### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Aziz o‘quvchilar, bugun biz sizlar bilan Olim Qo‘chqorbekovning «Qaysar buzoqcha» masali bilan tanishamiz. Olim Qo‘chqorbekov haqida ma’lumot beriladi.

– Masal nima?

– Qanday masallarni o‘qigan edik?

O‘quvchilarning javoblari tinglanib, masallar haqida ma’lumot beriladi.

 O‘quvchilarga masal animatsiya lavha orqali taqdim etiladi. Masal mazmuni tushuntiriladi.

«*Shivirlab ichda o‘qish*» *marshqi* o‘tkaziladi.

Masalda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

 **Lug‘at ishi:**

**yaylov to‘ri** – yaylovning yuqori, tepa qismi

**poda** – bir qancha mollarning birga yurishi

**to‘satdan** – birdan, kutilmaganda

Masal asosida savol-javob o‘tkaziladi.

– Nima uchun buzoq yirtqichga duch keldi?

– Nima uchun buzoqchaga do‘stlari yordam bermadi?

– Masaldan qanday xulosa chiqardingiz?


O‘quvchilar javoblari to‘ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### Darslik bilan ishlash:

Masal o‘quvchilarga «Zanjir» usulida o‘qitiladi. Masal mazmuni hikoya qildiriladi.

 «*Maqollar zanjiri*» o‘yini o‘tkaziladi. Bu o‘yinda o‘quvchilar do‘stlik, ahillik haqidagi maqollardan ketma-ket aytadilar. Navbati kelganda maqol ayta olmagan o‘quvchi o‘yinda ishtirok etmaydi.

– Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.

– Baliq suvsiz yashamas,

Inson – do‘stsiz.

– Daraxt – ildizi bilan,



Odam – do‘stlari bilan.

– Do‘st do‘stni kulfatda sinar.



### «Bu kim?» o‘yini.

O‘quvchilar ingliz tilida berilgan so‘zlarning tarjimasini katalarga yozib, rasmi yashiringan hayvonni bilib oladilar. Bu hayvon qaysi ertak yoki multfilm qahramoni ekanligini aytadilar.

### V. Darsga yakun yasash va baholash.

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

– Darsda nimalarni bilib oldingiz?

– Masal sizga yoqdimi?

– Masalni o‘qib, qanday xulosa chiqardingiz?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

### VI. Uyga vazifa berish.

Masalni ifodali o‘qish uyga vazifa qilib beriladi.

## 34-DARS

**Mavzu:** Latifalar.

**Darsning maqsadi:**

**Talimiy:** o‘quvchilarga latifalar haqida ma’lumot berish. Ifodali o‘qib, so‘zlab berish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda umuminsoniy sifatlarni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilar bilimini kengaytirish, og‘zaki nutqini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, savol-javob, «Ichda o‘qish» usuli, «Qiziqarli rebus» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.


## **II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Maqol va topishmoqlar» mavzusini yoddan so'rash. Mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

1. Maqol nima?
2. Vatan haqida yana qanday maqollarni bilasiz?
3. Topishmoq deganda nimani tushunasiz?
4. Siz yana qanday topishmoqlarni bilib keldingiz?

## **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

Bugun biz sizlar bilan «Latifalar» bilan tanishamiz. Latifa kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoyadir.

 «Latifa» matni mazmuniga mos animatsiyali lavha namoyish etiladi. Kadr ortida matn o'qiladi.

O'qituvchi matnni ifodali o'qib beradi. Matn mazmuni ustida ishlaydi. O'quvchilar matnni mustaqil o'qiydi va lug'at ustida ishlanadi.

 **Lug'at ishi:**

**hovliqma** – ish-harakatda o'ylamasdan, o'ta shoshma-shosharlik qiladigan, hovliqaveradigan

**achchiqlanmoq** – jahli chiqmoq, g'azablanmoq

**xurjun** – qo'shxalta

**xijolat** – uyat, uyalish

**jabr** – zulm, azob chekmoq, qiyinchilik ko'rmoq

## **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

### **Darslik bilan ishlash.**

O'quvchilar latifani rollarga bo'lib o'qiydi. Latifa hajviy hikoya qilinadi, darslikdagi tez aytishlar ustida ishlanadi.

 **«Qiziqarli rebus» o'yini.**

Aziz bolajonlar! Agar siz ushbu rasmlarning ingliz tilidagi tarjimasining bosh harflarini to'g'ri topsangiz «Latifalar» so'zining ingliz tilida qanday atalishini bilib olasiz.



### V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslikdagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Afandi nimadan achchiqlandi?
2. Vazir afandining savoliga javob bera oldimi?
3. Afandi nima uchun xijolat bo'ldi?
4. U xijolatlikdan qanday qutuldi?

**VI. Uyga vazifa berish.** «Latifalar»ni ifodali o'qib, mazmunini qayta so'zlab berish.

## 40-DARS

**Mavzu:** «Mehrjon sayli». (Malik Murodov)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga «Mehrjon sayli» matni haqida ma'lumot berish. O'quvchilarning o'zi yashayotgan yurt, uning go'zal va maftunkor tabiati, boyligi, zahmatkash ota-onalarining kuzgi mehnati haqidagi bilimlarini boyitish. O'quvchilarni ifodali o'qish, mazmunini so'zlab berish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga, undan oqilona foydalanishga o'rgatish, tarbiyalash, axloqiy fazilatlarni singdirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, muammoli izlanish, «Ha-yo'q», «Meva va sabzavotlar so'zlaganda», «Bo'g'inlar tilsimi» ta'limiy o'yinlari.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – Abdurahmon Akbarning «Kuz» she'rini yoddan so'rab baholash.

**IPT**

**«Ha-yo'q» o'yini.**

Kuzda paxta teriladimi? (ha)

Kuzda qaldirg'ochlar uchib keladimi? (yo'q)

Kuzda yig'im-terim ishlari boshlanadimi? (ha)

Kuzda havo soviy boshlaydimi? (ha)

Kuzda yangi yil bayrami bo'ladimi? (yo'q)

Kuzda sumalak pishiriladimi? (yo'q)

Kuzda hosil bayrami bo'ladimi? (ha)

Kuzda daraxtlar kurtak ochadimi? (yo'q)

**Test topshiriqlari:**

1. Birinchi to'rtlikda qaysi mevalar haqida aytilgan?

A) olma, anjir

B) uzum, anor

D) xurmo, tarvuz

E) behi, nok

2. «Kuz» so'zining qofiyadosh so'zini toping.

A) yoz

B) suvo't

D) uz

E) to'rt

3. «Kuz» she'rining muallifi kim?

A) Malik Murodov

B) Aziz Abdurazzoq

D) Erkin Malikov

E) Abdurahmon Akbar

4. «Palla» so'zining ma'nodosh so'zini toping.

- A) dalalar, bog‘lar                      B) vaqt, payt  
 D) huzurbaxsh, yoqimli                E) to‘kin, sochin  
 5. Qaysi faslda daraxtlar bargi sarg‘ayadi?  
 A) yoz                                        B) qish  
 D) bahor                                    E) kuz

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bugun biz sizlar bilan Malik Murodovning «Mehrjon sayli» matni bilan tanishamiz. (Muallif haqida ma‘lumot beriladi.)

Matn mazmuniga mos videolavhalar namoyish etilib, kadr ortidan matn o‘qiladi.

Matn mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



#### *Lug‘at ishi:*

- an‘ana** – urf-odat, udum  
**tarovatli** – yoqimli  
**shukronalik** – shukur qilish, qanoatli  
**falak** – osmon  
**zamin** – yer

### Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.



«Bo‘g‘inlar tilsimi» o‘yini o‘ynaladi. Qovun navlarini bo‘g‘inlar soni o‘shishi tartibida topadi. Masalan: ko‘kcha, qirqma, ananas, oqurug‘, arqoniy, qoraqand, bo‘rikalla, ko‘kturnasin.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### **Darslik bilan ishlash:**

O‘quvchilar «Mehrjon sayli» matnini ichda o‘qiydilar.

Darslikdagi savol-javob, maqol va topishmoq ustida ishlanadi.

1. O‘zbeklarning qanday an‘analarini bilasiz?
2. Mehrjon sayli qaysi paytda nishonlanadi?

#### *Maqol:*

Mehnating – zeb-u ziynating.

#### *Topishmoq:*

Beqasamdan to‘ni bor,

Ichi qizil lolazor. (Taruuz)



## «Meva va sabzavotlar soʻzlaganda» oʻyini.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga oldingi darsda meva va sabzavotlar haqida sheʼr, topishmoqlar yodlab kelishni vazifa qilib beradi. Olma, anor, yongʻoq, jiyda, uzum, qizil va sariq sabzilar, piyoz, qizil lavlagi navbat bilan ekranda oʻzlarini taʼriflaydilar. Oʻquvchilar ham oʻzlari bilgan sheʼr va topishmoqlarni aytadilar.

- Olma:** Yuzlarim taram-taram,  
Yesangiz maza biram.  
Vitaminning koniman,  
Asli darmondoriman.
- Anor:** Anorman, qizil yuzim,  
Yumaloqman, men oʻzim.  
Ohista ochib poʻstim,  
Maza qilib ye doʻstim.
- Yongʻoq:** Kuz kelganda pishaman,  
Qoqsang tap-tap tushaman.  
Yogʻli qilib noningni,  
Tozalayman qoningni.
- Jiyda:** Bir mevaki, toʻni bor,  
Toʻn ichida uni bor.  
Faqat un, deb oʻylamang,  
Ichida ustuni bor.
- Uzum:** Kishmish, charos, daroyi,  
Oltin kabi husayni.  
Toʻyib-toʻyib yesang ham,  
Tagʻin koʻngling tusaydi.
- Sabzi:** Qizil-sariq rangda biz,  
Yengilmaymiz jangda biz.  
Askarlardek safimiz,  
Tegadi koʻp nafimiz.
- Piyoz:** Roʻzgʻorda qish yo yozdir,  
Eng kerakli piyozdir.  
Oshga solmay koʻring-chi,  
Taʼm bermaydi guruchi.  
Erta bahor ekilgan,

Ko'k bargim koni foyda.  
Shuni unutmang zinhor,  
Men kerakman har joyda.

**Lavlagi:** Tinglang mening ham so'zim,  
Ko'p dardga davо o'zim.  
Kamqonlarga qon bo'lgum,  
Ham shifo, darmon bo'lgum.

Bolajonlar, keling endi tez aytish musobaqasini o'tkazamiz.  
Ko'k karam ko'pmi,  
Po'k karam ko'pmi?

Sobir sakkizta sabzi sanadi,  
Sakkizta sabzini Sobir sanadi.

#### **V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.**

O'quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

Darsimizda nimalarni bilib oldingiz?

Navro'z bilan Mehrjon saylining farqini ayting.

O'quvchilar darsga faol ishtirok etishlariga ko'ra baholanadi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

«Mehrjon sayli» matnini ifodali o'qib, so'zlab berish.

## 42-DARS

**Mavzu:** «Bebaho boylik.» Hikoya. (Hakim Nazir)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni hikoya mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o'qish malakasini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda vaqtning qadriga yetish, qariyalarga nisbatan mehr-muruvvat hissini tarbiyalash, bilim olishga havasini kuchaytirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, vaqtni tez va to'g'ri aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «Sehrgar bo'lib qolsam», «Bilmasvoyga yordam bering» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** soat maketi, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

Fasl haqida suhbat.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O'quvchilar bilan «Qo'riqchining sabog'i» ertagini mustahkamlash maqsadida suhbat o'tkaziladi.

**Suhbat uchun savollar:**

1. Qadim zamonda kim yashagan ekan?
2. Dehqon nimalar yetishtirar ekan?
3. Dehqonning nima uchun jahli chiqibdi?
4. Dehqon qanday tush ko'ribdi?
5. Qo'riqchi dehqonga nima debdi?
6. Dehqon qanday inson bo'lishga so'z beribdi?

**«Bilmasvoyga yordam bering» o'yini.**

Bu o'yinda bulutlar tasvirida yozilgan so'zlar bilan tarvuzlar tasvirida yozilgan so'zlarni ma'no jihatidan moslashtirish kerak bo'ladi.

bazo'r

mitti

jajji

saxiy

ziqna

kunbo'yi

zorlandi

xasis

saxovatli

yalindi

uzzukun

zo'rg'a



Uzzukun – kunbo‘yi, bazo‘r – zo‘rg‘a, jajji – mitti, saxovatli – saxiy, ziqna – xasis, zorlandi – yalindi.

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzu e‘lon qilinadi.

O‘qituvchi hikoyani ifodali o‘qib beradi. Matn mazmunini so‘zlab, tushuntirib beradi.

O‘quvchilar kuzatib, tinglaydilar. Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



#### *Lug‘at ishi:*

**behuda** – hech qanday nafi, foydasi yo‘q; befoyda

**dastyor** – qo‘ldan kelgan ishni bajarib, oilada kattalarning og‘irini yengil qiluvchi, yordamchi, ko‘makchi

**astoydil** – chin ko‘ngildan, sidqidil bilan, rostakamiga

**ahd qildi** – va‘da qildi, so‘z berdi

O‘quvchilar navbat bilan hikoyani bitta gapdan o‘qiydilar.



#### «Sehrgar bo‘lib qolsam» mashqi.

O‘quvchilar vaqtni orqaga qaytarib, qaysi voqea qaytadan sodir bo‘lishi yoki boshqacha tus olishini istashlari haqida fikrlarini aytadilar (bir necha so‘z yozib yoki rasmini chizib ifoda qilsa ham bo‘ladi).

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.



#### *Test topshiriqlari:*

1. Kimlar suhbatlashib o‘tirgan edi?

- A) ota va bola                      B) bobo va o‘gil  
D) ona va qiz                      E) bobo va nabira

2. Nabirasi bobosiga nima haqida savol berdi?

- A) boylik haqida                      B) vaqt haqida  
D) kitob haqida                      E) bayram haqida

3. Kuzda kim betob bo‘lib qolibdi?

- A) Dehqonboy                      B) Oftob aya  
D) Barno                      E) Durdona

4. Barno buvasi uxlaganlarida nima qilar ekan?

- A) televizor ko‘radi                      B) musiqa tinglaydi  
D) dars tayyorlaydi                      E) kompyuter o‘ynaydi

5. Dunyoda eng qimmatli boylik nima ekan?

- A) vaqt                      B) oltin  
D) pul                      E) kiyim-kechak

«Bebaho boylik» hikoyasida dunyoda eng qimmatli boylik vaqt ekanini bilib oldingiz. Xo‘sh, dunyoda vaqtdan boshqa yana qanday bebaho narsalar bor ekan? Javobingizni izohlashga harakat qiling.

№	Eng qimmatli narsa	Nima uchun?
1	Vaqt	Chunki yo‘qotilgan vaqtni orqaga qaytarib bo‘lmaydi.
2	Yoshlikda olingan ilm	
3		
4		
5		

### V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.

Darsga yakun yasash maqsadida o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

1. Hikoya sizga yoqdimi?
  2. Hikoyani o‘qib qanday xulosaga keldingiz?
- O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

### VI. Uyga vazifa berish.

«Bebaho boylik» hikoyasini ifodali o‘qib, mazmunini so‘zlab berish.

## 43-DARS

**Mavzu:** «Bobur va kabutar». (Rivoyat).

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni rivoyat mazmuni bilan tanishtirish, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni ziyraklikka, sezgirlikka undash, tinchlik tarafdori bo‘lishga o‘rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, lug'at boyliklarini oshirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «So'zlar juftligi», «Vaqt mashinasi» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** qovunlar rasmi, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.


**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O'quvchilar «Bebaho boylik» hikoyasini ifodali o'qib, mazmunini so'zlab beradilar.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «So'zlar juftligi» mashqi o'tkaziladi.

 **«So'zlar juftligi» mashqi.**

– Juftlashib ketgan so'zlarni ajrating. Shu so'zlar ishtirok etgan gaplarni darslikdan aniqlang va o'qib bering.



The diagram illustrates a word matching exercise. It consists of four rows, each showing a large grey oval on the left containing a word, followed by an equals sign, then two smaller grey ovals on the right containing words separated by a plus sign. The words are: Row 1: BINABIBORA = BOBO + NABIRA; Row 2: QIMBOYMATLILIK = QIMMATLI + BOYLIK; Row 3: DEHBEQONTOBBOY = DEHQONBOY + BETOB; Row 4: UVANUMLIQT = UNUMLI + VAQT.

bonabibora = bobo + nabira

qimboymatlilik = qimmatli + boylik


dehqonboy = dehqonboy + betob

uvanumliqt = unumli + vaqt

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzu e'lon qilinadi. «Bobur va kabutar». Rivoyat.

O'qituvchi kabutarlar tasvirlangan suratlarini ko'rsatadi. Ularning turlari va hayoti haqida ma'lumot beradi. Xat tashuvchi kabutarlar haqida alohida to'xtaladi.

 Rivoyat mazmuni animatsiyali surat yordamida namoyish etilib, kadr ortidan matn o'qiladi.

O'qituvchi rivoyatni so'zlab beradi.

Matnda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

 **Lug'at ishi:**

**a'yonlar** – eng yuqori qatlamga mansub, hukmdorga yaqin turgan, baland martabali kishilar; amaldorlar

**peshtoq** – madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy kabi binolarning old tomonidagi serhasham yuqori qismi


**oliyhazrat** – oliy mansabga ega bo'lgan kishi va ularning nomini ulug'lab aytiladigan murojaat shakli

**qin** – pichoq, qilich solib qo'yiladigan g'ilof

**qovun sayli** – qovunxo'rlik va sayr-tomosha maqsadida ko'pchilik bo'lib polizga chiqish

O'quvchilarni qushlarni avaylab-asrashga, g'amxo'rlik qilishga, ozor bermaslikka o'rgatish maqsadida suhbat uyushtiriladi.

«**Vaqt mashinasi**» **mashqi.**

 – Rivoyat mazmuniga o'xshash, hozirgi zamonga mos yangi hikoya tuzing. (Tez, qiziq, qisqa, yangi.) Tasavvur qiling: rivoyat voqealari va qahramonlar bizning zamonimizga kelib qolishsin.

– Asarda nimalar o'zgarishi kerak?

– Nimalar shundayligicha qolishi mumkin?

– Qaysi voqealarni amalga oshirib bo'lmaydi?

**Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.**

«Tez javob ber» o'yini o'tkaziladi. Buning uchun o'quvchilar uch guruhga bo'linib, har uch guruhdan bir nafar vakil berilgan savollarga tezlik bilan javob berishi kerak.

1-guruh uchun savollar:

1. Nima hamma tilda ham gapiradi? (Aks sado)
2. Qilichdan o'tkir nima? (Ko'z)
3. Ko'prik ustida ketayotgan odam oyog'ining tagida nima bor? (Oyoq kiyimining tag charmi)
4. Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi? (Quruq tosh)
5. Qora mushuk qay vaqt uyga osongina kira oladi? (Eshik ochiq bo'lsa)

2-guruh uchun savollar:

1. Nimaning besh barmog'i bor-u, Birorta ham tirnog'i yo'q? (Qo'lqop)
2. Yuqoridan pastga qarab o'sadigan narsa nima? (Sariq sumalak)
3. Hayvonlardan birining nomini ikki tomondan o'qilsa ham o'zgarmaydi. Bu hayvonning nomi nima? (Kiyik)
4. Yomg'ir yog'ib turganda, qarg'a qanday daraxtga qo'nadi? (Ho'l daraxtga qo'nadi)
5. Bir joyda yonib turgan sakkiz lampochkadan uchasi o'chsa, nechta lampochka qoladi? (Sakkizta lampochka qoladi, chunki uch lampochka singani yo'q)

3-guruh uchun savollar:

1. Nimaga odam orqaga o'girilib qaraydi? (Odam orqasida ko'zi yo'q)
2. Yumuq ko'z bilan nimani ko'rish mumkin? (Tush)
3. Qanday idishni sira to'ldirib bo'lmaydi? (Teshik idishni)
4. Tushimda yovvoyi hayvonlar meni taladi, ulardan qanday qilib qutulish mumkin? (Uyg'onib)
5. Olaqarg'a o'zini «Men qushman», deb ayta oladimi? (olaqarg'a gapira olmaydi)

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

«Bobur va kabutar» rivoyatini o'quvchilar navbat bilan o'qiydilar.

O'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etib, suhbat o'tkaziladi:

### **Suhbat uchun savollar:**

1. Umarshayx a'yonlaridan nimani so'radi?
2. A'yonlar nima deb javob berishdi?
3. Boburning ziyrakligini nimada ko'rasiz?



### **Test topshiriqlari:**

1. Mirzo Bobur yoshligidan qanday bola bo'lib o'sibdi?  
A) kamgap                      B) ziyrak  
D) ayyor                         E) dangasa
2. Qaysi qush uchib kelib, ayvon peshtoqiga qo'nibdi?  
A) kabutar                        B) musicha  
D) qaldirg'och                 E) chumchuq
3. Kabutar nima haqida xabar olib keldi?  
A) hosil bayrami                B) urush  
D) Navro'z bayrami             E) qovun sayli
4. Bobur Mirzo kabutarni qanday tanidi?  
A) dumidan                        B) qanotidan  
D) ko'zidan                       E) tumshug'idan
5. Tushib qolgan so'zni toping: «Qilichni emas, .... ishga solmoq lozimdir».  
A) aql-idrokni                    B) mehnatni  
D) boylikni                        E) lavozimni

### **V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.**

Darsga yakun yasash maqsadida o'quvchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

1. Rivoyat nima haqida ekan?
2. Sinfdoshlaringiz orasida kimlarni ziyrak deb hisoblaysiz?

Nima uchun?

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

### **VI. Uyga vazifa berish.**

«Bobur va kabutar» rivoyatini ifodali o'qish, kabutar rasmini chizish.

**Mavzu:** «So‘nggi axborot». She‘r (Anvar Obidjon)

**Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** she‘rni ifodali o‘qishga o‘rgatish. Kuz faslida tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlar, hodisalar va kuz ne‘matlari haqida ma‘lumot berish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda tabiatga muhabbat, mehnatsevarlik hislatlarini tarbiyalash. Tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga odatlantirish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, og‘zaki nutqlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, «Topib o‘qi», «Mohir rassom» ta‘limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali mavzuga oid rasmlar va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘quvchilar tomonidan chizgan Bobur tanigan kabutar rasmi tahlil qilib baholanadi.

«Bobur va kabutar» rivoyati mazmuni 4–5 o‘quvchiga qayta hikoya qildiriladi.

«Bobur va kabutar» rivoyati asosida qisqa muddatli savol-javob o‘tkaziladi.

– Umarshayx a‘yonlaridan nimani so‘radi?

– A‘yonlar nima deb javob berdilar?

– Boburning ziyrakligini nimada ko‘rasiz?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi.

O‘tilgan mavzular yuzasidan test sinovi o‘tkaziladi.



### **Test topshiriqlari:**

1. Kuzda qaysi qushlar issiq tomonlarga uchib ketadi?  
A) musichalar, turnalar, qaldirg'ochlar, uzunqanotlar, chug'urchiqlar  
B) turnalar, chug'urchiqlar, qaldirg'ochlar, uzunqanotlar, ko'kqarg'alar  
D) turnalar, chug'urchiqlar, qaldirg'ochlar, uzunqanotlar, musichalar  
E) musichalar, ko'kqarg'alar, qaldirg'ochlar, uzunqanotlar
2. «Kuz kelganda» she'rining muallifi kim?  
A) Mahmud Murod                      B) Abdurahmon Akbar  
D) Malik Murodov                      E) Tolib Yo'ldosh
3. Mehrjon sayli qaysi paytda nishonlanadi?  
A) 25-sentabrga o'tar kechasi  
B) 21-martda kunduzi  
D) 21-sentabrga o'tar kechasi  
E) 1-sentabrda kunduzi
4. «Qo'riqchining sabog'i» ertagi muallifi kim?  
A) Hakim Nazir                      B) Abdurahmon Akbar  
D) Malik Murodov                      E) Feruza Jalilova
5. «Olma» hikoyasi qahramonlarining ismlari to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.  
A) Quدرات ota, Dehqonboy amaki, Kamol  
B) Quدرات ota, Dehqonboy amaki, Kamol, 2-sinf o'quvchilari  
D) Quدرات ota, Dehqonboy amaki, Kamol, 3-sinf o'quvchilari  
E) Quدرات ota, Dehqonboy amaki, Kamol, Sodiqjon




### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

**IPT**

«Rasmi boshqotirma» o'yini orqali dars mavzusi e'lon qilinadi.

O'quvchilar rasmdagi narsalar nomini tegishli kataklarga joylashtirib, «So'nggi axborot» jumlasini o'qiydilar.





A.Obidjonning «So‘nggi axborot» she’ri bilan tanishamiz. (She’r muallifi haqida ma’lumot beriladi.)


O‘quvchilar bilan «Aqliy hujum» o‘tkaziladi.

– Kuzda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

– Kuz faslida dala va bog‘larda qanday mahsulotlar pishib yetiladi?

– Nima uchun shoir she’rni «So‘nggi axborot» deb nomlagan?

O‘quvchilar javoblari tinglanadi va she’r matni bilan tanishtiriladi.

 Multimediali ilovadan foydalanib, she’r mazmuniga mos animatsiyali lavha namoyish qilinadi.

She’rdagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



### *Lugʻat ishi:*

**oʻsal** – gapirolmay, qimirlamay yotish

**abjir** – epchil, chaqqon, uddaburon

**yumalab** – dumalab

**jom** – misdan yasalgan togʻora, tos

**Dam olish daqiqasi oʻtkaziladi.**

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

#### **Darslik bilan ishlash:**

Sheʼr oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi. Darslikda berilgan savollar asosida savol-javob oʻtkaziladi.

– Shamol nimalarga zarar yetkazdi?

– Nima uchun qovunning boshi yorildi?

– Nimalar zarar koʻrmadi? Nima uchun?

– Bu kabi hodisalar qaysi faslda roʻy beradi?

Oʻquvchilar javoblari tinglanib, toʻldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

Sheʼrdagi qofiyadosh soʻzlar aniqlanadi: shamol – kor-hol, kasal – oʻsal, abjir – anjir, borib – yorib...



#### **«Topib oʻqi» mashqi.**

Oʻquvchilar daraxtdagi mevalarga yozilgan harflardan soʻzlar tuzadilar va shu soʻz qatnashgan gapni sheʼrdan topib oʻqiydilar. Multimediali ilovada shamol, kasal, shoxdan, toʻkildi soʻzlari beriladi. Oʻquvchilar shu soʻzlarni aniqlab, sheʼrdan topib oʻqiydilar.

1) Boʻlib oʻtdi qishloqda

Kecha zoʻr **shamol**.

2) Uzun boshi aylanib,

Boʻp qoldi **kasal**.

3) **Shoxdan** yiqilib olma

Yotibdi oʻsal.

4) Noklar yerga **toʻkildi**,

Boʻlishib bir jom.



«Mohir rassom» oʻyini oʻtkaziladi.

Ushbu oʻyinda oʻquvchilardan biri sheʼrdagi meva-sabzavotlar haqida topishmoq aytadi, topishmoqning javobini

topgan o‘quvchi meva yoki sabzavotning she’rda tasvir-  
langan holatdagi rasmini doskaga chizadi. O‘yin so‘nggida  
she’r mazmuniga mos rasm hosil bo‘ladi.

«So‘nggi axborot» she’rida bir necha mevalar haqida  
so‘z boradi. Bu qaysi mevalar va ular inglizchada nima  
deyiladi?

olma

apple

---

---

---

---

### V. Darsga yakun yasash va baholash.

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma  
va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar  
bilan murojaat etiladi:

1. Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
2. «So‘nggi axborot» she’rida shoir qanday hodisani tasvir-  
lagan?

3. Kuz faslida shunday holatni kuzatganmisiz?

O‘quvchilar javoblari to‘ldirilib, dars yakunlanadi.

O‘quvchilarning darsdagi faoliyati tahlil qilinib, baholanadi.

### VI. Uyga vazifa berish.

She’rni yod olish uyga vazifa qilib beriladi.

## 51-DARS

**Mavzu:** «Jaloliddin Manguberdi». Hikoya. (Mirkarim  
Osim)

### Darsning maqsadi:

**Ta’limiy:** hikoya mazmuni bilan tanishtirish, matn ustida  
ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni ona Vatanni sevish, asrashga o‘r-  
gatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyat-  
larini, lug‘at ustida ishlash, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini  
rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Tarmoqlash», «Topib o‘qi» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.


Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Toshkent» matni «Zanjir» usulida o‘qitiladi. Matn mazmuni «Davom ettir» usulida qayta hikoya qildiriladi.

**IPT** Matn asosida «Tarmoqlash» usuli bilan shaharga ta’rif beriladi.



Matn yuzasidan tezkor savol-javob o‘tkaziladi.

– «Toshkent» so‘zi qanday paydo bo‘lgan?

– Shaharda qanday darvozalar qurilgan?

– Toshkent aholisi ko‘proq qaysi shaharlar bilan savdo qilgan?

**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Bugun biz sizlar bilan Mirkarim Osimning «Jaloliddin Manguberdi» hikoyasi bilan tanishamiz. (Muallif haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot beriladi.)

Hikoya matni o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. Matn mazmuni tushuntirib beriladi. Matn asosida savol-javob o‘tkaziladi.

- Hikoya kim haqida ekan?
  - Chingizxon qanday hiyla ishlatdi?
  - Jaloliddin nima qildi?
  - Chingizxon nima uchun Jaloliddinni quvmoqchi bo‘lgan askarlarini to‘xtatdi?
  - Hikoyadagi qaysi voqea sizni hayajonlantirdi?
  - Jaloliddin qachon va qanday halok bo‘ldi?
- O‘quvchilar javoblari to‘ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

Hikoyadagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



**Lug‘at ishi:**

**Jayhun** – Amudaryoning qadimgi nomi

**nizo** – kelishmovchilik, kichik janjal

**sohil** – qirg‘oq



Jaloliddin Manguberdi haqidagi videolavha namoyish qilinadi.

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

Matn o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi. Matn qismlarga bo‘linadi.



**«Hamkorlikda qayta hikoyalash» mashqi.**

O‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadi. Ularga matn qismlari tarqatiladi. Har bir guruh o‘ziga berilgan qismni o‘rganib chiqadi. So‘ng guruhlar hikoya mazmunini qayta hikoyalab beradi.



**«Topib o‘qi» mashqi.**

– Hikoyadan Jaloliddinning lashkarboshilar orasidan chiqqan nizo tasvirlangan qismni o‘qing.

– Chingizxonning Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan qismni hikoyadan topib o‘qing.



Hikoya qahramonlariga qiyosiy tavsif beradilar.

**Jaloliddin**  
mard  
vatanparvar  
oilaparvar  
sadoqatli  
harakatchan

**Chingizxon**  
yovuz  
boylikka o‘ch  
zolim  
hiylakor  
nomard

## V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?
- Hikoya sizga yoqdimi?
- Hikoyani o'qib, qanday xulosa chiqardingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan guruhlar ballari e'lon qilinib, rag'batlantiriladi. O'quvchilarning guruhdagi faolliklari tahlil qilinib, baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

Hikoyani o'qib, o'rganish, mazmunini qayta hikoyalash uchun tayyorlanish uyga vazifa qilib beriladi.

## 52-DARS

**Mavzu:** Mehnatkash qiz. Hikoya (Oybek)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Mehnatkash qiz» hikoyasi bilan tanishtirish, ifodali va ravon o'qishga o'rgatish,

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni kattalarga hurmat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, «Har kim, har kimga o'rgatadi» metodlari, «Kim chaqqon» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

## II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa «Jaloliddin Manguberdi» hikoyasini so'rab baholash.

O'tilgan mavzu savol-javob orqali mustahkamlanadi.

1. Chingizxon qanday hiyla ishlatdi? Nima uchun?
2. Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi qanday kurashdi?
3. Qaysi voqea sizni hayajonga soldi?
4. Hikoya qahramonlaridan qay biri sizga yoqdi? Nima uchun?



### «Kim chaqqon» o'yini.

1. O'quvchilarga boshqotirma beriladi.

1	m	a	k	t	a	b
2	y	e	l	i	m	
3	h	a	l	i	m	
4	a	n	o	r		
5	a	y	r	o	n	
6	t	e	r	a	k	
7	k	i	t	o	b	
8	a	r	ch	a		
9	a	sh	u	l	a	
10	q	a	r	g'	a	
11	q	i	sh			
12	u	z	u	m		

1. Bilim maskani.
2. Qog'ozni yelimlaydi.
3. Bahor taomi.
4. Kuzda pishadigan meva.
5. Qatiqdan tayyorlanadigan ichimlik.
6. Daraxt nomi.
7. Bilim bulog'i.
8. Qishin-yozin bir xil kiyimda.
9. Qo'shiqning ma'nodoshi.
10. Kuzda uchib keladigan qush.
11. Fasllardan biri.
12. Tokning mevasi.

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzu e'lon qilinadi: «Mehnatkash qiz» hikoyasi. (Muallif haqida ma'lumot beriladi.)

Matnni o'qituvchi yoki o'quvchi o'qiydi. Hikoya mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar hikoyani navbat bilan o'qiydilar. Hikoyada uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



#### **Lug'at ishi:**

**atala-umoch** – undan tayyorlanadigan har xil suyuq ovqat

**shinamgina** – ixcham va qulay joy

**ip eshib** – ipni toblab, pishiq qilmoq

**shon qoqish** – mahsi va etik qo'njiga uriladigan qolip

**so'zan** – kosiblar ishlatadigan maxsus nina

**Harakatli dam olish daqiqasi o'tkaziladi.** O'quvchilar birgalikda bajaradilar.

Bobo, bobo, bigizcha

Bering qo'limga.

Etik tikib kiyayin,

Tushay o'yinga.

So'zan bering qo'limga,

Sozlab tikayin.

Ishonaman o'zimga

Kattargan sayin.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### **Darslik bilan ishlash:**



#### **«Har kim har kimga o'rgatadi» metodi.**

O'quvchilarga «Mehnatkash qiz» hikoyasi qismlarga bo'lib beriladi. O'quvchilar matn qismlarni o'qib, hikoya mazmuni bir-birlariga o'rgatadilar. So'ngra Unsinning xislatlari haqida savol-javob o'tkaziladi.

Savol:

1. Unsin Shokir otaning uyida qanday ishlarni bajarar edi?
2. Shokir otaga qanday vazifalarni bajarishda yordamlashardi?
3. Unsin Shokir otadan qanday qilib mahsi tikishni o'rgandi?



Reja asosida o'quvchilarga qayta hikoya qildiriladi.

**Reja:**

1. Unsin kampirga ko'maklashadi.
2. Unsinning istagi.
3. Unsin mahsi tikishni o'rgandi.



**Test topshiriqlari:**

1. Shokir otaning hovlisi qanday edi?  
A) kichkina                      B) shinam  
D) keng                              E) kichkina va shinam
2. Shokir ota qanday kasb egasi?  
A) maxsi tikuvchi              B) oshpaz  
D) kulol                              E) bog'bon
3. Unsin uy ishlariga kimga ko'maklashadi?  
A) Shokir otaga                  B) kampirga  
D) nabiralarga                  E) hammaga
4. Unsin otadan nimani so'radi?  
A) shogirdlikka olishni      B) maxsi tikish  
D) gul o'tkazish                  E) dars tayyorlash
5. Unsin otadan nimani o'rgandi?  
A) uy ishlarini                  B) mahsi tikishni  
D) chopon tikishni              E) ko'ylak tikishni



**«Rebus» o'yini.**

Rebusni yechsangiz, kosiblar tikadigan maxsus ninaning nomi kelib chiqadi.



Javobi: **so'zan**

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

1. Hikoya nima haqida ekan?
2. Unsin otadan nimani o'rgandi?.

Darsda ishtirok etgan o‘quvchilar baholari e‘lon qilinadi. Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

## **VI. Uyga vazifa berish.**

«Mehnatkash qiz» hikoyasini ifodali o‘qib, so‘zlab berish, rasm asosida insho yozib kelish.

## **60-DARS**

**Mavzu:** «Alpomishning bolaligi». (Ertak)

### **Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** matn mazmuni bilan tanishtirish, Vatanning mo‘tabar ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirish, matn ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda mardlik, jasurlik ko‘nikmalarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, tushuntirish, «Klaster», «Kim birinchi» ta‘limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

#### **II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Yosh hakim» hikoyasi mazmuni reja asosida qayta hikoya qildiriladi.

Reja:

1. Abdullaning vafoti.
2. Ark suv quygandek jimjit.
3. Bemorga berilgan topshiriqlar.

4. «Menga pul emas, ilm kerak»

Savol-javob o'tkaziladi.

– Nima uchun Nuh binni Mansur Ibn Sinoni saroyga chaqirtirdi?

– Ibn Sino bemorga qanday topshiriqlar berdi?

– Nima uchun tabib pulni olmadi?

– Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

**IPT**

«**Kim birinchi**» o'yini. O'quvchilarga boshqotirma beriladi. Bu boshqotirmaning yechib, dars mavzusini bilib oling.

		A	b	d	u	l	l	a	
J	a	l	o	l	i	d	d	i	n
		p	o	d	sh	o			
s	a	r	o	y					
	K	a	m	o	l				
t	a	b	i	b					
	Sh	o	sh						

Savollar:

1. Husayn otasini ismi nima?

2. ... Manguberdi.

3. Nuh binni Mansur kim edi?

4. Husayn qayerdagi kutubxonada mutolaa qilishga ruxsat so'radi?

5. Toshkent darvozalaridan biri.

6. Ibn Sino kim bo'lgan?

7. Toshkentning qadimgi nomlaridan biri.

– Bolajonlar, boshqotirmada qanday so'z yashiringan ekan?

– Barakalla, bugun biz siz bilan Alpomishning bolaligi bilan tanishamiz.



Ertak mazmuni animatsiyali lavha orqali namoyish qilinadi va matn o'qiladi.

Matn mazmuni o'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi. Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



**Lug'at ishi:**

**sipohlik** – harbiylik

**yoy** – kamon

**o'n to'rt yarim botmon** – o'lchov birligi

**alp** – bahodir

**Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.**



**«Tez javob» o'yini.**

1. «Bola Alisher» hikoyasidagi G'iyosiddin kim? (Alisherning otasi)
2. Kurdistonda fojiali halok bo'lgan sarkarda kim? (Jaloliddin Manguberdi)
3. Labzak qaysi shahar darvozasi? (Toshkent shahrining)
4. Unsin qaysi hikoyada uchraydi? («Mehnatkash qiz»)
5. Alpomishning otasini ismi nima? (Boybo'ri)

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

Matn o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi.

Savol-javob o'tkaziladi.

1. Boybo'ri nima maqsadda Hakimbekni ustozlar qo'lga topshirdi?

2. Hakimbek qanday qilib alp nomini oldi?

Matn mazmuni topshiriq asosida hikoya qildiriladi.

– Boybo'ri va Boysari xonadonidagi quvonch haqida so'zlang.

– Hakimbek va Barchinoyning savod chiqarish jarayonini gapirib bering.



**«Klaster»** yordamida Alpomishga xos sifatlar yoziladi.

O'rganilganlar yuzasidan test sinovi o'tkaziladi.



**Test topshiriqlari:**

1. Alpomish qaysi elda dunyoga keldi?

A) Qo'ng'iro't

B) Xorazm

D) Balx

E) Jayxun

2. Alpomishning otasini ismi nima?

A) Boybo'ri

B) Hakimbek

D) Boysari

E) Alp bahodir

3. Alpomishning asl ismi nima?

- A) Boybo'ri                      B) Hakimbek  
D) Boysari                      E) Alp bahodir

4. Alpomishning amakisining ismi?

- A) Boybo'ri                      B) Hakimbek  
D) Boysari                      E) Alp bahodir

5. Hakimbekning bobosidan qolgan yoyning og'irligi?

- A) o'n besh yarim botmon    B) o'n to'rt botmon  
D) o'n besh botmon            E) o'n to'rt yarim botmon

## V. Darsga yakun yasash va baholash.

Darsda o'rganilganlar yuzasidan savol-javob o'tkazilib, dars yakunlanadi. O'quvchilarning darsdagi faolliklari tahlil qilinib, baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

Ertakni o'qib, o'rganish, mazmunini qayta hikoyalash uchun tayyorlanish uyga vazifa qilib beriladi.

# 61-DARS

**Mavzu:** «Cho'pon yigit Shiroq». (Rivoyat)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Cho'pon yigit Shiroq» rivoyati bilan tanishtirish. Ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllashtirish.

**Tarbiyaviy:** «Cho'pon yigit Shiroq» rivoyatini o'qish, tahlil qilish orqali Shiroq timsolida o'quvchilar qalbiga vatanparvarlik tuyg'usini singdirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** tushuntirish, suhbat, «Venn diagramasi», «Izma-iz» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

## **Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

### **II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Alpomishning bolaligi» ertagini so'rab baholash.

O'quvchilar ertakni so'zlab beradilar va savol-javob o'tkaziladi.

Savol:

1. Qadim zamonda Qo'ng'iroq elida kimlar yashagan ekan?
2. Alpomishning asl ismi kim ekan?
3. Hakimbek qanday qilib alp nomini oldi?

### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan «Cho'pon yigit Shiroq» rivoyati bilan tanishamiz. (Rivoyat haqida qisqa ma'lumot beriladi.)

Rivoyat – avloddan avlodga o'tib kelayotgan, voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya: naql, afsona. Shunday rivoyatlardan biri «Cho'pon yigit Shiroq» rivoyatidir.



Rivoyat mazmuni animatsiyali lavha orqali namoyish qilinadi va matn o'qiladi.

O'qituvchi rivoyat mazmunini tushuntiradi. O'quvchilar ketma-ket matnni o'qiydi. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



#### **Lug'at ishi:**

**hiyla** – nayrang

**o'ch olish** – qasd olish

**g'amlamoq** – to'plab, yig'ib qo'yimoq

**biyobon** – kenglik, dashtlik

**tashnalik** – suvsaganlik

**zabarjad** – yashil rangli qimmatbaho tosh

Matn mazmuniga mos multfilm namoyish etiladi.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

**Darslik bilan ishlash:** «Cho‘pon yigit Shiroq» rivoyatini o‘quvchilar «Topib o‘qi» mashqi orqali matnni o‘qiydilar.

«Shiroq xanjar bilan o‘z quloqlarini, burnini kesdi», «Cho‘l-u biyobonga boshlab bordi», «Lashkarboshi g‘azab bilan Shiroqning bo‘yniga qilich soldi» gaplarni to.pib o‘qing.



#### **Test topshiriqlari:**

1. Doro qaysi davlat podshosi edi?

- A) O‘rta Osiyo                      B) Eron  
D) massagetlar                      E) so‘g‘dlar

2. Shiroq kim edi?

- A) qabila boshlig‘i                      B) lashkarboshi  
D) cho‘pon yigit                      E) Eron lashkari

3. Shiroq Doro qo‘shinini qayerga boshlab bordi?

- A) shaharga                      B) massagetlar oldiga  
D) xalqi oldiga                      E) cho‘lu biyobonga

4. Shiroq necha kunda Doroni yengdi?


- A) uch kunda                      B) yetti kunda  
D) besh kunda                      E) to‘qqiz kunda

5. Shiroq nima uchun jasorat ko‘rsatdi?

- A) Vatani                      B) do‘sti  
D) cho‘ponligi                      E) jangchiligi



Matn mazmuni hikoya qilinadi va Venn diagrammasi tasvirlanadi.



#### V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.

Savol-javob:

1. Nima uchun Shiroq xanjar bilan o‘z quloqlarini, burnini kesdi?

2. Shiroq qayerga bordi va Doroga nima dedi?
3. Doro aldanganini qachon bildi va nima dedi?
4. Shiroq-chi? Shiroq nima deb javob berdi?

## **VI. Uyga vazifa berish.**

«Cho‘pon yigit Shiroq» rivoyatini ifodali o‘qib, mazmunini so‘zlab berish.

## **65-DARS**

**Mavzu:** Chana. Hikoya (O‘tkir Hoshimov).

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni «Chana» hikoyasi bilan tanishtirish, matnни tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda tabiatga muhabbat, do‘stlik, o‘zaro hurmat hislarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning erkin fikrlash ko‘nikmalarini, og‘zaki nutqlarini, tabiat haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, «Sinkveyn» metodlari, «Zanjir» usuli, «O‘yla, izla, top» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

Qish fasli haqida suhbat.

### **II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – Zafar Diyorning «Qish» she’rini yoddan aytib beradilar.

**IPT**

**«Sinkveyn» metodi.**

muz

sovuq, qattiq



eriydi, yoriladi, ko‘chadi  
Bolalar muzda yaxmalak uchadi.

yax



«O‘yla, izla, top» o‘yini. O‘quvchilarga savollar javoblari bilan aralash beriladi. To‘g‘ri javob topilganda o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

1. «Qish» she‘rining muallifi kim? (Zafar Diyor)  
2. She‘r nima haqida yozilgan? (Qor haqida yozilgan)  
3. Qish fasliga oid xususiyatlarni ayting. (Qor yog‘adi, sovuq bo‘ladi, yerlar muzlaydi, havo bulut bo‘ladi.)

4. Topishmoqning javobini toping.

Oppoqqina dasturxon,

Yer yuzini qoplagan. (Qor)

5. She‘rda bolalarning qaysi o‘yinlari tasvirlangan. (Konki va chang‘ida uchish o‘yinlari tasvirlangan.)

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan O‘tkir Hoshimovning «Chana» hikoyasi bilan tanishamiz. (Hikoya muallifi haqida qisqa ma‘lumot beriladi.)

O‘qituvchi matni ifodali o‘qib beradi.

Matn mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



#### *Lug‘at ishi:*

**yaraq-yaraq** – yaltiraydi

**siltangan edi** – kuch bilan keskin tortmoq, itarmoq

**shuvullab** – «shuv, shuv» etgan tovush chiqarib

**galma-gal** – navbatma-navbat

**alam qilganidan** – ko‘ngilga qattiq tegganidan dili og‘ridi, ranjidi.



Bolalar chanada uchayotgan manzara tasvirlangan videolavha beriladi.

**Harakatli dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.** «Qor» qo‘shig‘i qo‘yiladi. Bolalar qo‘shiqqa mos harakatni bajaradilar.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:** «Chana» hikoyasini o‘quvchilar «Zanjir» usulida o‘qiydilar. Matn mazmuni hikoya qildiriladi. Darslikdagi savol-javob va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Bahodir kimdan, nima uchun xafa bo‘ldi?
2. Farhod o‘z xatosini qachon tushundi?

Matndan Farhodning qizg‘anchiqligi ifodalangan gapni topib o‘qing.



#### **Test topshiriqlari:**

1. Farhodning dadasi nima olib keldi?  
A) kitob **B) chana**  
D) quyon E) olma
2. Otasi Farhodga nima deb tayinladi?  
A) ko‘p kitob o‘qi  
B) o‘rtoqlaring bilan tortishma  
**D) chanangni o‘rtoqlaring bilan birga uchma**  
E) chanangni o‘rtoqlaring bilan birga uch
3. Farhod chananing ipidan mahkam ushlab olib, kimni turtib ketdi?  
A) Shavkatni **B) Dildorani**  
D) Bahodirni E) qizlarni
4. Farhod nima uchun Dildorani chanada uchirmadi?  
A) sinib qoladi **B) uzilib ketadi**  
D sovqatgani uchun E) qorbobo yasagani uchun
5. Farhod kimdan uyaldi?  
A) dadasidan **B) bobosidan**  
**D) Bahodir bilan Shavkatdan** E) buvisidan

#### **V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

Savol-javob:

1. Farhod chanani o‘rtoqlari bilan birga uchdimi?
  2. Hikoyani o‘qib qanday xulosaga keldingiz?
- O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

«Chana» hikoyasini ifodali o‘qib, mazmunini so‘zlab berish.

**Mavzu:** «Bosh kitob» (Safar Barnoyev).

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni she'r mazmuni bilan tanishtirish, Konstitutsiya haqida bilim berish, to'g'ri va ravon o'qishga o'rnatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda vatanparvarlik, fidoyilik, jonkuyarlik kabi fazilatlarni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning she'rni ifodali o'qish, mazmunini so'zlab berish malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Yosh huquqshunos» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** Konstitutsiya kitobi rasmlari, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa so'raladi. O'quvchilar «Chana» hikoyasini navbat bilan o'qiydilar, mazmunini so'zlab beradilar.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test sinovi o'tkaziladi.



**Test topshiriqlari:**

1. Kim Farhodga chana olib keldi?

A) dadasi

B) bobosi

D) o'rtog'i

E) buvisi

2. Kim Farhoddan chanada uchirishni so'radi?

A) Malika

**B) Dildora**

D) Shavkat

E) Barno

3. Kim Farhodga chanada galma-gal uchishni taklif qildi?

A) Dildora B) Shavkat

D) Bahodir E) Malika

4. Bahodir Farhoddan nima uchun xafa bo'ldi?

A) yolg'onchiligi uchun B) tartibsizligi uchun

D) ayyorligi uchun E) qizg'anchiqligi uchun

5. Farhod nima uchun bitta o'zi chana uchgisi kelmay qoldi?

A) chanasi sinib qoldi B) qizig'i qolmadi

D) qorong'i tushdi E) qorni ochdi

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzu e'lon qilinadi va doskaga yoziladi: «Bosh kitob». (Safar Barnoyev.)

O'qituvchi she'rni darslikdan ifodali o'qib beradi. O'quvchilar kuzatib, tinglaydilar. She'r mazmuni tushuntiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi haqida ma'lumot beriladi.

She'r matnida uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



#### *Lug'at ishi:*

**ramz** – shartli belgi, ishora

**tug'imiz** – bayroqsimon belgi

**mujassam** – gavdalangan, mukammal va aniq tus, shakl olgan

**fido** – biror kimsa, narsa yoki g'oya uchun o'zini bag'ishlash

Suhbat uchun savollar:

1. Qanday huquqlaringizni bilasiz?

2. Burch deganda nimani tushunasiz?

Harakatli dam olish daqiqasi o'tkaziladi. O'quvchilar birgalikda bajaradilar.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

«Bosh kitob» she'rini o'quvchilar navbat bilan o'qiydilar.

O'quvchilar she'rdagi qofiyadosh so'zlarni topadilar.

O'quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi o'yin o'tkaziladi.



## «Yosh huquqshunos» o‘yini.

Ekranda Konstitutsiya moddalari yozilgan bo‘laklar aralash holda beriladi. O‘quvchilar ularni «Huquqlarimiz» va «Burchlarimiz» kabi turlarga ajratadilar.

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar

Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir

Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi

Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar

## V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.

Darsga yakun yasash maqsadida o‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Bosh kitob – Konstitutsiyamiz haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Huquq va burchlarimizni bilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
3. Qonun-qoidalarni bilmaslik fuqarolarni javobgarlikdan ozod qiladimi?

O‘quvchilar javoblari tinglanadi, umumlashtiriladi va darsga yakun yasaladi.

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadilar.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Bosh kitob» she'rini yod olish.

### 79-DARS

**Mavzu:** «O'zbekiston posbonlari». (Miraziz A'zam)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** she'rni to'g'ri va ifodali o'qishni o'rgatish. O'zbekiston qurolli kuchlari haqida ma'lumot berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda ona Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, kichik guruhlarda ishlash, «Davomini top», «Shakllar so'zlaganda» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Kumush qish» bo'limi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

– Qishda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

– Bolalar qish faslida qanday o'yinlar o'ynaydilar?

– Nima uchun qishni kumushga o'xshatiladi?

O'quvchilar javoblari to'ldirilib, umumlashtiriladi.


Tarqatma materiallar bilan ishlanadi.

**III. Yangi mavzuni tushunturish.**


«Shakllar so'zlaganda» o'yini.

IPT

O'quvchilar shakllarda aralash berilgan harflardan so'zlar tuzadi. «O'zbekiston posbonlari» degan mavzu kelib chiqadi.



– Bugun biz sizlar bilan Miraziz A'zamning «O'zbekiston posbonlari» she'ri bilan tanishamiz. (She'r muallifi haqida ma'lumot beriladi.)

 Multimedia ilovadan foydalanib, she'r mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan she'r matni o'qiladi.

She'rdagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

 **Lug'at ishi:**

**shaxt** – shijoat

**zirhli** – o'q o'tkazmaydigan

**uchoq** – samolyot

She'r matni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

– She'r nima haqida ekan?

– Uch bolaning ahdi nimadan iborat?

– Elbek va Botir nima haqida o'yladilar?

O'quvchilar javoblari tinglanib, to'ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi, kasbga yo'naltiriladi.

**Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

She'r o'quvchilarga «Zanjir» usulida o'qitiladi.

Kichik guruhlarda ishlanadi.

O'quvchilar to'rt kishilik kichik guruhlariga bo'linadilar va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar.

1. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang va daftaringizga yozing: ahd – shahd, sinayman – saqlayman,




## «Davomini top» o'yini.

Mard tuzar, nomard.....




Mardni mehnat.....

Nomardga so'z berguncha, ..... ko'z ber.

Nomard do'stdan ..... dushman yaxshi.



**«Boshqotirma».** O'quvchilar ushbu boshqotirmada rasmlari berilgan kasb egalarini tegishli kataklarga yozadilar va boshqotirmadagi kalit so'zini aniqlaydilar. O'quvchilar boshqotirmani to'g'ri yechsalar, «chegarachi» so'zi hosil bo'ladi.





## V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilar bilan darsda o'rganilganlar yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

1. Bugungi darsimizda nimalarni bilib oldingiz?
  2. Vatanimiz tinchligini qo'riqlash uchun qanday harbiy si-fatlarga ega bo'lish zarur?
  3. Siz ham she'r qahramonlariga o'xshab harbiy bo'lishni orzu qilasizmi?
  4. Orzungiz amalga oshishi uchun nima qilishingiz kerak?
- O'quvchilar javoblari to'ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

O'quvchilar darsdagi faolligiga ko'ra baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

She'rni yod olish uyga vazifa qilib beriladi.

## 82-DARS

**Mavzu:** «Bobonur». (Safar Barnoyev)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** hikoya mazmuni bilan tanishtirish, matn ustida ishlash ko'nikmalarini o'stirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni ona Vatanni sevish, asrashga o'r-gatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyat-larini, lug'at ustida ishlash, ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «6x6», «Ma'nodoshini top» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

O'quvchilarni olti kishilik kichik guruhlariga bo'lish.

## **II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Dunyoni saqlar bolalar» qo'shig'i ifodali o'qitiladi.

She'r asosida «Tarmoqlash» usuli bilan bolalarga ta'rif beriladi.

O'rganilgan mavzular yuzasidan tezkor savol-javob o'tkaziladi.

– «O'zbekiston posbonlari» she'ridagi bolalarning ismlarini ayting?

– Muxbir kim bilan uchrashdi?

– «Dunyoni saqlar bolalar» she'rining muallifi kim?

## **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Bugun biz sizlar bilan Safar Barnoyevning «Bobonur» hikoyasi bilan tanishamiz. (Muallif haqida o'qituvchi tomonidan qisqacha ma'lumot beriladi.)

**IPT** Har bir guruhga olti qismga bo'lingan hikoya matnining bir qismi tarqatiladi. Guruhdagi o'quvchilar matnning qismini o'qib, o'rganib chiqadilar.

### **1-qism.**

Nigina akasidan kelgan xat qatidagi rasmni ko'rib, ko'zlari chaqnab ketdi. Sabriya bibinikiga chopdi.

Sabriya bibi o'zimning Bobonurim-ku! Voy, bibiginang aylansin. Qizim, mana bularga qara, ko'zimga issiq ko'rinyapti.

### **2-qism.**

– Bibijon, Bobonur akam uzoq joyda emas, Samarqandda xizmat qilyaptilar.

Sabriya bibi:

– Bobonurim askar emasmi?

– Askarlar, – tushuntirdi Nigina, – ular Samarqandni qo'riqlaydilar.

– A? – dedi Sabriya bibi, – Samarqandni qo'riqlaydimi?

So'ng:

– Xayriyat-ey, – deb o'yga toldi.

### **3-qism.**

– Qishloq yigitlari birin-ketin bo‘y cho‘zib, harbiyga keta boshladi. Bibi ularning harbiyga jo‘natish marosimiga patir yopardi. Yigitchalar bilan xayr-xo‘shlashar ekan, yopgan patiridan olib chiqib:

– Nevaraginam, mana bu yeridan tishla, eson-omon kelsang, rizqingni o‘zing yersan, – deb patirni ilib qo‘yardi.

### **4-qism.**

Ko‘pchilik kelib o‘z nasibasini olib ketardi.

Bobonur armiyaga ketar kuni ham Sabriya bibi patir tutqazib:

– Mana buni issiqligida tishla, bolam, nasibang doim butun bo‘lsin! – deb uyga kirib ketgan edi...

### **5-qism.**

Bibining kiprigiga yosh qalqidi. Buni ko‘rgan Nigina so‘radi:

– Bibijon, nega yig‘layapsiz?

– Bobonurimning rizqi butun ekan, shunga quvonganimdan yig‘layapman, bolam. Nasib etsa, nevaraginamni o‘zim borib ko‘rib kelaman.

### **6-qism.**

Sabriya bibi rasmni qaytarib berar ekan, qo‘lini ochib duo qildi:

– Iloho, yurtimizga ko‘z tegmasin, mustaqilligimiz mustahkamlanib borsin.

So‘ng guruhdagi o‘quvchilar birdan oltigacha bo‘lgan raqamlar bilan belgilanadi. O‘qituvchi tomonidan bir xil raqamlardan iborat yangi guruh tashkil qilinadi. Yangi tashkil qilingan guruhdagi o‘quvchilar navbat bilan o‘zlari o‘qigan qism mazmunini guruhdagilarga so‘zlab beradilar.

O‘quvchilar hikioya matnini o‘rganib bo‘lganlaridan so‘ng, matn yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– Nigina kimdan xat oldi?

– U xatni kimga olib bordi?

– Nima uchun Sabriya bibining chehrasi yorishdi?

– Bibi qishloq yigitlariga armiyaga jo‘nashlarida qanday tilak bildirar edi?

– Sabriya bibi Bobonurni qanday duo qildi?

Hikoyadagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



**Lug‘at ishi:**

**xat qatida** – xat orasida

**ko‘zimga issiq ko‘rinyapti** – ko‘zimga tanish ko‘rinyapti

**bo‘y cho‘zib** – ulg‘ayib

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**



**«Hamkorlikda qayta hikoyalash» mashqi.**

Har bir guruh navbatma-navbat hikoya mazmunini qayta hikoyalab beradi.



**«Ma‘nodoshini top» o‘yini o‘tkaziladi.**

Har bir guruh berilgan so‘zlarga ma‘nodosh so‘zlar topadilar. Multimedia ilova yordamida guruhlar o‘z javoblarini tekshirib oladilar.

Xat – maktub – noma; uzoq – olis – yiroq; chehra – yuz – aft – jamol – bashara; qo‘riqlaydi – asraydi – saqlaydi; jo‘natish – kuzatish; surat – rasm.



**«Topib o‘qi» mashqi.**

Hikoyadan xat, uzoq, chehra so‘zlari qatnashgan gaplarni topib o‘qiydilar.



**Test topshiriqlari:**

1. «Bobonur» hikoyasining muallifi kim?

- A) Aziza Ahmedova;                      B) Safar Barnoyev;  
D) Muazzam Ibrohimova;              E) Mahmud Murodov;

2. Hikoya qahramonlari yozilgan qatorni belgilang.

- A) Nigina, Sabriya bibi, Bobonur;  
B) Nigina, Saida bibi, Bobonur;  
D) Sabriya bibi, Bobonur;  
E) Nigina, Sabriya bibi;

3. Bobonur qayerda xizmat qilayotgan edi?

- A) Surxondaryoda                      B) Sirdaryoda  
D) Samarqandda                      E) Farg‘onada

4. Sabriya bibi yigitlarni harbiy xizmatga qanday kuza-  
tardi?

A) yigitlarni duo qilib kuzatardi

B) harbiy qismga olib borardi

D) patir yopib, undan yigitlarga tishlatar va duo qilardi

E) yigitlarni duo qilib, harbiy qismgacha olib borardi

5. Nigina Sabriya bibinikiga nima olib bordi?

A) patir

B) kitob

D) onasi pishirgan ovqatni E) akasidan kelgan xatni

#### V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

– «Bobonur» hikoyasi nima haqida ekan?

– Hikoya sizga yoqdimi?

– Hikoyani o'qib, qanday xulosa chiqardingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan guruhlar ballari e'lon qilinib, rag'batlantiriladi. O'quvchilarning guruhdagi faolliklari tahlil qilinib, baholanadi.

#### VI. Uyga vazifa berish.

Hikoyani o'qib, o'rganish, mazmunini qayta hikoyalash uchun tayyorlanish uyga vazifa qilib beriladi.

## 83-DARS

**Mavzu:** «Botir askarcha». (Habib Rahmat)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni Habib Rahmatning «Botir askarcha» she'ri bilan tanishtirish. O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni Ona Vatanni sevish, asrashga o'rgatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ifoda bilan yod olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob metodi, «Maqollar chashmasi, «Bilimdon» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar.

**Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa Safar Barnoyevning «Bobonur» hikoyasi so'rab baholanadi. O'quvchilar «Bobonur» hikoyasini o'qib, mazmunini so'zlab beradilar. Savol-javob o'tkaziladi.

1. Sabriya bibiga Nigina nima olib keldi?

2. Bobonur qayerda xizmat qilardi?

3. Hikoyaning qaysi qismi sizga yoqdi?

O'rganilganlar yuzasidan test topshiriqlari beriladi.

1. «O'zbekiston posbonlari» she'rida bir sinfda nechta bola harbiy bo'lishga ahd qildi?

A) 3 ta bola

B) 2 ta bola

D) 4 ta bola

E) 1 ta bola

2. «Bugun bolasiz, ertaga askar bo'lasiz» matnidan qanday xulosa qilish mumkin?

A) Yurt tinch – sen tinch

B) Ona yurtning – oltin beshiging

D) Bo'ladigan bola boshidan ma'lum

E) Intilganga tole yor

3. «Bobonur» hikoyasini kim yozgan?

A) Kavsar Turdiyeva

B) Anvar Obidjon

D) Abdulla Oripov

E) Safar Barnoyev

4. «Bobonur» hikoyasida Samarqand shahriga kim xizmatga bordi?

A) Bobonur

B) Botir

D) Tohir

E) Sobir


5. Askarga xos bo'lmagan xususiyatlarni ko'rsating.

- A) dovyuraklik va jasurlik
- B) jismoniy sog'lom va baquvvatlik
- D) komillik va barkamollik
- E) qo'rqqoq, dangasa, kuchsiz

**IPT**

### «Bilimdon» o'yini.

Bu o'yinda o'quvchilar berilgan misollarni to'g'ri yechish orqali yangi mavzuni hosil qiladilar.



### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bugun biz sizlar bilan Habib Rahmatning «Botir askarcha» she'ri bilan tanishamiz. Habib Rahmat haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

O'qituvchi she'rni darslikdan ifodali o'qib beradi. She'r mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar ketma-ket she'rni o'qiydi. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradilar.

– Bolajonlar, qanday notanish so'zlarga duch keldingiz?

#### *Lug'at ishi:*

**iftixori** – faxri

**xaloskor** – xalos etuvchi, qutqaruvchi

**qalqon** – ko'ksini tutib himoya qiluvchi

**posbon** – qo'riqchi

Dam olish daqiqasida «Biz askarmiz» qo'shig'i ijro etiladi.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### *Darslik bilan ishlash:*

**IPT**

#### «Ifodali o'qish» musobaqasi.

Musobaqa qatorlararo o'tkaziladi.

O'quvchilarning hammasi she'rni o'qiydi. Musobaqa so'n-gida har bir qatorda nechta o'quvchi ifodali o'qigani e'lon qilinadi va ko'p ifodali o'qigan qator g'olib sanaladi.

## «Maqollar chashmasi» o‘yini.

O‘quvchilar mardlik, dovyuraklik haqida maqollar aytadi va izohlaydilar.

Nomard yovga yalinar,  
Mard kuchiga suyanar.

Yaxshi ko‘rgan do‘stingga  
Yaxshi ko‘rgan molingni ber.

Yigitga mardlik yarashar.

Tilingni botir qilma,  
O‘zingni botir qil.

Yaxshi bola – otaga quvvat,  
Yomon bola – uqubat.

Mard ish ustida bilinar,  
Nomard – osh ustida.

### V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.

Savol-javob:

1. Bugungi darsimizda nimalarni bilib oldingiz?
2. Nima uchun she’rga «Botir askarcha» deb nom berilgan?
3. Ota-bola o‘rtasidagi suhbatdan nimalarni bilib oldingiz?

Darsda ishtirok etgan o‘quvchilar baholari e‘lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

### VI. Uyga vazifa berish.

S. Barnoyevning «Botir askarcha» she’rini ifodali yod olish.

## 84-DARS

**Mavzu:** Biz istiqloq farzandlarimiz. (Rauf Tolib).

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarni «Biz istiqloq farzandlarimiz» she’r mazmuni bilan tanishtirish. Ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni Vatanni sevishtirishga, qadrlashga va ajdodlarimizga munosib farzand bo‘lish ruhida tarbiyalash.



**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, shivirlab o‘qish usuli, «O‘rnini top» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**


Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Yangi mavzuni tushuntirish.**

«Biz istiqlol farzandlarimiz» she’riy matn bilan tanishamiz. (She’r muallifi haqida ma’lumot beriladi.)

 She’r mazmuniga mos videolavha namoyish etiladi. Kadr ortida matn o‘qiladi. O‘quvchilar she’rni ifodali o‘qib beradi. She’r mazmuni va lug‘at ustida ishlanadi.

 **Lug‘at ishi:**

**qaddi** – bo‘y-basti

**biyron** – burro-burro gapiradigan, gapga chechan, so‘zamol, gapdon

**dilbandlarim** – farzandlarim

**nasllari** – avlod davomchilari

Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi. She’r mazmuniga mos musiqali daqiqa o‘tkaziladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash.**

O‘quvchilar she’rni «Shivirlab» o‘qish usulidan foydalanib o‘qiydi.

She’r mazmuni asosida savol-javob o‘tkaziladi:

1. She’r nima haqida ekan?

2. Istiqlol farzandlari haqida so‘zlab bering?

3. She’rda qaysi bobokalonimiz haqida fikr bildirilgan?

 **«O‘rnini top» o‘yini.**

Ijodkor, sadoqat, tabarruk, iste’dod, qadriyat, lafz, odob, loyiq so‘zlari beriladi. Ushbu so‘zlar o‘rnini topib bo‘sh kataklarga joylashtiriladi.



### **Test topshiriqlari:**

1. Yurtimiz istiqloli qachon e'lon qilindi?

- A) 1991-yil 1-sentabr                      B) 1997-yil 1-sentabr  
D) 1991-yil 31-avgust                      E) 1990-yil 31-avgust

2. O'zbekiston bayrog'i qachon qabul qilindi?

- A) 1991-yil 20-noyabr                      B) 1992-yil 18-noyabr  
D) 1991-yil 18-noyabr                      E) 1991-yil 20-noyabr

3. Bayrog'imiz haqida konstitutsiyamizning nechanchi moddasida keltirilgan?

- A) 10-moddasida                              B) 5-moddasida  
D) 3-moddasida                              E) 4-moddasida

4. Konstitutsiyamizning nechanchi moddasida o'zbek tili Davlat tili ekanligi keltirilgan?

- A) 10-moddasida                              B) 5-moddasida  
D) 3-moddasida                              E) 4-moddasida

5. O'zbekiston madhiyasi qachon qabul qilindi?

- A) 1991-yil 1-sentabr;                      B) 1992-yil 10-dekabr  
D) 1991-yil 10-dekabr;                      E) 1994-yil 1-sentabr

### **V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.**

O'quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslikdagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. She'rni o'qib nimalarni bilib oldingiz?
2. Siz she'rdan qanday taassurot oldingiz?

### **VI. Uyga vazifa berish**

Se'rni yod olish va Vatan haqida maqollar yodlab kelish.

## **89-DARS**

**Mavzu:** «Zamonaviy oila». (Muazzam Ibrohimova)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** matn mazmuni bilan tanishtirish, kitobning ahamiyati haqida ma'lumot berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrini oshirish, kitobni qadrlashga, uni sevib o'qishga undash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, matn ustida ishlash, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Sonlar va so‘zlar» mashqi, «Maqollar zanjiri» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** darslik, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimediali ilovalar.

**Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

### **II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**


«Istiqlol» kemasi matni mazmuni so‘raladi. Matn asosida savol-javob o‘tkaziladi.

– «Istiqlol» kemasi qaysi yulduzlarni yaqindan kuzatdi?

– Matndan Abu Rayhon Beruniy haqida nimalarni bilib oldingiz?

### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

Dars mavzusi «Zamonaviy oila» e’lon qilinadi va doskaga yoziladi. Matn muallifi Muazzam Ibrohimova haqida ma’lumot beriladi

 Kutubxona tasvirlangan videolavha namoyish qilinadi, kadr ortida matn o‘qiladi.

– «Qanday oila zamonaviy oila deyiladi?» savoli o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar fikr-mulohazalari tinglanadi. So‘ng hiko-ya ifodali o‘qib beriladi.

Matn mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi. Matn asosida savol-javob o‘tkaziladi.

– Behruzlarning oilasida qanday «xazina» bor ekan?

– Behruzlarning oilasiga nima uchun hamma havas qilar ekan?

O'quvchilarning javoblari to'ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

**Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

Matn o'quvchilarga «Zanjir» usulida o'qitiladi. Matn mazmuni hikoya qildiriladi.

**IPT**

«**Maqollar zanjiri**» o'yini o'tkaziladi. Bu o'yinda o'quvchilar kitob haqidagi maqollardan ketma-ket aytadilar.

– Kitob – aql qayrog'i.

– Kitob ko'rmagan kalla,

Giyoh unmagan dala.

– Kitobsiz aql – qanotsiz qush...

**IPT**

«**Sonlar va so'zlar**» **mashqi** o'tkaziladi.

6-1+1=?

karvon-k+n= narvon talaba-t+g'=g'alaba

bedana-b+s= sedana hayron-r+v=hayvon....

O'rganilganlar yuzasidan test sinovi o'tkaziladi.

**Test topshiriqlari:**

1. «Zamonaviy oila» hikoyasi muallifi kim?

A) Dilfuza Kamoljonova      B) Muazzam Ibrohimova

D) Abdusalom Umarov      E) Safar Barnoyev

2. Kimning oilasini «Zamonaviy oila» deyishadi?

A) Behruzning      B) Doniyorning

D) Botirning      E) Shahruzning

3. Nima uchun Behruzlarning oilasini mahalladagilar hurmat qilishadi?

A) uylarida kutubxonalari borligi uchun

B) farzandlari o'qimishli bo'lgani uchun

D) farzandlari odobli bo'lganligi uchun

E) otasi mehribon bo'lgani uchun

4. Behruzning otasi kim bo'lib ishlaydi?

A) shifokor      B) jurnal muharriri

D) loyihachi-muhandis      E) tarjimon

5. «Kitob o'qimaydigan odamdan rassom chiqmaydi» gapi kimga tegishli?

A) Behruzga

B) Dilshodga

D) otasiga

E) Lolaga

### V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilar bilan darsda o'rganilganlar yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

– Dars sizga yoqdimi?

– Hikoyani o'qib, qanday xulosa chiqardingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

### VI. Uyga vazifa berish.

Hikoyani o'qib, o'rganish, mazmunini qayta hikoyalash uchun tayyorlanish uyga vazifa qilib beriladi.

## 92-DARS

**Mavzu:** Barakalla, bo'tam. (Farhod Musajon)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Barakalla, bo'tam» hikoyasi bilan tanishtirish, to'g'ri, ifodali va ravon o'qishga o'rgatish,

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish, insonparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ongli va ifodali o'qish sifatlarini shakllantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, «Sinkveyn», «Tez top», «Aql charxi» ta'limiy o'yinlari.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

## II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa. «Unutilmas bayram» hikoyasi o‘quvchilardan so‘raladi.



O‘rganilganlar yuzasidan test topshiriqlari beriladi.

1. Hikoyaning muallifi kim?

- A) Erkin Malikov                      B) O‘tkir Hoshimov  
D) Muazzam Ibrohimova          E) Jamila Haydarova

2. U qayerga borib turadi?

- A) Maktabga                              B) bolalar bog‘chasiga  
D) nogiron bolalar uyiga          E) mehribonlik uylariga

3. Yozuvchi bolalarga nima sovg‘a qildi?

- A) shirinlik                                B) o‘yinchoqlar  
D) o‘quv qurollari                      E) kitob

4. Erkin Malikovning «Unutilmas bayram» hikoyasi kimlar haqida yozilgan?

- A) maktab bolalari                      B) o‘quvchilarlar  
D) nogiron bolalar uyi tarbiyalanuvchilari

E) shifokorlar

5. «Bolalar orasida ko‘proq bo‘ling, sizlarning tashrifingiz ular uchun bir shifodir....?» Bu so‘zlar qaysi matndan olingan?

- A) Barakalla, bo‘tam                      B) Unutilmas bayram  
D) Katta baxt                                E) Ikki qiz



O‘quvchilar bilan «**Aql charxi**» mashqi o‘tkaziladi. O‘quvchilar sonlarni ketma-ketlikka mos holda qo‘yib, harflarni to‘g‘ri joylashtiradilar.

3	6	1	4	8	5	2	7	9
r	a	b	a	l	k	a	l	a

10	13	11	14	12
b	a	o‘	m	t

**Javob: Barakalla, bo‘tam.**

- Qanday so‘z birikmasi hosil bo‘ldi?
- «Barakalla, bo‘tam» yangi mavzuning sarlavhasi ekanligi aytiladi.

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bugun biz sizlar bilan «Barakalla, bo‘tam» hikoyasi bilan tanishamiz.

O‘qituvchi hikoyani o‘qib, mazmunini tushuntiradi. O‘quvchilar hikoyani navbat bilan o‘qiydilar. Hikoyada uchragan no-tanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



#### **Lug‘at ishi:**

**devor-darmiyon** – hovli-joylari o‘rtadagi bitta devor bilangina ajralgan, yonma-yon turuvchi qo‘shni

**ranjigan** – xafa bo‘lgan

**niyat** – ko‘ngildagi istak-orzu

Harakatli dam olish daqiqasi o‘tkaziladi. O‘quvchilar birgalikda bajaradilar.

Bog‘imizga ko‘chat ekdik,

Ko‘chatni biz sug‘ordik.

Ko‘chatim o‘sib ketdi,

Bo‘yi osmonga yetdi.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### **Darslik bilan ishlash:**



O‘quvchilarga «Barakalla bo‘tam» hikoyasi «**Zanjir usuli**»da o‘qitiladi. Matn qismlarga bo‘linib, o‘quvchilardan hikoya mazmuni so‘raladi.

So‘ngra Abdulazizning xislatlari «**Sinkveyn metodi**» yordamida ko‘rsatiladi.



**Sinkveyn metodi**». 5 qator ma‘nosini bildirib, bunda o‘quvchilarning ona tilidan olgan bilimlari umumlashtiriladi.

Abdulaziz

Mehnatsevar, haqiqiy

Parvarishlaydi, tagini yumshatadi, sug‘oradi

Sendan haqiqiy bog‘bon chiqadi.

Do‘st

Mashq yakunlangach, o‘quvchilar fikri tinglanib, bilimlar umumlashtiriladi.

Savol-javobdan so‘ng birinchi qism mazmunini so‘zlab berilib, mavzu mustahkamlanadi.

**IPT**

### «Tez top» o‘yini.

– Bolalar, hozir qiziq o‘yin o‘ynaymiz. Men sizlarga topishmoqlar aytaman. Qaysi o‘quvchi topishmoqlar javobini ko‘p topsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

Erta bahor qirmizginam,  
Tog‘ga yoydi qizil gilam. (Lola)

Oyog‘ini yerdan uzmay chiqar tomga,  
Karnaylari tebranadi har maqomga. (Karnaygul)

Yerda asta unadi,  
Ilk bahorda kuladi. (Boychechak)

### V. Darsga yakun yasash va baholash.

Savol-javob:

1. Hikoya nima haqida ekan?
2. Bobo Abdulazizga nima dedi?.

Darsda ishtirok etgan o‘quvchilar baholari e‘lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

### VI. Uyga vazifa berish.

«Barakalla, bo‘tam» hikoyasini ifodali o‘qib, so‘zlab berish.

## 93-DARS

**Mavzu:** «Jigarlarga tilaklarim». (Maqsud Shayxzoda)

### Darsning maqsadi:

**Ta‘limiy:** o‘quvchilarni «Jigarlarga tilaklarim» hikoyasi bilan tanishtirish, she‘r mazmunini tahlil qilish, xulosa chiqarish, to‘g‘ri, ifodali va ravon o‘qishga o‘rgatish,

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni bilim olishga yo‘llash orqali Vatanga munosib farzand bo‘lishni tushuntirishga erishish, ilmga to‘g‘ri munosabatni tarkib toptirish, tarbiyali, vijdonli bo‘lishga o‘rgatish.



**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Munozara» metodlari, «Topib o'qi», «Tez top» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rgazma va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.



### II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'qituvchi uy vazifasini so'raydi va baholaydi. O'tgan darsda o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Gulzorda» didaktik o'yini o'ynaladi. Bu o'yin orqali o'quvchilar gullarning nomi va foydali xususiyatlarini topishadi.



O'quvchilar bilan «**Aql charxi**» mashqi o'tkaziladi. O'quvchilar sonlarni ketma-ketlikka mos holda qo'yib, bo'g'inlarni to'g'ri joylashtiradilar.

**Javob: Jigarlarga tilaklarim.**



– Qanday so'zlar hosil bo'ldi?

– Jigarlarga tilaklarim.

O'quvchilarning javoblari tinglanib, yangi dars mavzusi e'lon qilinadi.

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bugun biz sizlar bilan «Jigarlarga tilaklarim» she’ri bilan tanishamiz

Ularga she’r muallifi haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



O‘quvchilarga she’r mazmuni videolavha orqali taqdim etiladi. Kadr ortidan she’r matni o‘qiladi. She’r mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar she’rni navbat bilan o‘qiydilar. She’rda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



**Lug‘at ishi:**

**o‘smirlik** – balog‘at yoshi

**esh** – o‘rtoq, sherik

**beg‘araz** – yomonlikni istamaydigan

Harakatli dam olish daqiqasi o‘tkaziladi. O‘quvchilar birgalikda bajaradilar.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### Darslik bilan ishlash:

O‘quvchilarga «Jigarlarga tilaklarim» she’rini «ifodali qilib o‘qitiladi. O‘quvchilar bilan savol-javob orqali mavzu mustahkamlanadi.



**«Bilag‘on» o‘yini.**

– Bolalar, hozir qiziq o‘yin o‘ynaymiz. Men sizlarga topishmoqlar aytaman. Qaysi o‘quvchi topishmoqlar javobini ko‘p topsa, o‘sha o‘quvchi baholanadi.

Ilmga kon,  
Mazmunga makon,  
So‘zi serhikmat,  
Bizga do‘st-ulfat,  
O‘rgatar odob,  
Bu nima, Ozod?

(Kitob)

Bir uy bor:  
Ko‘r bo‘lib kirasan,  
Ko‘zli bo‘lib chiqasan.

(Maktab)

Qo‘l bilan ekiladi,  
Ko‘z bilan teriladi,  
Og‘iz bilan o‘riladi.

(Daftar, yozuv)

Sandiq to‘la pista-bodom,  
Ochib ko‘r, bo‘lsang odam.  
Xosiyati ko‘p, olam-olam,  
Terib ol uni har dam.

(Kitob)

Rangi har xil,  
Nomi bir xil.  
(Rangli qalam)

Tili po‘lat shovvoz,  
So‘zlay olmas beqog‘oz.  
(Ruchka)

## V. Darsga yakun yasash va baholash.

Savol-javob:

1. She‘r nima haqida ekan?
2. Bugungi dars sizga yoqdimi?

Darsda ishtirok etgan o‘quvchilar baholari e‘lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Jigarlarga tilaklarim» she‘rini ifodali o‘qib, so‘zlab berish.

# 97-DARS

**Mavzu:** «Ibn Sinoning shogirdlari» (Rivoyat).

**Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** o‘quvchilarni rivoyat mazmuni bilan tanishtirish, ongli va ravon o‘qishga o‘rgatish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda buyuk ajdodlarimizga nisbatan hurmat, ustozlarga nisbatan e‘tibor tuyg‘ularini rivojlantirish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ifodali o‘qish, test yechish, topshiriq asosida matndan gaplarni topib o‘qish malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «Chalkash gaplar» ta‘limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

O‘quvchining odob-axloq qoidalari haqida suhbat o‘tkazish.

## II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilar «Zehni o‘tkir bola» ertagining II va III qismini navbat bilan ifodali o‘qib beradilar. Mazmunini so‘zlaydilar.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Chalkash gaplar» mashqi o‘tkaziladi.



### «Chalkash gaplar» mashqi.

Ekran orqali so‘zlarning o‘rinlari almashgan holda gaplar beriladi. O‘quvchilar so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni o‘qishlari lozim bo‘ladi.

kuni, kitob, bir, Abu, o‘tirgan, Nasr, mutolaa, xonasida, qilib, ekan.

Bir kuni Abu Nasr xonasida kitob mutolaa qilib o‘tirgan ekan.

sendan, ketarmidim, olib, haq, boyib.

Sendan haq olib boyib ketarmidim.

xursand, uyiga, uchun, qilish, yugurdi, onasini.

Onasini xursand qilish uchun uyiga yugurdi.

Bu mashqni musobaqa tarzida ham o‘tkazish mumkin.

## III. Yangi mavzuni tushuntirish.

O‘quvchilarga Abu Ali ibn Sino bobomiz haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Yangi mavzuning sarlavhasi e’lon qilinadi: «Ibn Sinoning shogirdlari». Rivoyat.

«Ibn Sinoning shogirdlari» rivoyati mazmuniga mos animatsiyali lavhalar ko‘rsatiladi. Kadr ortidan rivoyat matni o‘qib eshittiriladi.

Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



### *Lug‘at ishi:*

**ziyosat** – tabarruk joylarga safar qilish, hurmatli kishilar huzuriga tashrif buyurish

**da’vat** – chaqirish, undash, tashviqot

**parhez** – sog‘liqqa to‘g‘ri kelmaydigan ovqatlardan o‘zini tiyish

**me’yor** – biror narsa, ishning miqdor, daraja jihatdan talabdagi belgili o‘lchami

**mizoj** – kishining o‘ziga xos tabiati, xulq-atvori; kishi organizmining o‘ziga xos talabi

Suhbat uchun savollar:

1. Ibn Sino shogirdlariga nimalar haqida so‘zladi?
2. Ibn Sino qoldirgan tabiblarni matndan toping va o‘qib bering?

3. Rivoyat sizda qanday taassurot qoldirdi?

O‘qituvchi rivoyatni darslikdan ifodali o‘qib beradi. O‘quvchilar kuzatib, tinglaydilar.

Harakatli dam olish daqiqasi o‘tkaziladi. O‘quvchilar birgalikda bajaradilar.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

«Ibn Sinoning shogirdlari» rivoyatini o‘quvchilar navbat bilan o‘qiydilar.



#### ***Test topshiriqlari:***

1. Kim qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib oldi?

- A) Ibn Sino   B) shogirdlari  
D) do‘st-birodarlari   E) otalari

2. Shogirdlari ustozlarini nimalar bilan davolashga kirishibdilar?

- A) Tansiq ovqatlar bilan  
B) dori-darmonlar bilan  
D) mevalar bilan  
E) sabzavotlar bilan

3. Ibn Sino o‘rniga nechta zo‘r tabibni qoldirib ketayotganini aytdi?

- A) 3 ta   B) 4 ta  
D) 5 ta   E) 6 ta

4. Ibn Sino qoldirib ketayotgan birinchi tabibni aniqlang.

- A) tozalik   B) halollik  
D) to‘g‘rilik   E) mardlik

5. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni toping: «Doimo ..., ... bo‘lishni unutmang».

- A) rostgo‘y, adolatli   B) go‘zal, chiroyli  
D) odobli, axloqli   E) pokiza, ozoda

Test natijasi tahlil qilinadi.

## V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Inson sog'lom bo'lish uchun nimalarga e'tibor berishi lozim?

2. Siz gigiyena qoidalari va kun tartibiga rioya qilasizmi?

O'quvchilarning javoblari tinglanadi, umumlashtiriladi va xulosa yasaladi.

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Ibn Sinoning shogirdlari» rivoyatini ifodali o'qish, mazmunini og'zaki hikoya qilish.

## 101-DARS

**Mavzu:** «Sohibqiron Temur bobo». (Hikoyat)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Sohibqiron Temur bobo» hikoyasi bilan tanishtirish, ravon va ifodali o'qishga, matn ustida ishlashga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, buyuk ajdodlarimizdan o'rnak olish, ularning o'gitlarini qadrlashni o'rgatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog'lanishli nutqini o'stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, suhbat, «Blis-o'yin», «Rasmlı rebus» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimediali ilovalar.

**Darsning borishi:**

### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – Bo‘riboy Ahmedovning «Elim deb, yurtim deb yashagan inson» hikoyasini so‘rab baholash. Savol-javob o‘tkazish:

1. Nima uchun el-yurt yukini Temurbek o‘z yelkasiga oldi?
2. Amir Temur kimlarga qarshi kurash boshladi?
3. Amir Temurning ko‘rinishini og‘zaki tasvirlang, tasvirlashda

kitobdagi rasmdan foydalaning.



### **Test topshiriqlari:**

1. Sohibqiron bobomiz qachon tavallud topgan?  
A) 1335-yilning 8-aprelida  
B) 1336-yilning 9-aprelida  
D) 1330-yilning 9-mayida  
E) 1337-yilning 5-martida
2. Temurbek bilim olishni necha yoshidan boshladi?  
A) olti yoshidan      B) besh yoshidan  
D) yetti yoshidan      E) sakkiz yoshidan
3. Nechanchi yilda mo‘g‘ullar mamlakatni bosib oldi?  
A) 1350-yilda      B) 1370-yilda  
D) 1360-yilda      E) 1458-yilda
4. Mo‘g‘ullarga qarshi kurash necha yil dabom etdi?  
A) besh yil      B) sakkiz yil  
D) o‘n bir yil      E) o‘n yil
5. Temurbek mo‘g‘ullar bilan qarshi kurashda necha kun asirlikda zindonda yotdi?  
A) 62 kun      B) 69 kun  
D) 40 kun      E) 66 kun

### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Bugun biz sizlar bilan «Sohibqiron Temur bobo» hikoyati bilan tanishamiz



Ekkranda «Sohibqiron Temur bobo» surati namoyish etilib, matndagi gaplar ketma-ket beriladi. O‘quvchilar ekrandagi matnni ichda o‘qiydilar. O‘qituvchi tomonidan hikoya mazmuni tushuntiriladi.

– Bolajonlar, qanday notanish so‘zlarga duch keldingiz?



### *Lugʻat ishi:*

**joʻshib** – qattiq toʻlqinlanmoq, mavj urmoq  
**qalandar** – dunyo tashvishlaridan kechgan, darvesh  
**tayin qildi** – aniqladi, tayinladi, belgiladi  
**padari buzrukvori** – otasi  
**zulm** – jabr-sitam, adolatsizlik, shafqatsizlik  
**aytqonlarini** – aytganlarini  
**bosh ustida** – bajonidil, jon-u dil bilan.



### **Dam olish daqiqasi oʻtkaziladi. «Tez top» oʻyini.**

1. Soqoli bor uy hayvoni? (Echki)
2. Mehnatning tagi ...? (Rohat)
3. Eng aziz neʼmat? (Non)
4. Vafodor uy hayvoni? (It)
5. Hamma yomonlikning boshi – ... va qoʻrqoqlik (dangasalik).
6. ... – yaxshilikka yetaklar? (Ertaklar)

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

#### *Darslik bilan ishlash:*

«Sohibqiron Temur bobo» hikoyasini oʻquvchilar ichida oʻqiydilar.

Darslikdagi savol-javob va topshiriqlar ustida ishlanadi.

1. Temurbekning qalandar bilan uchrashuv voqeasini soʻzlang.
2. Qalandar Temurbekka nimani tayinladi?
3. Kamol Xoʻjandiy ruboiyda nima deb yozgan ekan?
4. Padari buzrukvori Temurbekka nima dedi?
5. Oʻqituvchi yordamida matn rejasini tuzing. Reja asosida matn mazmunini qayta hikoya qiling.



#### **«Rasmi rebus» oʻyini.**

Ushbu rebusda (traktor, egov, muzqaymoq, uzum, randa) rasmlari bir qatorga, ikkinchi qatorga (behi, olma, baqla-jon, olmaxon) rasmlari terilib, tagiga soʻzlar yozish uchun katakchalar qoʻyiladi. Kataklardagi bosh harflarni qoʻshib oʻqisa Temur bobo soʻzi hosil boʻladi.



O‘quvchining ismi, familiyasi			Sinf: «3» Mavzu: «Sohibqiron Temur bobo»	
T/r	Savollar mazmuni	O‘quvchilar javobi	To‘g‘ri javob	Javoblar mazmuni
1	Amir Tarag‘ay Bahodir o‘g‘lini qayerga jo‘natdi?			Uning qo‘lida she‘r bitilgan qog‘oz bor edi.
2	U qo‘ylarning hammasini sotib nima qilib yurardi?			– Shu yozuvning qadriga yetib, kim ming oltinga olsa,dunyoning oxiriga yetadi.
3	Kim odamlarga so‘zlab turgan ekan?			Amir Tarag‘ay Bahodir ko‘p qo‘ylarni o‘g‘li Temurbekka berib, Samarqand bozoriga jo‘natdi.
4	Qalandarning qo‘lida nima bor edi?			Temurbekning himmati jo‘shib, ming oltinni qalandarga tutqazdi.
5	Temurbek ming oltinni kimga tutqazdi?			Xushovoz bir qalandar odamlarga so‘zlab turgan ekan.
6	She‘r bitilgan qog‘ozda nima deb yozilgan edi?			U qo‘ylarning hammasini ming oltinga sotib, pullarni beliga bog‘lab, sayr qilib yurar edi.

## V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

Savol-javob:

1. Hikoyat sizga yoqdimi?

Temurbekning o'rnida bo'lganingizda siz ham shunday qilar-midingiz?

O'quvchilar javoblari tinglanib, dars xulosalanadi.

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadilar.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Sohibqiron Temur bobo» hikoyasini ifodali o'qib, so'zlab berish.

## 107-DARS

**Mavzu:** «Minora». (Safar Barnoyev)

### Darsning maqsadi:

**Ta'limiy:** she'r mazmuni bilan tanishtirish, ravon, ifodali o'qish ko'nikmalarini o'stirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga tarixiy obidalarimizga hurmat, ularni asrab-avaylash hislarini singdirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** «Tarmoqlash», kichik guruhlarda ishlash, «Mozaika» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** yurtimizdagi tarixiy obidalar rasmlari, tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Sayilda» matni «Zanjir» usulida ifodali o'qitiladi. Matn mazmunini 5–6 o'quvchiga navbat bilan hikoya qildiriladi. Matn asosida savol-javob o'tkaziladi.

– Zahiriddinning sayilda qatnashishdan maqsadi nima edi?  
– Zahiriddin Muhammadning navkar bilan olishuvi haqida nimalarni bilib oldingiz?

– Zahiriddinga xos sifatlarni sanab bering.


### **III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

– Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan Safar Barnoyevning «Minora» she’ri bilan tanishamiz.

– Muallifning qaysi asarlari bilan tanishdik?

– Safar Barnoyev haqida nimalarni bilasiz?

O‘quvchilar javoblari tinglanib, muallif haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

 «Minora» she’ri mazmuniga mos videolavha namoyish etiladi, kadr ortidan she’r matni o‘qib beriladi.

She’rdagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

 **Lug‘at ishi:**

**qoq o‘rtasi** – markazi

**ulkan** – katta, hashamatli

**diqqatingni** – e’tiboringni

She’r yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

– She’r nima haqida ekan?

– Minora qayerda joylashgan ekan?

– Minoraning ko‘rinishi qanday tasvirlangan?

– Minoraning balandligini shoir qanday tasvirlagan?

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

«Ifodali o‘qish» musobaqasi o‘tkaziladi. O‘quvchilar she’rni navbat bilan «Davom ettir» usulida o‘qiydilar.

 **«Topib o‘qi o‘yini.**

– Minoraning balandligi ifodalangan satrlarni topib o‘qing.

– Minoraning bezaklari ifodalangan satrlarni topib o‘qing.

– Minora joylashgan joy tasvirlangan satrlarni topib o‘qing.

O‘quvchilar to‘rt kishilik kichik guruhlariga bo‘linadilar. Har bir guruhga bittadan konvert beriladi.

«*Mozaika*» *mashqi*.

Har bir guruh konvertdagi rasm bo‘laklarini yig‘ib, qaysi yodgorlik rasmi ekanligini aytadilar.

Guruhlar faoliyati rag‘batlantiriladi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test sinovi o‘tkaziladi.



**Test topshiriqlari:**

1. «Minora» she‘rining muallifi kim?

- A) Aziza Ahmedova                      B) Safar Barnoyev  
D) Maqsud Shayxzoda                  E) Mahmud Murodov

2. Minora qayerda joylashgan ekan?

- A) Buxoroda                                B) Samarqandda  
D) Xivada                                    E) Xorazmda

3. *Qaramoqchi bo‘lsang unga-*

*Do‘pping tushar boshingdan,* – satrlari orqali minora-ning qaysi sifatiga ta‘rif berilgan?

- A) chiroyliligiga                          B) qadimiyligiga  
D) balandligiga                          E) naqshlariga

4. She‘rdagi Gulnora va minora so‘zlari qanday so‘zlar?

- A) o‘zaro ma‘nodosh so‘zlar  
B) qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar  
D) qofiyadosh so‘zlar  
E) o‘zaro zid ma‘noli so‘zlar

5. Buxorodagi bu minora kim tomonidan bunyod qilingan?

- A) Ahmad Yassaviy                      B) Mirzo Ulug‘bek  
D) Zahiriddin Muhammad Bobur    E) Amir Temur

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

- Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
- Darsimiz orqali nimalarni bilib oldingiz?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

She'rni ifodali o'qish, minora haqida ma'lumotlar topib kelish uyga vazifa qilib beriladi.

### 113-DARS

**Mavzu:** «Tabiat bilan suhbat». (Rivoyat)

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Tabiat bilan suhbat» rivoyati bilan tanishtirish, ularda to'g'ri, tez, ifodali va ravon o'qish malakalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda ona tabiatimizga nisbatan mehr hissini tarbiyalash, tabiatni qadrlashga, uni asrab-avaylashga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarni mustaqil ishlash, matni qayta hikoya qilish, savollarga to'liq javob berish, lug'at ustida ishlash, erkin fikrlash malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Zumradoyga yordam», «Tez javob» ta'limiy o'yinlari.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

### II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa «Bahor yaqin» she'rini so'rab baholanadi.

O'tilgan mavzu savol-javob orqali mustahkamlanadi.

1. Bahor yaqinlashib kelayotganida tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi?


2. Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi?

3. Bahor fasli sizga yo'qadimi? Nima uchun?

IPT

O'quvchilar bilan «Zumradoyga yordam» didaktik o'yini o'tkaziladi. Bu o'yinda o'quvchilar oval shakliga yozil-

gan misollarni yechib, yulduzchalardagi to‘g‘ri javobni oladilar. Javoblarni orqasida berilgan bo‘g‘inlarni doskaga sonlarni o‘sib borish tartibida osadilar. Hamma bo‘g‘inlar osilgandan so‘ng yangi «Tabiat haqida suhbat» mavzusi kelib chiqadi.



Yangi mavzu e‘lon qilinadi: «Tabiat bilan suhbat» rivoyati.


### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan «Tabiat bilan suhbat» rivoyati bilan tanishamiz.

– Rivoyat haqida nima bilasiz?

– Darslikdan qaysi rivoyatlarni o‘qiganmiz?

O‘quvchilar javoblari tinglanib, rivoyat haqida qisqacha ma‘lumot beriladi.

 O‘quvchilarga rivoyat mazmuniga mos animatsiyali lavhalar ko‘rsatiladi. Kadr ortidan rivoyat matni o‘qib eshitiriladi.

Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi

 **Lug‘at ishi:**  
**zamin** – yer

**haroratim** – issiqligim


**bardosh** – chidash

**jilovlash** – bo‘ysundirish

*Harakatli dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.* O‘quvchilar birgalikda bajaradilar.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### Darslik bilan ishlash:

 O‘quvchilarga «Tabiat bilan suhbat» rivoyati «Zanjir» usulida, rollarga bo‘lib o‘qitiladi.



Soʻngra «**Tez javob**» oʻyini orqali rebus yechib, rivoyatdagi qahramonlar aniqlanadi.



~~q~~

SH



~~axt~~

YO

B



Javobi: **Quyosh, daryo, boʻron.**

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

1. Rivoyat nima haqida ekan?
2. Doʻstlik qanday kuchga ega ekan?

Darsda ishtirok etgan oʻquvchilar baholari eʼlon qilinadi.

Faol ishtirok etgan oʻquvchilar namuna qilib koʻrsatiladi.

**VI. Uyga vazifa berish.**

«Tabiat bilan suhbat» rivoyatini ifodali oʻqib, soʻzlab berish, rivoyat asosida rasm chizib kelish.

## 118-DARS

**Mavzu:** «Bayramingiz muborak». (Yusuf Shomansur)

**Darsning maqsadi:**

**Taʼlimiy:** sheʼr mazmuni bilan tanishtirish, onalar bayrami haqida maʼlumot berish.

**Tarbiyaviy:** ota-onaga hurmat, ularga mehribon, yaxshi farzand boʻlish hislarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** oʻquvchilarning dars davomida olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish, boshqalarga oʻrnak boʻlish kabi sifatlarni rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «Tarmoqlash», guruhlarda ishlash.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, koʻrsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish

Davomatni aniqlash  
O'quvchilarni darsga hozirlash.  
O'quvchilarni guruhlarga bo'lish.

## **II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Boychechak» she'ri yoddan so'raladi. She'r asosida savol-javob o'tkaziladi.

– Boychechak qanday gul ekan?  
– U qayerda o'sadi?

Guruhlar navbat bilan gullar haqida topishmoqlar aytadilar.


– Yerdan asta unadi,  
Ilk bahorda kuladi. (boychechak)

– Mittigina qirmizginam,  
Qirga yoydi qirmiz gilam (lolaqizg'aldoq)

## **III. Yangi mavzuni tushunturish.**

O'quvchilar bilan bahor bayramlari haqida suhbat o'tkaziladi.  
Dars mavzusi e'lon qilinadi: «Bayramingiz muborak».

Yusuf Shomansur hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

 She'r mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi va kadr ortidan she'r o'qiladi.

She'r mazmuni o'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

Guruhlar she'rni «Ichda o'qish» usulida o'qiydilar va notanish so'zlarni belgilaydilar.

She'rdagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

 **Lug'at ishi:**

**bol** – asal

**mardona** – shijoatli

**oqlamoq** – munosib bo'lmoq

**Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.**

## **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

«Ifodali o'qish» musobaqasi o'tkaziladi.


**Mustaqil ish** bajariladi.

She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlab, daftarlariga yozadilar.  
Durdona – mardona – yagona – ona, to'ydirgan-kuldirgan – qo'ydirgan, ardoqlang – oqlang.



– Bolalar, onamiz dunyodagi eng buyuk zotdir, onamiz qu-yoshimiz, oyimizdir, biz uchun eng mo‘tabar bo‘lgan aziz in-sondir. Qani kim aytadi, onani rozi qilish deganda nimani tu-shunasiz?

**IPT** Guruhlar javoblarini «**Tarmoqlash**» usulida bayon qiladi.



Guruhlar onalar haqida kichik sahna ko‘rinishi tayyorlab namoyish qiladilar.

Guruhlar onalar uchun guldasta tayyorlaydilar.

**Multimedia** ilovadan foydalanib, boshqotirmanini yechadilar va kalit so‘zini aniqlaydilar.

				1	m	a	r	t	
2	b	o	y	ch	e	ch	a	k	
				3	h	a	l	i	m
	4	v	a	r	r	a	k		
5	q	a	l	d	i	r	g‘	o	ch
				6	b	a	h	o	r
			7	b	o	d	o	m	
			8	n	i	h	o	l	

1. Bahorning birinchi oyi
2. Bahorning ilk guli
3. Navro‘z taomi
4. Uni bolalar bahorda osmonga uchiradilar
5. Bahorda birinchi uchib keladigan qush nomi
6. Fasllar kelinchagi
7. Bahorda birinchi bo‘lib gullaydigan daraxt
8. Yosh ko‘chat

O‘rganilganlar yuzasidan test sinovi o‘tkaziladi.



### **Test topshiriqlari:**

1. «Bayramingiz muborak» she'ring muallifini aniqlang.  
A) G'ayratiy                      B) Yusuf Shomansur  
D) Safar Barnoyev      E) Rauf Tolib
2. «Yagona» so'zining ma'nodoshini belgilang.  
A) tanho                      B) yolg'iz  
D) durdona                      E) zebo
3. She'rda kim ulug'langan?  
A) ona                      B) ota  
D) farzand                      E) bobo
4. Mehr so'ziga qarama-qarshi ma'noli so'zni aniqlang.  
A) muhabbat                      B) mehribon  
D) qahr                      E) yolg'on
5. Onajonlar bayrami qachon nishonlanadi?  
A) 10-mayda                      B) 21-martda  
D) 1-martda                      E) 8-martda

### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Darsda o'rganilgan bilimlar yuzasidan umumlashtiruvchi savol-javob o'tkazilib, dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan guruhlar ballari e'lon qilinib, rag'batlantiriladi. O'quvchilarning guruhdagi faolliklari tahlil qilinib, baholanadi.

### **VI. Uyga vazifa berish.**

She'rni yod olish uyga vazifa qilib beriladi.

## **119-DARS**

**Mavzu:** «Varrak» (Yo'ldosh Shamsharov).

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga matn mazmuni haqida ma'lumot berish. Ifodali va tez o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni do'stona munosabat, milliy qadriyatlarimizni asrash va tabiatni sevishga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, tushuntirish, «Quvnoq shakllar» ta’limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Quyuncha» hikoyasini o‘quvchilar so‘zlab beradi va savollarga javob beradi.

**Savollar:**

1. Bektosh bilan Hoshim qayerga borayotgan edilar?

2. Yo‘lda qanday voqea sodir bo‘ldi?

3. Bobosi quyunchani ko‘rib nima dedi?

4. Bolalar bobosining gapidan so‘ng qanday yo‘l tutishdi?

5. Siz bolalarning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?

**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

Bugun biz sizlar bilan Yo‘ldosh Shamsharovning «**Varrak**» hikoyasi bilan tanishamiz. (Hikoya muallifi haqida ma’lumot beriladi)

O‘qituvchi hikoyani o‘qib beradi va mazmunini tushuntiradi. O‘quvchilar ketma-ket matnni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuza-tib boradilar. Matn mazmuni ustida ishlanadi. Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.



**Lug‘at ishi:**

**xo‘rlik** – izzat-nafsi poymol bo‘lish, tahqirlanish

**savacho‘p** – savag‘ich

**sirachlab** – sirach surtmoq, sirach surtib yopishtirmoq

**ichikuymoq** – xafa bo‘lmoq, achinib kuymoq

**ko‘rik-tanlov** – tadbir

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:** «Varrak» hikoyasini o‘quvchilar rollar-ga bo‘lib o‘qiydi, so‘zlab beradi va savol-javob o‘tkaziladi.

1. Varrakning nimalardan yasalganini gapirib bering.
2. Nima uchun bolalar Rashidga ergashdilar?
3. Daroz bolaga qanday baho berasiz?
4. Rashid nimadan quvondi?

Darslikda berilgan topishmoq ustida ishlanadi.



### «Quvnoq shakllar» o'yini.

Geometrik shakllarda soʻzlar beriladi. Oʻquvchilar soʻzlarini tartib bilan joylashtirib, matn tarkibidagi gaplarni hosil qilish orqali varrak yasaladi. Varrakda quyidagi gaplar hosil boʻladi.

1. Adirlar bolalar bilan gavjum boʻlib ketadi.
2. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.
3. Uning varragi tanlovda birinchi oʻringa loyiq topildi.



### Test topshiriqlari:

1. Varrak nimadan yasalgan?
 

A) Qogʻozdan	B) Kartondan
D) Savachoʻpdan	E) Qamishdan
2. Yurtimizda «Varrak bayrami» qachon nishonlanadi?
 

A) 21-mart	B) bahorda
D) 26-mart	E) Kuzda
3. Rashidga kim varrak yasab berdi?
 

A) oyisi	B) oʻrtogʻi
D) akasi	E) opasi
4. Rashidga kim «pul olib chiq» dedi?
 

A) Sobir	B) akasi
D) Daroz	E) oyisi
5. Rashid tanlovda nechanchi oʻrinni oldi?
 

A) birinchi	B) ikkinchi
D) uchinchi	E) oʻrin olmadi

### V. Darsga yakun yasash va oʻquvchilarni baholash.

Oʻquvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida savollar bilan murojaat qilinadi:

1. «Varrak» hikoyasi sizga yoqdimi?
2. Siz ham varrak uchirganmisiz?

Oʻqituvchi mavzuni xulosalab, faol ishtirok etgan oʻquvchilarni baholaydi va ragʻbatlantiradi.

## V. Uyga vazifa berish.

«Varrak» hikoyasini ifodali o‘qib, hikoyaning mazmuniga mos rasm chizish. Chizgan rasmni og‘zaki tasvirlab berish.

### 121-DARS

**Mavzu:** «Navro‘z – bahor bayrami» (Muzayyana Alaviya).

«Yurtim kamoli» (Rauf Tolib).

#### **Maqsad:**

**Ta’limiy:** O‘quvchilarga «Navro‘z – bahor bayrami» matni, «Yurtim kamoli» she’ri haqida ma’lumot berish, ravon, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini o‘stirish.

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarda milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini singdirish, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodi:** savol-javob, aqliy hujum, «Kim topog‘on», «Qofiyadoshini top», «Quvnoq daqiqalar», ta’limiy o‘yinlari.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

#### **Darsning borishi:**

##### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

##### **II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Qaldirg‘och» she’rini so‘rab baholash..

Savol-javob o‘tkazish:

1. She’rda qaldirg‘och haqida nima deyilgan?
2. Birinchi, ikkinchi to‘rtlikda Qaldirg‘och haqida nima deyilgan?
3. Oxirgi bandning mazmunini izohlang.



### «Kim topog'on» o'yini

Ertakka qaraganda,  
 Ilon tilini o'qigan.  
 «Qaychidum», jajji qanot,  
 «Val-fajir»ni o'qigan. (qaldirg'och)

Kasbi doim taqir-tuqur,  
 Qayda ilon ko'rsa cho'qir (laylak).

Liking-liking yo'rg'asi,  
 Og'zida baxmal to'rvasi. (kaklik)

Atlas ko'ylak qanoti,  
 Xush xabarchi odati. (zag'izg'on)

Oq-qora, ola, chipor,  
 Qo'ng'ir, kulrangi ham bor  
 Charx uradi osmonda,  
 Bizning tinchlik zamonda. (kabutar)

Bahor sep yozgan mahal  
 Uchib kelar jajji qush.  
 «Chit-chit» etib bog'ma-bog',  
 Dillarni u etar xush. (chittak)

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bugun biz Muzayyana Alaviyaning «Navro'z – bahor bayrami» matni, Rauf Tolibning «Yurtim kamoli» she'ri bilan tanishamiz. (Mualliflar haqida ma'lumot beradi.)



O'quvchilarga matn va she'r mazmuniga mos videolavhalar namoyish etilib, kadr ortidan matn o'qiladi.

Matn va she'r mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar ketma-ket matnni va she'rni o'qiydilar. Matn va she'rda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



#### *Lug'at ishi:*

**udum** – amal qilinadigan tartib, odat, rasm

**jizza** – o'z yog'ida qovurilgan to'g'ramcha dumba, charvi

**lochiralar** – oshirilmagan (xamirturushsiz) xamirdan yupqa qilib yoyib, tandirda singga qilib pishirilgan non

**esonlig-u omonlik** – sog'-salomat, sog'-omon

**iqboli** – porloq kelajagi, baxti, omadi

**timsoli** – misoli

**kamoli** – har jihatdan to‘kislik, mukammallik, yetuklik

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

**IPT**

**«Quvnoq daqiqalar» o‘yini**

1. Gulsiz bo‘lar mevasi, shirin-shakar donasi (anjir).
2. Qaysi joyda osmon pastda bo‘ladi? (suvda).
3. Yuzimni son bilan ifodalang-chi? (100)
4. O‘simliklar ustini namlaydigan yog‘in (shudring).
5. Eng yirik qush. (tuyaqush).
6. Nima kishini ulug‘laydi? (mehnat)

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:** O‘quvchilar «Navro‘z – bahor bayrami» matnini va «Yurtim kamoli» she‘rini navbatma-navbat o‘qiydilar. Matn mazmunini hikoya qilib beradi.

**IPT**

**Aqliy hujum.**

1. Navro‘z qanday bayram?
2. Navro‘z qachon nishonlanadi?
3. Qanday Navro‘z taomlarini bilasiz?
4. Diyoringiz qaysi daryo oralig‘ida joylashgan?
5. Yurtimizda Navro‘z bayrami qanday nishonlanadi?
6. Qariyalar qanday tilak bildiradi?
7. Navro‘zda qanday o‘yinlar o‘ynaladi?
8. Navro‘z bayrami udumlarimiz, an‘analarimizdan nimalarni bilasiz?

She‘r mazmuni ustida ishlanadi

**IPT**

**«Qofiyadoshini top» o‘yini.**

elimga – tilimga, an‘ana – tantana, misoli – timsoli, iqbolli – kamoli.

**Test topshiriqlari:**

1. Qadimda bahor faslida dehqonchilik ishlari qachondan boshlangan?  
A) birinchi martdan;  
B) yigirma ikkinchi martdan;  
D) yigirma birinchi martdan;  
E) to‘qqizinchi apreldan;

2. Navro‘z nima deb atalgan?

A) yilning teng kuni                      B) Yil yakuni

D) yilning qisqa kuni                    E) Yangi kun

3. «Yurtim kamoli» she‘rining muallifi kim?

A) O‘tkir Hoshimov                      B) Muzayyana Alaviya

D) Malik Murodov                      E) Rauf Tolib

4. Dehqonlar Navro‘zda dalada nima qiladilar?

A) yer haydaydilar

B) paxta teradilar

D) mevalarni teradilar

E) sabzavotlarni yug‘shirib oladilar

5. Navro‘z kuni yoshlar yalpiz, binafshalar olib kimni ko‘rgani boradi?

A) o‘qituvchisini                      B) keksalarni

D) do‘stlarini                      E) akasini

## V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.

Savol-javob:

1. Navro‘z bayrami haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Siz Navro‘z bayramini qanday o‘tkazdingiz?

Darsda ishtirok etgan o‘quvchilar baholari e‘lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Navro‘z – bahor bayrami»ni ifodali o‘qib, so‘zlab berish.

«Yurtim kamoli» she‘rini yod olish.

## 127-DARS

**Mavzu:** «Suhbat». Ertak. (Yayra Sa‘dullayeva)

**Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilar ongida vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoyilik, jonkuyarlik kabi xislatlarni singdirish, o‘simliklarni avaylab-asrashga o‘rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, matnni tushunib va rollarga bo‘lib o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.



**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «Raqamli joylashuv» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** manzarali daraxtlar rasmi, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

Fasl haqida suhbat.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa so'raladi. O'quvchilar «Yersevarni – el sevar» matnini navbat bilan o'qib, mazmunini so'zlab beradilar.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Raqamli joylashuv» mashqi o'tkaziladi.



**«Raqamli joylashuv» mashqi**

«Yersevarni – el sevar» matnidan olingan bir necha gapdagi so'zlar raqamlar ostiga joylashtiriladi. O'quvchilar so'zlarning raqamini aytib, gaplar hosil qilishlari kerak bo'ladi.

1 Tabiatning	2 U	3 Birinchi	4 ajoyib	5 qadamni
6 sizni	7 tuhfasini	8 kiyintiradi	9 uning	10 to'ydiradi
11 ona	12 bag'rida	13 yerimizdir	14 ardoqlaydi	15 qo'yasiz

1,4,7,11,13 (Tabiatning ajoyib tuhfasini – ona Yerimizdir.)

3,5,9,12,15 (Birinchi qadamni uning bag'rida qo'yasiz.)

2,6,8,10,14 (U sizni kiyintiradi, to'ydiradi, ardoqlaydi.)

**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

Yangi mavzu e'lon qilinadi va doskaga yoziladi. «Suhbat.» Ertak. (Yayra Sa'dullayeva)

O'qituvchi ertakni ifodali o'qib beradi. Matn mazmunini so'zlab, tushuntirib beradi.

O'quvchilar kuzatib, tinglaydilar. Matnda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



### **Lug'at ishi:**

**suqlanib qarash** – havas yoki zavq-shavq zo'r his tuyg'u bilan boqmoq

**parishon** – xayoli qochgan, xafa

**barvaqt** – mo'ljallangan vaqtdan, odatdagi vaqtdan ilgari; erta bilan, vaqtli

**yog'du** – yorituvchi manbadan taraluvchi yorug'lik, nur

**g'oyat** – haddan tashqari, nihoyatda, juda

### **«Rollarga bo'lib o'qish» mashqi**

O'quvchilar ertakni navbat bilan «Muallif», «Majnuntol», «Tol» rollariga bo'lib o'qiydilar.

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari beriladi.



### **Test topshiriqlari:**

1. Hovuz bo'yida nima o'sgan ekan?

A) qayin va archa

B) terak va chinor

D) tol va majnuntol

E) eman va qayrag'och

2. Qaysi daraxt doim boshini egib turar ekan?

A) terak

B) majnuntol

D) chinor

E) archa

3. Majnuntolning boshini egikligi nimani anglatar ekan?

A) yaxshilarga ta'zimni

B) parishonlikni

D) g'amginlikni

E) uyatchanlikni

4. Qaysi daraxtning poyalari kishilarning tokini ko'tarar ekan?

A) eman

B) qayin

D) qayrag'och

E) tol

5. Ikkala o'rtoq nimadan mamnun edilar?

A) bekorchilikdan

B) yaxshi hayotdan

D) kishilarga xizmat qilishdan

E) ob-havodan

Test natijalari tekshiriladi va tahlil qilinadi.

### **V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.**

Darsga yakun yasash maqsadida o'quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

1. Ertak qahramonlari kimlar ekan?

2. «Elga xizmat – oily himmat» maqolini qanday tushunasiz?

O'quvchilar javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

«Suhbat» ertagini ifodali o'qib, mazmunini so'zlab berish.

### 129-DARS

**Mavzu:** «Soy suvi haqida ertak» (Zohir A'lam).

#### **Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarni «Soy suvi haqida ertak» ertagi bilan tanishtirish, to'g'ri, ifodali va ravon o'qishga o'rgatish, ertak matnini rollarga bo'lib o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarda ona tabiatimizga bo'lgan ijobiy munosabatni tarbiyalash, ularni suvning qadriga yetish, uni asrab-avaylashga va isrof qilmaslikka o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «To'g'risini top», «Yosh aktyor» ta'limiy o'yinlari.

**Dars jihozi:** videolavhalar, ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

#### **Darsning borishi:**

##### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

##### **II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Non haqida» ertagini so'rab baholash.

O'tilgan mavzu savol-javob orqali mustahkamlanadi.

1. Hikoyada kimlar ishtirok etgan?
2. Azamat amaki qizlarni qayerga olib bordi?
3. Nima uchun Mayram Mashhuradan uzr so'radi?
4. Ertak qahramonlaridan qaysi biri sizga yoqdi?

##### **«To'g'risini top» o'yini**

Bu o'yinda o'quvchilar ifodalarning qiymatini topsalar «Soy suvi haqida ertak» mavzusi kelib chiqadi.

100-84:4

«soy»

96:6-3

«suvi»

18-4-35

«haqida»

30+51:17

«ertak»

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bugun biz sizlar bilan Zohir A’lamning «Soy suvi haqida ertak» mavzusi bilan tanishamiz. Zohir A’lam haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



O’quvchilarga mavzu mazmuni animatsiya orqali taqdim etiladi. Kadr ortidan ertak matni o’qiladi. Ertak mazmuni tushuntiriladi. O’quvchilar ertakni navbat bilan o’qiydilar. Ertakda uchragan notanish so’zlar yuzasidan lug’at ishi o’tkaziladi.



**Lug’at ishi:**

**taqsimlash** – qismlarga ajratish

**chetan devor** – tol daraxtidan yasalgan devor

**sharillab** – tez oqishi



**Dam olish daqiqasi o’tkaziladi.**

«Yomg’ir» qo’shig’i audio orqali beriladi.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### Darslik bilan ishlash:

O’quvchilar «Soy suvi haqida ertak» ertagini rollarga bo’lib o’qiydilar. «*Yosh aktyor*» o’yini o’tkaziladi. O’quvchilar rollarga bo’linib, ertak mazmunini sahna ko’rinishida ijro etadilar.

Savol-javob orqali o’tilgan mavzu mustahkamlanadi.

1. Nima uchun soy suvi qurib qolibdi?

2. Dehqon nimalardan suv so’rabdi?

3. Dehqon soyga qanday qilib suv keltirdi?

### V. Darsga yakun yasash va o’quvchilarni baholash.

#### Savol-javob:

1. Ertak nima haqida ekan?

2. Ertakdan qanday ibrat oldingiz?

Darsda ishtirok etgan o’quvchilar baholari e’lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o’quvchilar namuna qilib ko’rsatiladi.

### VI. Uyga vazifa berish.

«Soy suvi haqida ertak»ni ifodali o’qib, so’zlab berish.

**Mavzu:** «Bog‘im». (Habib Rahmat)

**Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** she‘r mazmuni bilan tanishtirish, ravon, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini o‘stirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda tabiatni sevish, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini, qofiyadosh so‘zlarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, «So‘z tuz» ta‘limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** rasmlı tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish

Davomatni aniqlash

O‘quvchilarnı darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

**IPT**

«*Hamkorlikda qayta hikoya qilish*» mashqidan foydalanib uy vazifasi so‘raladi.

O‘quvchilarga ertak mazmuniga ishlangan rasmlı kartochkalar tarqatiladi. So‘ng o‘quvchi tarqatmadagi rasm asosida ertakning rasmda aks ettirilgan qismi mazmunini so‘zlab beradi. Masalan, dehqon va yomg‘ir tasvirlangan rasmlı kartochkani olgan o‘quvchi ertak mazmunini quyidagicha hikoya qilib beradi:

– Dehqon yomg‘irdan suv so‘ragan ekan, u shunday deb javob beribdi:

– Ey, odam! Mening suvim nima bo‘lardi? Bir sharillab tu-shadi-yu, tezda oqadi-ketadi. Soyga hayqirib oqadigan suvni qor beradi. Sen o‘shaning oldiga bor!


Shu tarzda ertak qismlari qayta hikoya qilinadi.

Matn asosida savol-javob o‘tkaziladi.

- Nima uchun soyning suvi qurib qolibdi?
- Dehqon nimalardan suv so‘rabdi?
- Dehqon soyga qanday qilib suv keltirdi?
- Ertakni o‘qib qanday xulosa chiqardingiz?

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan Habib Rahmatning «Bog‘im» she‘ri bilan tanishamiz. (She‘r muallifi haqida qisqa ma‘lumot beriladi.)

 Multimedia ilovadan foydalanib, bog‘ tasvirlangan video-lavha namoyish qilinadi.

«Bog‘im» she‘ri o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. She‘rdagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

 **Lug‘at ishi:**

**o‘yib** – kovlab

**mehr boyladim** – mehr qo‘ydim

**bunyod** – yaratish, barpo qilish

She‘r yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

- She‘rda qaysi fasl tasvirlangan?
- She‘rda nima haqida gap boradi?
- Dadasi bolasiga nimani o‘rgatdi?
- Bola nimadan xursand?

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

«Bog‘imizga marhamat» qo‘shig‘ini tinglaydilar, qo‘shiqqa mos harakatlar bajaradilar.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

**Darslik bilan ishlash:**

«Ifodali o‘qish» musobaqasi o‘tkaziladi. O‘quvchilar she‘rni navbat bilan «Davom ettir» usulida o‘qiydilar.

 **«Kichik guruhlarda ishlash»**

O‘quvchilar to‘rt kishilik kichik guruhlariga bo‘linadilar va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar.

1-topshiriq:

She‘rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlang va daftaringizga yozing.

Qofiyadosh so‘zlar: odamlar – dadamlar, avaylab – boylab...

2-topshiriq:

*Ko‘kka cho‘zib qomatin*

*Quloch yozar shoxlari.* Satrlar mazmunini izohlang.

3-topshiriq:

«Ingliz tili bilimdoni» mashqi o‘tkaziladi.

B	o	l	a																
o	n	a																	
g‘	o	z																	
i	l	o	n																
m	a	y	m	u	n														

boy

snake

goose

monkey

mother

4-topshiriq:



«So‘z tuz» o‘yini o‘tkaziladi.

Kataklar ichida berilgan harflardan so‘zlar tuzadilar. So‘zlar yashiringan kataklarni turli ranglarga bo‘yadilar.

b	e	l	x	a	s	k	a	sh	k	d	a	r	a	x
k	o‘	k	u	r	a	k	ch	s	e	t	m	o	n	t
p	ch	a	t	a	y	o	e	u	v	t	e	r	a	k
a	g	u	l	q	ch	h	l	a	k	m	e	h	n	a
y	v	a	n	d	i	a	k	b	o	g‘	b	o	n	t

Ushbu o‘yinni multimedia ilovadan foydalanib o‘tkazish ham mumkin.

Guruhlar ballari e‘lon qilinib, faol guruhlar faoliyati rag‘batlantiriladi.

#### V. Darsga yakun yasash va baholash.

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

- Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
- Darsimiz orqali nimalarni bilib oldingiz?
- Siz ham bog‘da mehnat qilganmisiz?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

#### VI. Uyga vazifa berish.

She‘ni ifodali o‘qish uyga vazifa qilib beriladi.





4. «Ota-onaning ishi farzandni parvarish qilish va yaxshilikni o'rgatishdir» ushbu gap qaysi asardan olingan?

- A) «Hadis»dan                      B) «Bobur va Humoyun»dan  
D) «Boburnoma»dan            E) «Qobusnoma»dan

5. Bobur qanday inson bo'lgan?

- A) Dovyurak, epchil, kuchli, o'ta idrokli inson bo'lgan  
B) Dovyurak, urishqoq, kuchli inson bo'lgan  
D) Epchil, chaqqon, sarkarda bo'lgan  
E) Juda kuchli podshoh bo'lgan

### III. Yangi mavzuni tushunturish.

IPT

«*Rasmlı rebus*» o'yini.

Rasmdagi narsalar nomini birinchi harfini ketma-ket o'qib, dars mavzusi «Ota-ona duosi» jumlasini topadilar.



o	t	a
---	---	---



o	n	a
---	---	---



d	u	o	s	i
---	---	---	---	---

– Bolajonlar, bilasizlarmi, biz farzandlarni turli balo-yu ofatlardan nima himoya qiladi?

– Barakalla, ota-onamizning duosi bizni doimo himoya qiladi. Bugun biz sizlar bilan Safo Ochilning «Ota-ona duosi» she'ri bilan tanishamiz. (She'r muallifi haqida qisqa ma'lumot beriladi.)

Videolavha orqali ota-ona farzandini duo qilayotgani tasvirlanadi. Kadr ortidan matn o'qiladi. O'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Mazmuni o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, tushuntiriladi. She'rdagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

**Lug'at ishi:**

**yodlamoq** – eslamoq, xotirlamoq

**siym-u zar** – oltin-kumush

She'r yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

– She'r nima haqida ekan?

– Ota-ona duosi haqida nimalar deyilgan?  
– Ota-ona duosini olish uchun qanday farzand bo‘lish kerak?

– Sizning ota-onangiz qanday so‘zlar bilan duo qilishadi?

O‘quvchilar javoblari tinglanib, to‘ldiriladi va dars xulosalanadi.



### «Xotira mashqi» o‘tkaziladi.

She‘r matni yuzasidan turli topshiriqlar multimedia ilovalari orqali bajariladi.

## IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

### *Darslik bilan ishlash:*

«Ota-ona duosi» she‘rini ifodali o‘qish musobaqasi o‘tkaziladi.

**Mustaqil ish** beriladi. O‘quvchilar she‘rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlab, daftarlariga yozadilar.

Namuna: ko‘nglim – yo‘lim, to‘lmas – bo‘lmas, yodlagayman – saqlagayman – oqlagayman...

### «Kichik guruhlarda ishlash»

**IPT** O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar va quyidagi markazlarda faoliyat olib boradilar.

«**O‘qish» guruhi** – bu guruh markazdagi o‘quvchilar ota-ona haqidagi hikmatlardan topib, daftarlariga yozadilar.

Masalan: 1. Ona – birinchi muallimdir.

2. Ota – umr bog‘boni.

3. Otangni kaftingda tutsang,  
Onangni boshingda tut.

4. Onaning mehri – muqaddas.

5. Ota-ona duosi – oltindan qimmat.

6. Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi...

«**Ona tili» guruhi** – bu guruhdagi o‘quvchilar ota-ona haqida kichik matn tuzib, daftarlariga yozadilar.

Masalan: mening oila a‘zolarim bu – ota-onam, opa-akam va men. Biz totuv va inoq bo‘lib yashaymiz. Men ota-onamning nasihatlariga quloq tutaman. Har tong ota-onam bizlarni duo qilib, maktabga kuzatadilar...

«**Matematika» guruhi** – bu guruh she‘rdagi so‘zlar, bo‘g‘inlar, unli va undosh tovushlar sonini sanab tahlil qiladi.

Masalan: 43 ta so‘z...

«**Teatr» guruhi** – bu guruh ota-ona haqida kichik sahna ko‘rinishi tayyorlaydi va namoyish qiladi.

Masalan: oilada ota-ona, farzandlar suhbatlashib o‘tirishadi. Ota farzandiga tartibli, odobli bo‘lish kerakligi, muhtojlarga yordam berish haqida nasihat qiladi. O‘g‘ilning o‘rtoqlari chaqirib qoladi. O‘g‘li yo‘ldagi keksalarga yukini olib borishda yordam berib, duo va ota-onasi sha‘niga rahmat eshitadi...

«**Ingliz tili**» **guruhi** – bu guruh ota-onalar haqida ingliz tilida she‘r aytadi, yoki o‘qituvchi tomonidan berilgan so‘zlarni tarjima qiladi.

Masalan: ota – father, ona – mother....

«**Yosh huquqshunos**» **guruhi** – bu guruh konstitutsiyada farzandlarning ota-onalari oldidagi burchlari haqida ma‘lumot beradi.

«**San‘at**» **guruhi** – bu guruh mavzuga oid rasm chizadi yoki ota-onalar uchun kichik sovg‘a tayyorlaydi.

O‘qituvchi guruhlar sonidan kelib chiqib bir nechta markazlarni tashkil etishi mumkin. Bu sinfdagi o‘quvchilar soniga ko‘ra belgilanadi.

Guruhlar topshiriqni bajarishlari uchun vaqt belgilanadi. Belgilangan vaqt tugaganidan so‘ng guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi.

#### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

- Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
- Darsimiz orqali nimalarni bilib oldingiz?

O‘quvchilarning javoblari to‘ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Guruhlar taqdimoti tahlil qilinib rag‘batlantiriladi. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

She‘rni yod olish uyga vazifa qilib beriladi.

### **139-DARS**

**Mavzu:** «Qalamning o‘kinchi». (Shuhrat)

**Darsning maqsadi:**

**Ta‘limiy:** she‘r mazmuni bilan tanishtirish, tinish belgilariga rioya qilib o‘qishni o‘rgatish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni o‘quv qurollarini asrab-avaylashga o‘rgatish va tejamkorlikni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatlarini, ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, ko‘rgazmalilik, tushuntirish, «Sirli sandiqcha» ta‘limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish

Davomatni aniqlash

O‘quvchilarni darsga hozirlash.

### **II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

«Yordam berdi» hikoyasi mazmuni so‘raladi. Hikoya asosida savol-javob o‘tkaziladi.


– Hikoyadagi qaysi qahramon sizga yoqdi?

– Unga qanday baho berasiz?

– Shohida Faridaga nima uchun uning uyida bo‘lganini aytmadi?

### **III. Yangi mavzuni tushunturish.**

– Bolalar, bugun sizlar bilan Shuhratning «Qalamning o‘kinchi» she‘ri bilan tanishamiz. Muallif Shuhrat haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma‘lumot beriladi.

 She‘r mazmuniga mos lavha namoyish qilinadi va kadr ortidan she‘r matni o‘qiladi.

She‘r matni o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. She‘r asosida savol-javob o‘tkaziladi.

– She‘r nima haqida ekan?

– Qalam o‘quvchilarga nimalar dedi?

– Siz qalamlaringizdan qanday foydalanasiz?

– She‘rni o‘qib qanday xulosalarga keldingiz?

O‘quvchilar javoblari to‘ldiriladi va tarbiyaviy xulosa chiqariladi. O‘quv qurollarini asrab-avaylash lozimligi ta‘kidlanadi. Agar qalamdan tejamkorlik bilan unumli foydalanilsa, qanchadan

qancha daraxtlarni kesilishdan saqlab qolish mumkinligi tushuntiriladi va bu bilan tabiatni asrashga o'z hissalarini qo'shishlari aytiladi.

Sherdagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



**Lug'at ishi:**

**o'kinch** – g'amginlik, xafalik, afsuslanish

**hozirman** – tayyorman

**sof** – toza, musaffo, tiniq

**Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.**

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Darslik bilan ishlash:**

«Ifodali o'qish musobaqasi o'tkaziladi. O'quvchilar navbat bilan she'rni ifodali o'qiydilar.



«**Sirli sandiqcha**» o'yini o'tkaziladi.

O'quv qurollari haqida topishmoqlar beriladi. Agar topishmoqning javobini to'g'ri topsalar, sandiqcha ochiladi.

– Safda o'n ikki askar,

Bo'yi basti barobar.

Yo'nsang yog'och po'stini,

Rasmlarga rang berar. (Qalam)

– O'zi kichkina narsa,

Kerak bo'lar har darsda.

Chizib qo'ysang noto'g'ri,

Yo'q qiladi bir pasda. (O'chirg'ich)

– Tili po'lat shovvoz,

So'zlay olmas beqog'oz. (Ruchka)



«**Qofiyadosh so'zni top**» o'yini o'tkaziladi.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar aniqlanadi. Masalan: toshga – boshqa, ol – sol, hozirman – arzirman, isrof – sof.

**V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O'quvchilar bilan darsda o'rganilganlar yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

– «Qalamning o'kinchi» she'ri nima haqida ekan?

– She'rni o'qib nimalarni bilib oldingiz?

– She'rdan qanday xulosalar chiqardingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarning faolliklari tahlil qilinib, baholanadi.

## VI. Uyga vazifa berish.

She'ni ifodali o'qish.

### 143-DARS

**Mavzu:** «Do'stlar» («Kalila va Dimna»dan).

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni «Do'stlar» ertagi bilan tanishtirish. O'quvchilarni to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda do'stlik, do'st orttirish, do'stlikni qadriga yetish, vafodorlik, sodiqlik va o'zaro hurmat tuyg'ularini singdirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, fikrlash doiralarini kengaytirish, lug'at ustida ishlash, qayta hikoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi dars.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, «Meni top», «Topib o'qi» ta'limiy o'yinlari.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**Dars shiori:** *O'qib – uqib biz doim,  
Komil inson bo'lamiz!  
Kelajakda albatta,  
Yuksaklarga chiqamiz!*

### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

### II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – «Hassa» hikoyasi va «Kamtarlik haqida»gi she'rini yoddan so'rash.

Savol:

1. Shavkatning qilgan ishlari sizga yoqdimi?
2. Qobil bobo qaysi nabirasidan xursand bo'ldi?
3. Kamtarlik deganda nimani tushunasiz?
4. Mag'rur so'zining ma'nodoshini toping

«*Meni top*» o'yini o'tkaziladi. Buni maqollardan foydalaniladi va bu so'z yangi mavzu nomi bilan bog'lanadi.

..... kulfatda bilinar.

.... achitib gapirar, dushman kuldirib.

Daraxtni tomir saqlar, insonni – ...

..... do'stning oynasi.

Baliq suvsiz yashamas, Inson – ....

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Bugun biz sizlar bilan «Do'stlar» ertagi bilan tanishamiz. O'qituvchi matnni ifodali o'qib beradi. Matn mazmuni ustida ishlaydi. O'quvchilar matnni mustaqil o'qiydi va lug'at ustida ishlanadi.

#### *Lug'at ishi:*

**xavotirlanmoq** – tashvishlanmoq

**fursat** – ayni vaqtda

**tasalli** – ko'ngilni ko'tarmoq

**xilvat** – yolg'izlanish, yolg'iz, chekka, ovloq

Suhbat uchun savollar:

1. Do'st qanday bo'lishi kerak ekan?
2. Do'stlaringiz ismini ayting?

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### Darslik bilan ishlash

O'qituvchi muallif so'zini o'qib guruh faoliyatini boshqarib turadi va o'quvchilar rollarga bo'lib o'qiydi. Ertak qayta hikoya qilinadi, darslikdagi maqol ustida ishlanadi.

Daraxtni tomiri saqlar,

Odamni – do'sti

#### *Test topshiriqlari:*

1. Qaysi ertak qahramoni ovchining qo'liga tushdi?

A) Ohu

B) Toshbaqa

D) Chumoli

E) Sichqon

2. «Do'st bilan birga bo'lish lozim» deb qaysi hayvon aytdi?

A) Qarg'a

B) Toshbaqa

D) ovchi

E) Ohu

3. Do'stlar ertagidagi obrazlarni sanab o'ting?

A) Qarg'a, Toshbaqa, Ohu, Sichqon

B) Toshbaqa, Ohu, Sichqon, Tulki

D) Sichqon, Tulki, Ohu, Baqa

- E) Qarg'a, Toshbaqa, Ohu, Burgut  
 4. Do'stlarning qaysi biri «Chora topdim» dedi?  
 A) Qarg'a B) Toshbaqa  
 D) Sichqon E) Ohu  
 5. «Do'st» so'zining ma'nodoshini toping?  
 A) O'rtoq B) Inson  
 D) Qiz bola E) O'g'il bola



**«Mosini top» o'yini.**

O'zbekcha so'zlarga mos inglizcha so'zlarni topadilar.

<b>Sichqon</b>	deer
<b>Qarg'a</b>	hunter
<b>Ohu</b>	tortouse
<b>Toshbaqa</b>	friends
<b>Ovchi</b>	mouse
<b>Do'st</b>	raven

**V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.**

O'quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslikdagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Nima sababdan toshbaqa ovchining qo'liga tushdi?
  2. Do'stlar toshbaqani qutqarish uchun qanday tadbir qo'lladilar?
  3. Do'stlarning yana qayta baxtli hayot kechira boshlaganlarining sababi nimada?
  4. Ovchi nega qaytib ketdi?
- Guruhlar ishi baholanadi va faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa berish.**

«Do'stlar» ertagini ifodali o'qib, mazmunini qayta so'zlab berish.

**149-DARS**

**Mavzu:** «Hunarni sev» (Tolib Yo'ldosh).

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarning she'ri ni ifodali o'qish, mazmunini o'zlashtirish, xulosa chiqarish malakasini oshirish, kasblar haqida tushuncha berish.



**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda kasblarga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, mehnatsevarlik, tirishqoqlik, irodalilik kabi fazilatlatlarni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki hikoya qilish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** savol-javob, «Aqliy hujum» metodlari, «Xo-tira» mashqi, «Kasblarga ta‘rif», «Pantomimo» ta‘limiy o‘yini.

**Dars jihozi:** ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish,

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

### **II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Yaxshilik» hikoyasini so‘rab baholash.

**IPT**

### **Aqliy hujum.**


1. Yakshanba kuni qanday voqea yuz berdi?
2. Ona nima uchun ayolga pulini qaytarib berdi?
3. Zarifjon onasiga nima dedi?
4. Nazokat opa o‘g‘liga qaysi voqeani so‘zlab berdi?
5. Hikoya qahramonlari kimlar?

### **Test topshiriqlari:**

1. Zarifjon onasi bilan qayerga ketayotgan edi?  
A) kinoteatrga B) maktabga  
D) do‘konga E) kutubxonaga
2. Zarifjon va onasining yonidan kim o‘tib ketdi?  
A) o‘qituvchi B) ayol  
D) chol E) o‘quvchi
3. Ayolning cho‘ntagidan nimasi tushib qoldi?  
A) ruchkasi B) romolchasi  
D) puli E) telefoni
4. Ayol pulni olib nima qildi?  
A) minnatdorchilik bildirdi B) xursand bo‘ldi  
D) xafa bo‘ldi E) minnatdorchilik bildirmadi
5. Hikoyada kishilarning qaysi fazilati haqida aytilgan?  
A) saxiylik B) halollik  
D) to‘g‘riso‘zlik E) mehribonlik

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

– Bugun biz sizlar bilan Tolib Yo‘ldoshning «Hunarni sev» she‘ri bilan tanishamiz. (She‘r muallifi haqida qisqa ma‘lumot beriladi.)

 She‘r mazmuniga mos kasbga oid lavhalar namoyish etilib, kadr ortidan she‘r o‘qiladi.

She‘r matni mazmuni tushuntiriladi. O‘qituvchi she‘rni o‘qiydi. Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

 **Lug‘at ishi:**

**asqotar** – kerak bo‘ladi, kuniga yaraydi, ish beradi.


**soni yo‘q** – behisob ko‘p, son-sanog‘i yo‘q

**chilangar** – mayda metall buyumlar yasovchi usta, temirchi, slesar

**manfaat** – foyda, naf

**quvvat** – kuch

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

 **Xotira mashqi:** Bunda o‘quvchilarga hunar haqida maqollar tarqatiladi. Har bir o‘quvchi maqolni o‘qiydi va eslab qoladi. Eslab qolgan maqolni yoddan aytib berishi kerak.

### V. Yangi mavzuni mustahkamlash

**Darslik bilan ishlash:**

O‘quvchilar «Hunarni sev» matnini navbatma-navbat o‘qiydilar. Matn mazmunini hikoya qilib beradi. Qofiyadosh so‘zlar ustida ishlanadi:

asqotar – qator-qator, xohishing – ishing, uylar – kuylar, zarur – nur, iqbol – ol.

1. Shoir yoshlarni nimaga undayapti?


2. She‘rda hunarga qanday ta‘rif berilgan?

3. Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?

**Mustaqil ish.** She‘rni ichingizda qayta o‘qing. Qofiyadosh so‘zlarni toping.

Tez aytish musobaqasi o‘tkaziladi.

Vali arralaydi, Sora allalaydi.

 **«Kasblarga ta‘rifi» o‘yini.** O‘quvchilar uchta guruhga bo‘linadi. Bitta guruh maktabga aloqasi bo‘lgan kasbni (o‘qituvchi, psixolog, oshpaz, farrosh) aytadi. Keyingi guruh shu kasbga ta‘rif beradi va yana bitta kasb nomini uchinchi guruh uchun aytadi, o‘yin shu tariqa aylana bo‘-

yicha davom etadi. Agar guruh vazifani bajara olmasa, boshqa guruh a'zolari bu imkoniyatdan foydalanishlari mumkin. Guruhlar har bir topilgan kasb nomi va unga berilgan ta'rif uchun ball to'playdilar. So'ngra o'qituvchi bolalarning shu maktabda o'qishlari uchun mehnat qilgan kasblar vakillariga (quruvchilar, bo'yoqchilar, elektriklar va h.k) ta'rif beradi. O'quvchilar bu kasb nomlarini topishlari kerak. Agar guruh berilgan savolga javob bera olmasa, boshqa guruh topshiriqni bajarishi va ball to'plashi mumkin.



«**Pantomimo**» o'yini. O'quvchilar imo-ishora orqali rasmda aks ettirayotgan kasbni ifoda etishi kerak.

Har kuni ovqatlanamiz. Oziq-ovqatni kimlar yetkazib beradi? (Dehqonlar, bog'bonlar, novvoylar, oshpazlar)

– Kiyimlarimizni kimlar tayyorlaydi? (Tikuvchilar)

– Uylarimiz eshiklari va romlarini, bizning partalarimizni

kimlar tayyorlaydi? (Duradgorlar)

– Uzoq yo'limizni kimlar yaqin qiladilar? (Haydovchilar)

– Sog'ligimiz yomonlashsa kimlar yordam beradi? (Shifokorlar)

**V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.**

Savol-javob:

1. Darsda nima haqidagi she'r bilan tanishdingiz?

2. «Hunarni sev» she'ri sizga yoqdimi?

Darsda ishtirok etgan o'quvchilar baholari e'lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o'quvchilar namuna qilib ko'rsatiladi.

**VI. Uyga vazifa berish.**

«Hunarni sev» she'rini ifodali o'qib, yod olish.

## 153-DARS

**Mavzu:** «Yaxshilik yerda qolmas» (Hakim Nazir).

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga hikoya mazmunini tushuntirish, hikoyani qismlarga bo'lish, reja tuzish va reja asosida hikoya mazmunini so'zlashni o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarga to'g'rilik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik kabi xislatlarni singdirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ongli va ifodali o'qish, mantiqiy fikrlash malakasini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, «Tushunchalar tahlili» metodlari, «Zanjir» usuli, «Kim tez topadi?» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O'quvchilar «Bobongiz xafa bo'lsalar maylimi?» hikoyasini «Zanjir» usulida ifodali o'qib, mazmunini so'zlab beradilar.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Tushunchalar tahlili» usuli yordamida «Kim tez topadi?» mashqi o'tkaziladi. Bu mashqda mehnat qurollari nomi (yoki rasmi) hamda ular bilan bajariladigan ishlarni moslash lozim bo'ladi.



**«Kim tez topadi?» o'yini**

<b>Tushuncha</b>	<b>Mazmuni</b>
ketmon	devorni suvaydilar
randa	yerni chopadilar
belkurak	daraxtlarning shoxlari kallaklanadi
andava	daraxtlarning tagi yumshatiladi
qo'larra	taxta randalanadi

Mashq natijasi tahlil qilinadi.

**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

Yangi mavzu e'lon qilinadi va doskaga yoziladi. «Yaxshilik yerda qolmas». Hakim Nazir.

O'qituvchi hikoyani ifodali o'qib beradi. Hikoya mazmunini suratlar yordamida qayta hikoya qilib tushuntiradi.

Matnda uchragan notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



### *Lugʻat ishi:*

**hamyon** – asosan pul solib, yonda, choʻntakda olib yuriladigan xaltacha, karmon

**sergak** – tez, darhol sezadigan, sezgir, ziyrak.

**oqsoqol** – soch-soqoli oqargan keksa odam, moʻysafid

**soʻfi** – masjidida azon aytuvchi kishi

**jujuq** – yosh bola, goʻdak

Oʻquvchilarni toʻgʻrilik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik kabi xislatlarni singdirish maqsadida suhbat uyushtiriladi. Oʻquvchilarning fikri tinglanadi.

Harakatli dam olish daqiqasi oʻtkaziladi. Oʻquvchilar birgalikda bajaradilar.

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

«Yaxshilik yerda qolmas» hikoyasini oʻquvchilar navbat bilan oʻqiydilar.

Oʻqituvchi yordamida matnni qismlarga boʻladilar va har bir qismga sarlavha qoʻyadilar. Reja hosil boʻladi. Reja asosida hikoya mazmunini toʻliq soʻzlaydilar.

Oʻquvchilar bilan yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida test sinovi oʻtkaziladi:



### *Test topshiriqlari:*

1. Toyir bilan Zoyir nima topib olishdi?

A) taqinchoq

B) hamyon

D) koptok

E) oʻyinchoq

2. Hamyonning ichida nima bor edi?

A) dastroʻmol

B) qogʻoz

D) chipta

E) pul

3. Egasini topib, hamyonni berish kerakligini kim aytdi?

A) Toyir

B) oʻqituvchi

D) Zoyir

E) choyxonachi

4. Oʻqituvchi pulni qayerga olib borishni maslahat berdi?

A) bolalar bogʻchasiga

B) mahalla idorasiga

D) mahalladagi choyxonaga

E) sport maydonchasiga

5. Bolalar topib olgan hamyon kimniki ekan?

A) oʻqituvchiniki

B) Gʻafur ota

D) choyxonachi

E) Razzoq soʻfi

Test natijasi tekshiriladi va tahlil qilinadi.

№	Hikoya nomi	Qahramonlar	Ularga ta'rif
1.	«Yordam berdi»	Farida, Inobat opa, Shohida	Farida: mas'uliyatsiz, bemehr, o'yinqaroq, e'tiborsiz. Inobat opa: ko'ngilchan, kam-suqum, muloyim. Shohida: aqlli, mehribon, jon-kuyar, mehnatsevar
2.	«Hassa»		
3.	«Sohiba kimdan xafa?»		
4.	«Yaxshilik»		
5.	«Bahs»		
6.	«Bobongiz xafa bo'lsalar maylimi?»		
7.	«Yaxshilik yerda qolmas»		

### **V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.**

Darsga yakun yasash maqsadida o'quvchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

1. Siz bu hikoyaga qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?

2. Bolalarning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi va darsga yakun yasaladi.

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

### **VI. Uyga vazifa berish.**

«Yaxshilik yerda qolmas» hikoyasini ifodali o'qish, mazmunini so'zlash.

**Mavzu:** «Eng muqaddas kun» (Yoqutxon Rahimova).

**Maqsad:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarni Yoqutxon Rahimovaning «Eng muqaddas kun» hikoyasi bilan tanishtirish. O'quvchilarni to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni Ona-Vatanni sevish, asrashga o'rgatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, lug'at ustida ishlash, ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, savol-javob, «Maqollar chashmasi» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va topshiriqlar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi.**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash**

O'quvchilar sinfdan tashqari o'qishda o'qilgan «Ochko'z boy» ertagi mazmunini so'zlab beradilar. Ertak asosida savol-javob o'tkaziladi.

1. Chol nimaga yordam berdi?

2. Laylak cholga nima berdi?

3. Chol qanday qilib boyib ketdi?

4. Boy ochko'zligi uchun qanday jazo oldi?

O'tilganlarni yodga olish maqsadida test sinovi o'tkaziladi.

**Test topshiriqlari:**

1. «Farida bugun ancha barvaqt turdi» Ushbu gap qaysi hikoyadan olingan?

A) Yordam berdi

B) Qoida

D) Hassa

E) Chin do'st

2. «Qobil boboning Shavkat bilan Shuhrat nabiralari haqida qaysi hikoyada gap boradi?

A) Chin do'st

B) Hassa

D) Do'stlar                      E) Bahs

3. «Halollik – kishining eng yaxshi fazilati» Ushbu parcha qaysi hikoyada uchraydi?

A) Hassa                      B) Chin do'stlik

D) Do'stlar                      E) Yaxshilik

4. «*Binokor bo'l, ha balli,*

*Bizga soz uylar kerak». She'r muallifi va nomi...?*

A) «Hunarni sev» T. Yo'ldosh

B) «Kamtarlik haqida», E. Vohidov

D) «Hunarni sev» E. Vohidov

E) «Yaxshilik» F. Musajon

5. Oqsoy qishlog'idagi Halim, Salim va Karim degan bolalar haqida hikoya qiluvchi hikoyani aniqlang.


A) Hunarni sev              B) Bahs

D) Noahillik oqibati      E) Lochinning o'limi

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Yangi mavzu e'lon qilinadi: «Eng muqaddas kun»

– Bugun biz sizlar bilan Yoqutxon Rahimovanning «Eng muqaddas kun» mavzusi bilan tanishamiz. Yoqutxon Rahimova haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

 Multimedia ilovasida mavzu mazmuniga mos videolavhalar namoyish etiladi, matn kadr ortidan o'qiladi.

Matn mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar ketma-ket mavzuni o'qiydi. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradilar.

– Bolajonlar, qanday notanish so'zlarga duch keldingiz?

 **Lug'at ishi:**

**motamsaro** – motam tutilayotgan joy

**xiyobon** – sayrgoh

**farmon** – qaror

**nuroni** – fayzli kishi

**majruh** – yaralangan

Dam olish daqiqasida «Biz askarmiz qo'shig'i» ijro etiladi.

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslik bilan ishlash:

«Ifodali o'qish» musobaqasi

Musobaqa qatorlararo o'tkaziladi.

O'quvchilarning hammasi she'rni o'qiydi. Musobaqa so'ngida har bir qatorda nechta o'quvchi ifodali o'qigani e'lon qilinadi va ko'p ifodali o'qigan qator g'olib sanaladi.



## «Maqollar chashmasi» o‘yini

O‘quvchilar tinchlik va Vatan haqida maqollar aytadilar.

### V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.

Savol-javob:

1. Bugungi darsimizda nimalarni bilib oldingiz?

2. Nima uchun bugungi mavzuga «Eng muqaddas kun» deb nom berilgan?

3. «Eng muqaddas kun» mavzusidan nimalarni bilib oldingiz?

Darsda ishtirok etgan o‘quvchilar baholari e‘lon qilinadi.

Faol ishtirok etgan o‘quvchilar namuna qilib ko‘rsatiladi.

### VI. Uyga vazifa berish.

Yoqutxon Rahimovanning «Eng muqaddas kun» matnini o‘qib, mazmunini gapirib berish.

## 156-DARS

**Mavzu:** «Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor». (Muhammad Yusuf)

### Darsning maqsadi:

**Ta’limiy:** she’r mazmuni bilan tanishtirish, Vatanning mo‘tabar ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirish, she’r ustida ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni ona Vatanni sevish, asrashga o‘rgatish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Dars jihozi:** mavzuga oid rasmlar, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O‘quvchilarni darsga hozirlash.


## II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

«Eng muqaddas kun» hikoyasi o‘quvchilarga o‘qitiladi, mazmuni navbat bilan hikoya qildiriladi. Hikoya asosida savol-javob o‘tkaziladi.

- Xotira va qadrlash maydonida nimalarni ko‘rish mumkin?
- Ikkinchi jahon urushi qanday oqibatlariga olib keldi?
- Yurtboshimiz nima uchun kurashdilar?
- 9-May qanday kun deb e‘lon qilindi?

## III. Yangi mavzuni tushunturish.

– Dars mavzusi «Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor» e‘lon qilinadi. Muallif Muhammad Yusuf haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma‘lumot beriladi.

 She‘r mazmuniga mos videolavha namoyish qilinadi. She‘r kadr ortidan o‘qib beriladi. She‘r mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

She‘rdagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

 **Lug‘at ishi:**

**Shahid** – Vatan urushi uchun yoki haqqoniyat yo‘lida qurbon bo‘lgan, jonini fido qilgan odam

**diyodor** – ko‘rishish, uchrashish

**fig‘on** – qattiq xafa bo‘lish, nola, faryod

**o‘rtanar** – qiynalar


**armon** – ushalmagan orzu

**Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.**

## IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

**Darslik bilan ishlash:**

She‘r o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi. She‘r mazmuni hikoya qildiriladi.

 Kichik guruhlar tashkil qilinadi va quyidagi topshiriqlar beriladi.

1-topshiriq

«Xotira va qadrlash» kuniga bag‘ishlab kichik sahna ko‘rinishi tayyorlash, unda she‘r mazmunidan foydalanish tavsiya qilinadi.

2-topshiriq

She‘rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlab, daftarlaringizga yozing.

O'rganilganlar yuzasidan test sinovi o'tkaziladi.



### ***Test topshiriqlari:***

1. «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor» she'ri nima haqida?

A) maktab

B) vatan

D) mahalla

E) do'stlik

2. She'rdagi qaysi shoirlar ismini uchratdingiz?

A) Usmon, Cho'lpon

B) Cho'lpon, Muhammad

D) Usmon, Muhammad

E) Usmon, Yusuf

3. «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor» she'rining muallifi kim?

A) Muhammad Yusuf

B) Orif To'xtash

D) Abdurahmon Akbar

E) Po'lat Mo'min

4. «Osmon» so'ziga ma'nodosh so'zni belgilang?

A) bulut

B) havorang

D) falak

E) yer

5. Qofiyadosh so'zlar berilgan qatorni belgilang?

A) armonlaring, og'riydi, o'g'lonlaring

B) armonlaring, dostonlaring, og'riydi

D) armonlaring, shahid, dostonlaring

E) armonlaring, dostonlaring, o'g'lonlaring

### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

O'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagicha savollar bilan murojaat etiladi:

– Darsda nimalarni bilib oldingiz?

– Hikoya sizga yoqdimi?

– Hikoyani o'qib, qanday xulosa chiqardingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldirilib, umumlashtiriladi va dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan guruhlar ballari e'lon qilinib, rag'batlantiriladi. O'quvchilarning guruhdagi faolliklari tahlil qilinib, baholanadi.

### **VI. Uyga vazifa berish.**

Hikoyani o'qib, o'rganish, mazmunini qayta hikoyalash uchun tayyorlanish uyga vazifa qilib beriladi.

**Mavzu:** «Yoz». (Obid Rasul)

**Darsning maqsadi:**

**Talimiy:** o'quvchilarga she'r mazmuni haqida ma'lumot berish. Ifodali o'qishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni tabiatni sevishga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars metodlari:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, «Jumlani top» ta'limiy o'yini.

**Dars jihozi:** ko'rsatmali va tarqatma materiallar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

**II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – «Mag'zi shirin» matnini so'rab baholash.


1. Hamroboy otaning hovlisidagi o'rik daraxti kimni eslatardi?

2. Bolalar Hamroboy otani nima deb yupatdi?

3. Ota maktab hovlisidagi o'rikdan bolalarga olib berib nima dedi?

**III. Yangi mavzuni tushuntirish.**

O'quvchilarni Obid Rasulning «Yoz» she'ri bilan tanishtirish. She'r muallifi haqida ma'lumot beriladi.

 She'r mazmuniga mos videolavha namoyish etiladi. Kadr ortida matn o'qiladi. O'quvchilar she'rni ifodali o'qib beradi. She'r mazmuni va lug'at ustida ishlanadi.

 **Lug'at ishi:**

**saxiy** – qo'li ochiq, saxovatli, hech kimdan narsasini ayamaydigan

**yot** – begona

**mahal** – fursat, vaqt

**bol** – asal

Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

##### **Darslik bilan ishlash**

O‘quvchilar «**Yoz**» she‘rini ifodali o‘qiydi.

She‘r mazmuni asosida savol-javob o‘tkaziladi

1. She‘rda yoz fasli qanday tasvirlangan?
2. Yoz so‘zning qofiyadosh so‘zini toping?
3. She‘rda qaysi uzum nomlari keltirilgan?



##### **Test to‘shiriqlari:**

1. Yozda qaysi uzum navlari pishib yetiladi?  
A) Charos, daroyi                      B) chilaki, husayni  
D) Kishmish, daroyi                  E) Charos, husayni
2. «Yoz» she‘rining muallifi kim?  
A) Anvar Obidjon                      B) Obid Rasul  
D) Ilyos Muslim                        E) Qudrat Hikmat
3. Yozda ko‘lda qanday qushlar uchib keldi?  
A) Laylak, turna                        B) O‘rdak, g‘oz  
D) Qarg‘a, zag‘izg‘on                E) Chumchuq, qaldirg‘och
4. «Yoz» so‘zi harakatni bildirgan qatorni toping.  
A) Yoz – keldi soz  
B) Sevimli faslim – yoz!  
D) Chiroyli va toza yoz!  
E) Yoz pishiqchilik fasli
5. Yoz faslida qanday dam olasiz?  
A) Kattalardek dam olamiz  
B) Kitob o‘qiymiz, cho‘milamiz  
D) Erta-yu kech uxlaymiz  
E) Uydan chiqmasdan televizor ko‘ramiz



##### **«Jumlani top» o‘yini.**

Yoz manzarasi tasvirlangan daraxt mevalariga so‘z va bo‘g‘inlar yoziladi. Ushbu mevalardagi so‘z va bo‘g‘inlardan «**Yoz fasli – soz fasl**» jumlasini hosil qilinadi.

#### **V. Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash.**

O‘quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslikdagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. She‘rda nimalarni bilib oldingiz?
2. Yozgi kanikulda siz qayerda dam olasiz?

## VI. Uyga vazifa berish

«Yoz» she'ri ni ifodali o'qib yod olish va gerbariylar tayyorlash.

### 13-DARS (Metodik ko'rsatma)

**Mavzu:** «Toshkentim – onam» (Maqsud Shayxzoda).

O'tilgan mavzular yuzasidan test topshiriqlari bajariladi.

#### Test topshiriqlari:

1. «Farzandga bilim o'rgatishdagi sening fikrlaring ma'qul» ushbu jumla qaysi asardan olingan?

A) Vatan mo'tabardir                      B) Til qudrati

D) Vatanni suymak                        E) Ona Vatan

2. Riyoziyot so'zining lug'aviy ma'nosini toping.

A) Astronomiya                              B) Tarix

D) Kimyo                                        E) Matematika

3. «Vatan mo'tabardir» matni muallifi kim?

A) Xurshid Davron                        B) Erkin Malikov

D) Aziz Abdurazzoq                        E) Dilfuza Kamoljonova

4. «Oltin to'la konimiz,

Tandir to'la nonimiz.

Vatan maktab, onamiz,

O'qishni o'rganamiz».

Misralar qaysi she'rdan olingan?

A) Tuhfa                                        B) Obod mahalla bo'ylab

D) O'zbekiston                                E) Vatan

5. O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan mashina nomi berilgan qatorni aniqlang.

A) «Neksiya», «Lasetti», «Epika», «Opel», «Damas»

B) «Neksiya», «Lasetti», «Epika», «Kaptiva», «Damas», «Matiz»

D) «Neksiya», «BMW», «Kaptiva», «Damas», «Matiz» «Malibu»

E) «Neksiya», «Lasetti», «Epika», «Kaptiva», «Mercedes», «Matiz»

Savollarga javob topilsa «Toshkent» so'zi kelib chiqadi.

«*Bo'sh o'tirma – boshqotirma yech*» o'yini

1. Toshkent so'zidagi birinchi bo'g'in. 2. Ona yerning tuprog'i .... sutidek aziz.

3. Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar. 4. Oltin fasl? 5. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri? 6. Eng tez uchadigan hasharot. 7. Juft son.

<b>T</b>	o	sh				
<b>O</b>	n	a				
<b>Sh</b>	a	m	o	l		
<b>K</b>	u	z				
<b>E</b>	r	t	a	k		
<b>N</b>	i	n	a	ch	i	
<b>T</b>	o‘	r	t			

O‘quvchilar bilan Toshkent haqida suhbat o‘tkaziladi.

Yangi dars mavzusi «Toshkentim – onam» ekanligi aytilib, she‘r muallifi Maqsud Shayxzoda haqida ma‘lumot beriladi. She‘r o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. She‘r mazmuni tushuntiriladi, notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

**IPT**

«**Qofiyadosh so‘zni aniqla**» mashqini o‘tkazish orqali o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

Soyasi – hikoyasi, kishilar – ishboshilar, aslini-faslini, sochilar – ochilar, chog‘larda – dudoqlarda.

## 22-DARS (Metodik ko‘rsatma)

**Mavzu:** Botir mergan va chaqimchi (O‘zbek xalq ertagi)

O‘quvchilarga ertak o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. «Zanjir» usulidan foydalanib, ertak o‘quvchilarga o‘qitiladi. Matn mazmuni ustida ishlanadi, lug‘at ishi o‘tkaziladi.

**Lug‘at ishi:**

**mergan** – o‘q otish bo‘yicha g‘olib, o‘qni aniq otuvchi  
**ovul** – ko‘chmanchi chorvadorlar o‘rnashgan joy, qishloq

**qirilibdi** – ko‘plab yoki yoppasiga o‘libdi

**rad** – qaytarish

**fuqarolar** – aholisi

«**Bor ekanda yo‘q ekan**» o‘yini.

Darsni mustahkamlashda «Bor ekanda yo‘q ekan» o‘yini o‘ynaladi.

Bu o‘yinda sinf ikki guruhga ajratiladi va har bir guruhdan bittadan o‘quvchi tanlab olinib, ertakdagi ish-harakatni bildiruvchi o‘nta so‘z yozish topshiriladi. Belgilangan vaqtda topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruh ertakni hikoya qilib beradi. Masalan, och qolibdi, boribdi, qirilibdi, yuboribdi, chaqibdi, yomonlaydi, tayinlabdi. Ona tili fani bilan bog‘laydi

**«Blis-o‘yin»** texnologiyasi.



O‘quvchining ismi, familiyasi			Sinf: «3» Mavzusi: Botir mergan va chaqimchi (O‘zbek xalq ertagi)	
№	Savollar mazmuni	O‘quvchilar javobi	To‘g‘ri javob	Javoblar mazmuni
1	Tog‘ oralig‘ida qirq uyli ovulda kim yashagan ekan?			Chaqimchi podshoga borib, Botir merganni chaqibdi.
2	Ovulning odamlari nima uchun och qolibdi?			Tog‘ oralig‘ida qirq uyli ovulda Botir degan dovyurak mergan yigit yashagan ekan
3	Odamlarning og‘ir ahvolini ko‘rgan Botir mergan nima qilibdi?			Botir merganni ovulga oqsoqol etib tayinlabdi.
4	Kim podshoga borib, Botir merganni chaqibdi?			Qish qattiq kelib, ovulning moli qirilib ketganligi uchun och qolibdi.
5	Podsho chaqimchini nima uchun jazolabdi?			Odamlarning og‘ir ahvolini ko‘rgan Botir mergan podshoning mollaridan olib kelib, odamlarga so‘yib beraveribdi.



6	Botir merganni ovulga kim etib taynlabdi?			Bu chaqimchi bir kuni boshqa kishini ham yomonlaydi, – deb jazolabdi
---	---	--	--	--


### 31-DARS (Metodik ko'rsatma)

**Mavzu:** O'jar toshbaqa (Hamidulla Yoqubov)

Mavzuni e'lon qilishdan o'quvchilar guruhlariga bo'linib, konvertlar tarqatiladi.

**IPT**

«**Mozaika**» o'yini o'ynaladi. Bu o'yinda o'quvchilar konvertdagi kesma rasmlarni yig'ishlari lozim.



O'quvchilarga masal ifodali o'qitiladi. «**Davom ettir**» usulidan foydalaniladi. Masal mazmuni ustida ishlanadi, lug'at ishi o'tkaziladi.



**Lug'at ishi**

**bebosh** – gapga kirmaydigan

**cho'kirtak** – chaqirtikanday o'tkir shox


**jish** – go'sht

**qittak** – ozgina

Darsni mustahkamlashda «**Kim topqir**» o'yini o'ynaladi. Bu o'yinda toshbaqa haqida topishmoqlar beriladi.

**IPT**

«**Tarmoqlash**» usulidan foydalanib, toshbaqaning xususiyatlari ochib beriladi.



## 46-DARS (Metodik ko'rsatma)

**Mavzu:** «Ilmli ming yashar» (Nurmat Maqsudiy)

Nurmat Maqsudiyning «Ilmli ming yashar» hikoyasini o'tishda quyidagilardan foydalanish mumkin.

**IPT**

«Zukko» o'yini o'ynaladi.

Bir onadan yuz bola,  
Yuzovi ham bo'z bola.

(Tok, uzum)

Qora marjon, oq marjon,  
Yetmish do'st bir tan-u jon.

(Uzum)

Chorpoya ustida  
Shirin-shakar bolasi.

(Tok, uzum)

Ota-onasidan bolasi shirin.

(Tok, bargi, uzum)

– Bolajonlar, topishmoqlar nima haqida ekan?

O'quvchilar javoblari tinglanib, yangi dars mavzusi e'lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Nurmat Maqsudning «Ilmli ming yashar» hikoyasi bilan tanishamiz. (Hikoya muallifi haqida ma'lumot beriladi.)

O'quvchilar bilan uzum turlari haqida suhbat o'tkaziladi.

Mavzu mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar ketma-ket hikoyani o'qiydi. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradilar. O'quvchilar bilan lug'at ustida ishlanadi.



**Lug‘at ishi:**

**dongdor** – dovrug‘i ketgan, mashhur

**sohibkor** – ishbilarmon

«**Maqollar tilsimi**» o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilar ilm haqida maqollar aytadilar.



«**Ma‘nosini top**» o‘yini

**Sohibkor, dongdor** – so‘zlarining ma‘nosini darslikdan topadilar

## 47-DARS (Metodik ko‘rsatma)

**Mavzu:** «Xazonchinak» (O‘tkir Hoshimov)

Ushbu mavzuni o‘tishda o‘quvchilar bilan kuz faslidagi hosil yig‘imi haqida suhbat o‘tkaziladi.



«**Sonlar tilsimi**» o‘yini orqali yangi mavzu nomi aniqlanadi.

$$25 \times 12 = 300 \quad \text{xa}$$

$$36 \times 8 = 288 \quad \text{chi}$$

$$125 : 5 = 25 \quad \text{zon}$$

$$1245 - 1125 = 120 \quad \text{nak}$$

Dars mavzusi e‘lon qilinib, muallif O‘tkir Hoshimov haqida ma‘lumot beriladi. Matn ifodali o‘qib beriladi, matndagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi. «Zanjir» usulida o‘quvchilar matnni ketma-ket o‘qiydilar.

Matn mazmuni «Davom ettir» usulida qayta hikoya qildiriladi.



«**Mohir rassom**» mashqi o‘tkazilib, o‘quvchilarning ishkombi haqidagi tasavvurlarini aniqlash mumkin. Buning uchun o‘quvchilar to‘rt kishilik kichik guruhlariga bo‘linadi va ularga rangsiz, tugallanmagan ishkombi tasviri tarqatiladi. O‘quvchilar rasmni bo‘yab, o‘z tasavvurlaridan kelib chiqib ishkombi tasvirlaydilar. Mavzuni mustahkamlash maqsadida test topshiriqlari beriladi.



**Test topshiriqlari:**

1. Erkin kimning uyiga mehmonga bordi?

A) G‘ani amakisining uyiga

B) G‘ani tog‘asining uyiga

D) Qishloqqa

E) Abdulla amakisining uyiga

2. Abdulla nechanchi sinfda o‘qir edi?  
A) 4-sinfda B) 2-sinfda  
D) 3-sinfda E) 5-sinfda
3. Erkin va Abdulla qayerga bordilar?  
A) Olmazorga B) Bog‘ga  
D) Dalaga E) Uzunzorga
4. Nima uchun toklar ko‘miladi?  
A) Yaxshi hosil olish uchun  
B) Uzumlarni yaxshi saqlash uchun  
D) Shoxlari yaxshi o‘shishi uchun  
E) Toklarni sovuqdan saqlash uchun
5. «Xazonchinak» hikoyasi muallifi kim?  
A) Erkin Malikov B) O‘tkir Hoshimov  
D) Dilfuza Kamoljonova E) Aziz Abdurazzoq

#### 54-DARS (Metodik ko‘rsatma)

**Mavzu:** «Kitob». (Tohir Malik)

«Kitob» rivoyatini o‘tishda quyidagilardan foydalanish mumkin.

**IPT**

«**Meni tushun**» o‘yini.

Kitobga ta‘rif beriladi, o‘quvchilar gap nima haqida bora-yotganini tushunib javob berishlari kerak. Agar 1-ta‘rifda topa olmasalar, 2-ta‘rif eshittiriladi, unda ham topishga qiynalsalar 3-ta‘rif eshittiriladi.

1-ta‘rif: Bu narsa barchamizning uyimizda bor. Har kuni undan foydalanamiz. Kichkina bolalardan uzoqroq tutamiz.

2-ta‘rif: Biz undan ko‘p narsalarni o‘rganamiz. Dunyoqarashimizni va bilimimizni oshiramiz.

3-ta‘rif: Bizga hamma fanlarni o‘qishimizga yordam beradi. Matematikadan hisoblashni, ona tilidan chiroyli yozishni, o‘qishni o‘rgatadi.

Bolajonlar, bu ta‘rifimiz nima haqida ekan?

O‘quvchilar javoblari tinglanib, yangi dars mavzusi e‘lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Tohir Malikning «Kitob» rivoyati bilan tanishamiz. (Rivoyat muallifi haqida ma‘lumot beriladi.) O‘qituvchi rivoyatni ifodali o‘qib beradi. Matn mazmuni tushun-

tiriladi. O‘quvchilar ketma-ket she‘rni o‘qiydi. Qolgan o‘quvchilar kuzatib boradilar. O‘quvchilar bilan lug‘at ustida ishlanadi.



### Lug‘at ishi:

**no‘noq** – uddaburon emas, epsiz, noshud

**nodon** – bilmaydigan, xabarsiz, johil, ilmsiz, kaltafahm

**durust** – yaxshi, tuzuk

**qayroqtosh** – silliq yoki qayrab, charxlab, maxsus shakl berilgan tosh.

### «Boshqotirma»

**IPT**

Ushbu boshqotirmani yechsangiz, kitob haqidagi maqolni bilib olasiz.



17:30	2:30	13:00	18:00	14:00
-------	------	-------	-------	-------

2:00	14:30	22:30	2:30	13:30
------	-------	-------	------	-------

1:30	9:30	20:00	14:00	21:30	4:30	14:30
------	------	-------	-------	-------	------	-------

(Kitob – bilim manbayi)

**Rivoyat qahramonlarini tavsiflash.** Sinf o‘quvchilari 2-guruhga bo‘linadi. 1-guruh akasiga, 2-guruh ukasiga tavsif beradi.

1-guruh  
donishmand  
aqlli  
mard  
ilimli  
mehribon

2-guruh  
nodon  
o‘qimagan  
no‘noq  
yolg‘onchi  
dangasa

## 57-DARS

**Mavzu:** Yosh hakim (Mirkarim Osim).

Ushbu mavzuni o‘tishda o‘quvchilar bilan quyidagi topshiriqni bajaradilar.

**(quyosh-qu) (halol-lol)+(hakim-ha) = yosh hakim**

«Ma‘nodoshini top» o‘yini o‘ynaladi.

**IPT**

O‘quvchilar «hakim» so‘ziga mos ma‘nodosh so‘zlarni topadilar.

Hakim – tabib, shifokor

Dars mavzusi e'lon qilinib, muallif Mirkarim Osim haqida ma'lumot beriladi. Matn «Zanjir» usulidan foydalanib ifodali o'qitiladi, matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.



### Lug'at ishi:

**marhum** – vafot etgan, o'lgan kishi

**to'shak** – jun, paxta singari yumshoq narsa solib tikib tayyorlangan yotish, o'tirish uchun to'shaladigan buyum.

**mutolaa** – diqqat bilan o'qish, o'qib tushunib olish

**kitobdor** – kutubxonachi

«**Gullar dastasi**» o'yini o'ynaladi.



Bu o'yinda har bir o'quvchi guldonga gullarning orqasiga yozilgan topishmoqlarni topib, guldonga solishlari lozim.

Sandiq to'la pista-bodom,

Ochib ko'r, bo'lsang odam.

Xosiyati ko'p, olam-olam

Terib ol uni har dam (Kitob)

Tilsiz, aql o'rgatar (Kitob)

Daraxt emas, yaproqli,

Ko'ylak emas, etakli,

Odam emas so'zlaydi,

Turli kuylar kuylaydi. (Kitob)

## 71-DARS (Metodik ko'rsatma)

**Mavzu:** Qish ertagi (Aziza Ahmedova).

«**Kim chaqqon**» o'yini.



«Qish ertagi»ni o'qib chiqdingiz. Endi uning har bir qismiga sarlavha topib, xulosalash kerak. Fikrlaringizni quyidagi namunada berilgani kabi bayon qiling.

### Qish ertagi. 1-qism

Sarlavha: O'rmonda qish.

Xulosa: Maslahatli ish tarqamas.

### 2-qism

Sarlavha: \_\_\_\_\_

Xulosa: \_\_\_\_\_

### 3-qism

Sarlavha: \_\_\_\_\_

Xulosa: \_\_\_\_\_

### 4-qism

Sarlavha: \_\_\_\_\_

Xulosa: \_\_\_\_\_

**IPT**

«Soʻzdan soʻz top» oʻyini. Qani bolalar, «Qizilishton» soʻzidan kim nechta soʻz topadi? Ajratilgan vaqt: 1 daqiqa.

Qizilishton, iz, ish, non, tol, qil, qish, qiz, tosh, ilon, ..., ..., ....

**IPT**

«Quvnoq daqiqalar» oʻyini.

**Oʻquvchilar berilgan savollarga tez javob beradilar.**

1. Namanganda 3 ta bor, Andijonda 1 ta bor. Nima u? (A harfi)
2. Tuyaqush nima uchun yuguradi? (Ucha olmagan uchun)
3. 100 kunda almashadigan tana aʼzosi? (Kiprik)
4. Yettini necha marta koʻpaytirsan 35 boʻladi? (5 marta)
5. Eng uzun tun qaysi? (22-dekabr)
6. Tuyaning bolasi nima? (Boʻtaloq)

## 90-DARS (Metodik koʻrsatma)

**Mavzu:** Ikki qiz (Jamila Haydarova).

Test topshiriqlari:

1. «Ikki qiz» hikoyasida sinfga kelgan yangi qizning ismi nima?  
A) Karima                      D) Gulnora  
B) Nigora                        D) Barno
2. Gulnora qaysi tovushni aytishga qiynalar edi?  
A) «S» tovushini              B) «L» tovushini  
D) «R» tovushini              E) «Sh» tovushini
3. Gulnora nimadan xavotirlanar edi?  
A) boshqalar ustidan kulishidan  
B) past baho olishidan  
D) maktabga kech qolishidan  
E) bir oʻzi qolishidan
4. Gulnora «r» tovushini talaffuz qilishiga kim yordam berdi?

A) Karima B) Gulnoraning o‘zi

D) Nigora E) Barno opa

5. Karima nima uchun quvondi?

A) «5» baho olgani uchun

B) sovg‘a berishgani uchun

D) dugonasini ko‘rgani uchun


E) Gulnora «r» harfli so‘zlarni aytishni o‘rgangani uchun

«Maqolni top» o‘yini

Chizma bo‘ylab harakatlansangiz yashiringan maqolni bilib olasiz.

IPT

B	A	G	E	S	D	A	B	U	T	Q	X
H	O	G‘	I	B	N	S	I	L	I	M	V
N	T	L	R	K	U	J	E	T	N	A	R
F	S	O	P	Q	Y	N	O‘	P	L	U	K
D	O‘	U	N	G	S	D	A	E	R	V	H



(Maqol: Do‘st og‘ir kunda bilinar)

IPT

«Adabiy domino» mashqi

Ertak 12	Kishilarga o‘git bo‘ladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya 10
Hikoya 2	Yanglishib ketish mumkin bo‘lgan, qofiyadosh, o‘xshash so‘zlarning jumllarini adashmay, tez talaffuz qilish 6



She'r 3	Kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya 8
Rivoyat 4	Biror tushuncha yoki fikr ifodalovchi so'zlarning tur-g'un birikmasi 11
Topishmoq 5	Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora 7
Tez aytish 6	Hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan kichik hajm-li asar 2
Maqol 7	Avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib kelgan uy-dirma, to'qimadan iborat, ba'zan diniy mazmundagi hikoya 9
Latifa 8	Ma'lum vazn va qofiyali kichik badiiy asar 3
Afsona 9	Topilishi kerak bo'lgan narsa, hodisa va shu kabilarning ramz va o'xshatmalar orqali ifodalangan qisqa tavsifi 5
Masal 10	To'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi badiiy asar 12
Ibora 11	Avloddan avlodga o'tib kelayotgan, voqea va hodisa-larni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya 4

## 112-DARS (Metodik ko'rsatma)

**Mavzu:** «Bahor yaqin». (Zafar Diyor)

Zafar Diyorning «Bahor yaqin» she'rini o'tishda quyidagilar-dan foydalanish mumkin.

**IPT**

«*Kim topqir*» o'yini. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. O'quvchilar tabiat hodisalari haqida topishmoqlarni topadi.

Oyog'i yo'q, qochadi,  
Qanoti yo'q, uchadi. (Bulut)

Yerga tushsa loy qilar,  
Dehqonlarni boy qilar. (Yomg'ir)

Qishda oq gul,  
Bahorda suv sochadi.

Yel esganda,  
Tumtaraqay qochadi. (Bulut)

Osmon chirog'i  
Yondi-yu o'chdi. (Chaqmoq)

Kelib ketar bir yilda,  
To'rt og'ayni har xilda. (To'rt fasl)

Bola kelar, bola kelar,  
Ilk mehr ola kelar,  
Silab-siylab daraxtlarga,  
Guldan marjon taqa kelar. (Bahor)

– Bolajonlar, topishmoqlar nima haqida ekan?

O'quvchilar javoblari tinglanib, yangi dars mavzusi e'lon qilinadi.

– Bugun biz sizlar bilan Zafar Diyorning «Bahor yaqin» she'ri bilan tanishamiz. (She'r muallifi haqida ma'lumot beriladi.)

O'quvchilar bilan bahor tabiati haqida suhbat o'tkaziladi.

– Bahor faslida tabiat qanday ko'rinishda bo'ladi? Video roliklar ko'rsatiladi.

O'qituvchi she'rni ifodali o'qib beradi.

Matn mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilar ketma-ket she'rni o'qiydi. Qolgan o'quvchilar kuzatib boradilar. O'quvchilar bilan lug'at ustida ishlanadi.



**Lug'at ishi:**

**boqar** – qarar, nazar tashlar

**yog'du** – yorug'lik, nur.

**tog'day o'sar** – xursand bo'lar

**Mustaqil ish.**

**She'rdagi qofiyadosh so'zlarni toping:** kunlari – tunlari, bog'larga – tog'larga, o'tloqlar – o'rtoqlar, kelganda – terganda.



**«Topib o'qi» mashqi o'tkaziladi.**

Shoirning she'rdagi qishning sovuq kunlarini tasvirlagan joyini topib o'qing.

She'rda quyosh, bahor haqida aytilgan misralarini topib o'qing.

**Mavzu:** «Sohiba kimdan xafa?» (Mahmud Murodov).

IPT

O'quvchilarga qizlarga xos fazilatlarini «Klaster» usulida yozish topshirig'i beriladi. Topshiriq bajarilgach, qizlar tartibsiz, pala-partish yursalar qanday ahvolga tushishlari haqida o'quvchilar fikrlari tinglanadi. So'ng yangi dars mavzusi e'lon qilinadi. Hikoya muallifi Mahmud Murodov haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Matn yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

- Hikoya nima haqida ekan?
- Nima uchun Sohiba ko'ylagini topa olmadi?
- Sohiba dugonasining uyiga qanday ko'ylakda bordi?
- Sohibaning dugonalari qanday holatda tug'ilgan kunga keldilar?
- Nima uchun Sohibaning ko'zlariga yosh keldi?
- Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Matn o'quvchilarga «Zanjir» usulida ketma-ket o'qitiladi.

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

**Lug'at ishi:**

**uloqtirdi** – otdi, tashladi

**kuymalanayotgan** – yumush bilan band

**gavjum** – odam ko'p joy

**to'zigan** – yoyilgan, taralmagan

**charos ko'zlar** – qora, dumaloq ko'zlar

Hikoya qismlariga sarlavha qo'yiladi.

1. Dazmollamay kiyilgan ko'ylak.
2. So'nggi pushaymon.

IPT

«**Maqollar zanjiri**» o'yini o'tkaziladi.

Erinchoq ikki ishlar, oxiri barmog'in tishlar.

Dangasaga bulut soyasi ham yuk.

Dangasaning ishi bitmas,

Yoz kelsa ham qishi bitmas.

Ishyoqmasga so'z yoqmas.

Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar

Saodat va Sohibaga qiyosiy tavsif beriladi

Saodat	Sohiba
Tartibli	Tartibsiz
Saranjom	Pala-partish

**Mavzu:** «Quvnoq o'tsin ta'tilingiz» (Ilyos Muslim).

«Klaster» metodidan foydalanib, ta'til haqidagi fikrlar yoziladi.

She'r muallifi Ilyos Muslim haqida ma'lumot beriladi, she'r ifodali o'qib beriladi. She'r mazmuni tushuntiriladi, notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi. Navbat bilan she'r o'quvchilarga o'qitiladi.

**IPT**

«**Mozaika**» o'yini o'tkaziladi. Bunda ta'til vaqtida bajariladigan ishlar tasvirlangan rasmlar bo'laklarga bo'lib tarqatiladi. O'quvchilar rasm bo'laklarini yig'ishlari va rasm mazmunini tasvirlab berishlari kerak bo'ladi.

**IPT**

«**Rassomning xatosi**» mashqi.

O'quvchilar to'rt kishilik kichik guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatiladi. Rasmlarda ayrim xatoliklar aks etgan bo'ladi. O'quvchilar xatoni topishlari va izohlab berishlari kerak bo'ladi.

**IPT**

«**Ingliz tili bilimdoni**» o'yini. Ushbu o'yinda o'quvchilar berilgan so'zlarning ichidan yoz fasliga tegishlilarini ajratib olishlari kerak.

Masalan: summer, swim, garden, holiday, autumn, fruits.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'li-da xizmat qilish – eng oliy saodatdir». T.: O'zbekiston, 2015-y. ...-bet.
2. A. Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». – T.: O'zbekiston, 2008. ...-b.
3. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2009-yil.
4. «Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti» Boshlang'ich ta'lim 2006, 5-son.
5. «Boshlang'ich ta'lim takomillashtirilgan o'quv dasturi» Boshlang'ich ta'lim 2006, 5-son.
6. M. Umarova va boshqalar «O'qish kitobi», 3-sinf, T., 2014-yil.
7. S. Matjonov va boshqalar «Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish», T., 2008-yil.
8. T. G'afforova «Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar», T., 2011-yil.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati, I–V tom.
10. O. Parpiyeva. «O'qish fanidan amaliy mashg'ulotlar» 1–4-sinflar uchun. – T: «Bayoz» nashriyoti, 2015-yil.

## MUNDARIJA

So‘zboshi .....	3
Metodik qo‘llanmaning tuzilishi .....	4
O‘qish darslari samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish .....	6
O‘qish darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish .....	9
<b>1-dars.</b> Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin (Dilfuza Kamoljonova) .....	19
<b>4-dars.</b> Vatan mo‘tabardir (Xurshid Davron) .....	21
<b>6-dars.</b> Til qudrati (Rivoyat) .....	24
<b>8-dars.</b> Tuhfa (Oygul Suyundiqova) .....	27
<b>12-dars.</b> Obod mahalla bo‘ylab (Kavsar Turdiyeva) .....	31
<b>20-dars.</b> Qo‘shiqlar. Alla .....	35
<b>22-dars.</b> Halollik (O‘zbek xalq ertagi) .....	38
<b>23-dars.</b> Donishmand yigit (O‘zbek xalq ertagi) .....	42
<b>25-dars.</b> Chumchuqcha». Ertak. (Mahmud Murodov) .....	44
<b>30-dars.</b> Qaysar buzoqcha (Olim Qo‘chqorbekov) .....	47
<b>34-dars.</b> Latifalar .....	49
<b>40-dars.</b> Mehrjon sayli (Malik Murodov) .....	51
<b>42-dars.</b> Bebaho boylik (Hakim Nazir) .....	55
<b>43-dars.</b> Bobur va kabutar (Rivoyat) .....	58
<b>44-dars.</b> So‘nggi axborot (Anvar Obidjon) .....	63
<b>51-dars.</b> Jaloliddin Manguberdi. (Mirkarim Osim) .....	67
<b>52-dars.</b> Mehnatkash qiz (Oybek) .....	70
<b>60-dars.</b> Alpomishning bolaligi (Ertak) .....	74
<b>61-dars.</b> Cho‘pon yigit Shiroq (Rivoyat) .....	77
<b>65-dars.</b> Chana (O‘tkir Hoshimov) .....	80
<b>66-dars.</b> Bosh kitob (Safar Barnoyev) .....	83
<b>79-dars.</b> O‘zbekiston posbonlari (Miraziz A‘zam) .....	86
<b>82-dars.</b> Bobonur (Safar Barnoyev) .....	89
<b>83-dars.</b> «Botir askarcha (Habib Rahmat) .....	93
<b>84-dars.</b> Biz – istiqlol farzandlarimiz (Rauf Tolib) .....	96
<b>89-dars.</b> Zamonaviy oila (Muazzam Ibrohimova) .....	98
<b>92-dars.</b> Barakalla, bo‘tam (Farhod Musajonov) .....	101
<b>93-dars.</b> Jigarlarga tilaklarim. <i>Maqsud Shayxzoda</i> .....	104
<b>97-dars.</b> Ibn Sinoning shogirdlari (Rivoyat) .....	107
<b>101-dars.</b> Sohibqiron Temur bobom (Hikoyat) .....	110

<b>107-dars.</b> Minora (Safar Barnoyev) .....	114
<b>113-dars.</b> Tabiat bilan suhbat (Rivoyat) .....	117
<b>115-dars.</b> Bayramingiz muborak (Yusuf Shomansur) .....	119
<b>118-dars.</b> Varrak (Yo‘ldosh Shamsharov) .....	122
<b>121-dars.</b> Navro‘z – bahor bayrami (Muzayyana Alaviya) .....	125
<b>127-dars.</b> Suhbat (Yayra Sa‘dullayeva) .....	128
<b>129-dars.</b> Soy suvi haqida ertak (Zohir A‘lam) .....	131
<b>131-dars.</b> Bog‘im (Habib Rahmat) .....	133
<b>134-dars.</b> Ota-ona duosi (Safo Ochil) .....	138
<b>139-dars.</b> Qalamning o‘kinchi (Shuhrat) .....	139
<b>143-dars.</b> Do‘stlar (Kalila va Dimna) .....	142
<b>149-dars.</b> Hunarni sev (Tolib Yo‘ldosh) .....	144
<b>153-dars.</b> Yaxshilik yerda qolmas (Hakim Nazir) .....	147
<b>155-dars.</b> Eng muqaddas kun (Yoqutxon Rahimova) .....	151
<b>156-dars.</b> Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor (Muhammad Yusuf) .....	153
<b>161-dars.</b> Yoz (Obid Rasul) .....	156

## METODIK KO‘RSATMALAR

<b>13-dars.</b> Toshkentim – onam. (Maqsud Shayxzoda) .....	158
<b>21-dars.</b> Botir mergan va chaqimchi (O‘zbek xalq ertagi) .....	159
<b>31-dars.</b> O‘jar toshbaqa ( <i>Hamidulla Yoqubov</i> ) .....	161
<b>46-dars.</b> «Ilmli ming yashar (Nurmat Maqsudiy) .....	162
<b>47-dars.</b> Xazonchinak (O‘tkir Hoshimov) .....	163
<b>54-dars.</b> Kitob. (Tohir Malik) .....	164
<b>57-dars.</b> Yosh hakim. (Mirkarim Osim) .....	165
<b>71-dars.</b> Qish ertagi (Aziza Ahmedova) .....	166
<b>92-dars.</b> Ikki qiz (Jamila Haydarova) .....	167
<b>112-dars.</b> «Bahor yaqin». (Zafar Diyor) .....	169
<b>146-dars.</b> Sohiba kimdan xafa? (Mahmud Murodov) .....	171
<b>165-dars.</b> Quvnoq o‘tsin ta‘tilingiz» (Ilyos Muslim) .....	172
Foydalanilgan adabiyotlar .....	173

# O‘QISH

3-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or  
pedagogik va axborot-kommunikatsiya  
texnologiyalarini amaliyotga joriy etish  
bo‘yicha metodik qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi  
vazirligi tasdiqlagan*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2016

Muharrir *Rasuljon Nafasov*  
Badiiy muharrir *Sarvar Gayratov*  
Texnik muharrir *Diana Gabdraxmanova*  
Sahifalovchi *Asal Nisanbayeva*  
Musahhihlar: *Ma‘mura Ziyamuhamedova, Sharofat Xurramova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011**

Bosishga ruxsat etildi 8.08.2016. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>.  
«Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog‘i 11,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 8,91.  
Adadi 28786. Buyurtma № 4397.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko‘chasi, 41-uy.**